

82.3(4/8)
M-22

Mamarasulzoda Zulxumor Abulqosim qizi

**O'ZBEK MUSIQA FOL'KLORI NAMUNALARINI
TO'PLASH VA YOZIB OLISH TARIXI**

MONOGRAFIYA



82.3(4/8)

M-22

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LI
VAZIRLIGI**

JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MUSIQA MADANIYATI FAKULTETI

Mamarasulzoda Zulxumor Abulqosim qizi

**O'ZBEK MUSIQA FOL'KLORI NAMUNALARINI
TO'PLASH VA YOZIB OLIISH TARIXI**

MONOGRAFIYA

Mazkur Monografiya "Ozbek musiqa tarixi", "O'zbek musiqa fol'klori",
"O'zbek xalq ijodiyoti" yo'nalishlari bo'yicha o'z ifodasini topgan hamda DTS
va QQga mos tarzda tuzilgan.

Ixtisoslik - 13.00.02 - pedagogika: Ta'lim va tarbiya nazariyasi va
metodikasi ixtisosligi bo'yicha

Mutaxassislik yo'nalishi;

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar fanlar

Ta'lim sohasi: 110000 – O'qituvchilar tayyorlash pedagogika fani

Ta'lim yo'nalishi: 60111300 (0114)- Kasb ta'limi (turlari bo'yicha)

60211400 (0215)-Vokal san'ati (turlari bo'yicha)

60211500 (0215)- Cholg'u ijrochiligi (turlari bo'yicha)

Mazkur Monografiya Jizzax davlat pedagogika instituti ilmiy kengashida
2022.29.12. № 5/6.11- son, buyrug'iga asoslanib nashr etishga tavsiya etilgan.

Jizzax –2022

JIZZAX DPI

INV № 144699

AXBOROT RESURS MARKAZI

UO'K 78

M 22

Mamarasulzoda Zulxumor Abulqosim qizi

O'zbek musiqa fol'klori namunalarini to'plash va yozib olish tarixi.[Matn]:
Monografiya/-Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Mamarasulzoda Z.A.Durdona
nashriyoti, 2021.-120 b.

BBK 82.3(4/8)

Mazkur Monografiya o'quv qo'llanma tarzida Oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari talabalari hamda ixtisoslashtirilgan san'at maktablari o'qituvchilari uchun mo'ljallangan. Monografiya (o'quv qo'llanma) dan manba asnosida magistr va doktorantlar tadqiqot ishlarida ham foydalanishlari mumkin.

Muallif:

© **Mamarasulzoda Z.A.**

JizDPI,Musiqa madaniyati fakulteti o'qituvchisi

Mas'ul muharrir:

Said Bolta-Zoda SAIDIY

NavDPI,San'atshunoslik fanlari nomzodi, professor.

Xalqaro "Antiquye World" ilmiy Akademiyasi akademigi

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, kompozitor

Taqrizchilar:

Fayzullayev Ermat Majidovich

JizzaxDPI, "Musiqa ta'limi" kafedراسи dotsent v/b.p.f.n.

Askar Xidirov

Buxoro Davlat Universiteti, san'atshunoslik fakulteti dotsenti.

O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, bastakor

© O'zbek musiqa fol'klori namunalarini to'plash va yozib olish tarixi.
Mamarasulzoda Zulxumor Abulqosim qizi

Jizzax –2022

Annotatsiya

Monografiyada (o'quv qo'llanma) tarzida ilk marotaba O'zbek musiqa fol'klori namunalarini to'plash va yozib olish tarixining tom ma'nodagi yangiliklari yoritilgan va o'rin olgan.

Ushbuda Markaziy Osiyo xalqlarining turli orf -odatlari va ularning kelib chiqish tarixi, uslublarning bir-birovidan farqi va o'xshashligi, qo'llanish sohasi va turlari bayon etilgan. Mahalliy uslublarning xududiy o'rinlanishi va jahon hamjamiyatidagi ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, zamonaviylikdagi qo'llanish yo'llari va folklorshunoslikka oid lug'aviy atamalar, test, glossariylar va fotoillyustratsiyalar kiritilgan.

Аннотации

Впервые в виде монографии (учебника) есть реальная новость об истории сбора и записи образцов узбекской народной музыки.

В нем описаны различные обычаи и традиции народов Центральной Азии, их история происхождения, различия и сходства в их стилях, областях применения и типах. Подчеркивается региональное расположение локальных стилей и их значение в мировом сообществе. Он также включает в себя современные употребление и лексические термины, тесты, глоссарии и фотоиллюстрации связанные с фольклором.

Annotation

For the first time in the form of a monograph (textbook) there is real news about the history of collecting and recording samples of Uzbek folk music.

It describes the different customs and traditions of the peoples of Central Asia, their history of origin, differences and similarities in their styles, areas of application and types. The regional location of local styles and their importance in the world community are highlighted. Also included are modern usage and lexical terms, tests, and glossaries and fotoillyustrasion related to folklore.

MUQADDIMA

KIRISH: (Mavzuning dolzarbligi).....6-13

I BOB. 1. MARKAZIY OSIYO XALQLARI MUSIQA FOL'KLORINING QADIMIY ILDIZLARIDA TARIXIY BOSQICHLAR

1.1.-§. Nomoddiy madaniy merosning sohalarida o'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakl va an'analari.....14-16

1.2.-§. O'zbek xalq musiqa ijodiyotining shakllanish va taraqqiyot yo'li.....16-23

II BOB. 2. O'ZBEK MUSIQA FOL'KLORI NAMUNALARINI TO'PLASH VA YOZIB OLISH TARIXIDAN

2.1. -§. XVI-asr Buxoro Miniatyura maktabida mavrigixonlik hadiyligi.....24-29

2.2.-§. O'zbek musiqa fol'klori namunalarini to'plash va yozib olish tarixidan.....29-33

2.3.-§. Musiqa san'ati sohasidagi birinchi o'quv va ilmiy dargohlar:

Fitrat va musiqa.....33-39

III BOB. 3. O'ZBEKISTON MAHALLIY USLUIBLARI VA ZAMONAVILIK

3.1.-§. Xalq musiqasining mahalliy uslublarida qo'shiqchilikning metroritmik janrlari.....40-67

3.2.-§. O'zbekiston mahalliy (fol'klar) uslublarining zamonaviy saxna ko'rinishlarida "To'y qo'shiqlari" va Bolalar fol'klori67-82

Umumiy xulosa.....83-88

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....89-91

I L O V A L A R: 1. Atamalar lug'ati.....92-94

2. Glossariy.....95-113

3. Fotoillystratsiyalar.....114-119

Muallif.....120

KIRISH

Q'adimdan xalq tomoshalari ko'rinishida bo'lib, musiqa va teatr sifatida shakllangan bu san'at doim ijtimoiy hayotga munosabat tusini olgan. Inson turli chegaralarni tuzadi, ammo san'at chegarani bilmaydi: G'arbu Sharqda ham, Shimolu Janubda ham u inson manzaralarini namoyish etaveradi. San'atning mintaqasi ham chegarasizdir!... Islom Karimov

O'zbekiston xalqining mahalliy uslublari xalq og'zaki ko'rinishida 3000 ming yillik an'analarini saqlab, avaylab bugungi kun madaniyati peshqadamining timsoli asnosida jahon musiqa olamini hayratga solib, mo'jizali ta'atrot qoldirmoqda. Mutaxassis tayyorlashning maqsadi, vazifalari ushbu tanning xususiyatlarini o'rganish, talablarni o'qitish hamda tarbiyalashning mazmuni, tamoyillari va usullarini topg'ri belgilash eng muhim shartlardan biridir.

Badiiy so'z san'ati madaniyatining eng qadimgi va uzoq tarixga ega bo'lgan sohasi, bu -fo'lkordir.

«Fol'klor» termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilg'yam Toms tomonidan 1846 yilda qo'llandi. «Fol'k»-«xalq», «lor»-«bilim», «donolik», «donishmandlik» ya'ni «xalq bilimi», «xalq donoligi», «xalq donishmandligi» degan mahnoni anglatadi. «Fol'klor» termini xalqaro terminga aylanib, turli mamlukatlarda qo'llanila boshladi.

Angliya va AQSH da xalq badiiy faoliyatining barcha turlari-poetik ijod, musiqa, raqs, uyin, teatr,tasviriy va amaliy sanhat shuningdek, irim-sirim, ishonch- ehtiqod va urf-odatlar shu termin bilan ataladi.

O'zbek fol'klorshunosligida «fol'klor» termini 1932 yillarda Hodi Zarif kiritdi va oliy uquv yurti talabalari uchun mo'ljallangan birinchi kitoblarini «O'zbek fol'klori» deb ataladi. Ungacha «fol'klor» termini o'rniga «el adabiyoti», «og'zaki adabiyot», «O'zbeklarda og'zaki adabiyot» kabi atamalar qo'llanib kelinardi. Bu termin o'rniga «fol'klor» termini mustahkam o'rnashib qoldi.

O'zlikni namoyon qilishning og'zaki an'ana va shakllari bizning tushunchamizdagi xalq og'zaki ijodining o'zidir. Xalq og'zaki ijodida til muhim rol o'ynaydi. Chunki til ushbu merosni ifodalashda va kelgusi avlodga yetkazishda eng asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Undagi ijodining tur va janrlari juda keng. Uning tarkibiga mif, afsona, rivoyat, ertak, maqol, matal, doston, masal, hikmatli so'zlar, tez aytilish va boshqa janrlar, muxtasar qilib aytilgan xalq merosining og'zaki ravishda ifodalanadigan barcha tur va janrlari kiradi.

Uzoq va Yaqin Sharq xalqlarining tarixiy madaniy aloqalari, jozibador Sharq xalqlarining tarixiy va ta'lim kuchi hamda o'zbek musiqasining xorijiy Sharq xalqlari musiqasi an'analari bilan muhtarakligini nazarda tutgan holda O'zbekiston Jiranchi Prezidenti Islom Karimov tomonidan quyidagilar ta'kidlangan: *"Musiqasi xalqlari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmaydi, eng yig'u, yuksak va nozik tusdagi kechilmalarni ifoda etadi. Mashhur turkchi Sharafiddin Ali Yazdiy o'zining "Zafarnoma" kitobida Amir Temur davrida o'tkazilgan musiqiy anjumanlar haqida topxtalib, "Yaxshi ovoqli xonandalar kuylashni boshlab, g'azalu naqsh aytur erdilar. Va turku mo'g'ul, xitoyu arab va ajamdir har kim o'z rasmi bilan nag'ma aytur erdi", degan ma'lumotlarni keltiradi. Mustaqillik yillarida ulug' bobolarimizning ana shunday an'analarni davom ettirgan holda, mamlakatimizda musiqasi san'atini keng rivojlantirishga qaratilgan dastur va rejalar amalga oshirilmoqda. Jumladan mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o'rganish, uni yosh avlodlarga bezavol yetkazish maqsadida ko'plab ko'rik-tanlovlari, nufuzli xalqaro anjumanlari muntazam ravishda o'tkazib kelinmoqda".* Binobarin, I.Karimov o'rinli ta'kidlaganidek, *"Barchamiz yaxshi anglab olishimiz kerakki, hayotimizning boshqa sehalaridagi ahvol, amalga oshirilayotgan islohotlarimizning samaradorligi avvalo xalq ma'naviyatining tiklanishi, boy tarixiy merosimizning o'rganilishi, an'analari bizning saqlanishi, madaniyat va san'at, fan va ta'lim rivoji bilan uzviy bog'liqdir",* deb ta'kidlangani bejiz emas albatta!

O'zbek xalqining boy va rang-barang fol'klor merosiga egaligi uning etnik tarkidi serqatlamligi va tarixiy taraqqiyot yo'lini asosan Markaziy Osiyodagi ikki daryo oralig'ida kechganligi bilan ham chambarchas bog'liq. Chunki, Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi hudud qadim-qadimdan xalqlarning buyuk ko'chishlari hamda turli siyosiy, madaniy, iqtisodiy munosabatlardagi yuksalish chorraha vazifasini o'tagan. Bu borada birgina Buyuk ipak yo'lining ushbu hududni deyarli to'liq kesib o'tganligini eslashning o'zi kifoya. O'z navbatida, qaysi yerdan savdo yo'llari o'tsa, o'sha joyda iqtisodiy-siyosiy va madaniy yuksalish jarayonlari kechganligi tabiiydir.

Markaziy Osiyo hududi, jumladan ikki daryo oralig'ida paydo bo'lgan etnoslar va davlat tarixi butun dunyo tarixi va taraqqiyotida muhim o'rin tutishi, bu hududning har jihatdan qulay sharoitda joylashganligi bilan ham belgilanadi.

O'zbek xalqi uchta katta etnosdan tashkil topganligida korluq, qipchoq va o'g'iz qabilalarning o'zaro birlashuvi natijasida, bugungi o'zbek xalqining yadrosi asnosida paydo bo'ldi.

Ma'lumki, bu uch qabila birlashmalari boshqa hududlarda ham turkiy xalqlarning shakllanib, tarkib topishida muhim rol o'ynagan. Bu jarayonlar xalq og'zaki poetik ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanib turadi.

Markaziy Osiyo xalqlari fol'klorining genizisida, syujet qurilishida, yetakchi motivlarida ham o'ziga xoslikni ko'ramiz. Bundan tashqari fol'klor asarlari ijtimoiy qimmatga egaligi bilan ham ajralib turadi. Kelajak avlodni ham ma'rifiy, g'oyaviy-tarbiyaviy va estetik jihatdan tarbiyalashda asosiy ahamiyatga egadir.

Mustaqillikka erishganimizdan buyon o'tgan qisqa muddatda ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan barcha tarixiy, madaniy, adabiy va san'at yodgorliklari bilvosita xalq og'zaki ijodini chuqur o'rganish, tahlil qilish, ulardagi umumbashariy va milliy g'oyalarning zamonga xizmat qildirgan holda o'zbekona, sharqona tafakkurni, g'ururni shakllantirish va kamolga yetkazish doimiy e'tibordadir.

Jahonning ilk birinchi tili bu musiqadir. Ushbuning ham falsafiy hamda psixologik ta'ssirotida ezgulik yoxud yovuzlikni ruhan tasvirlanishi, ijobiy va salbiy ko'rinishlarning harakatga kirishi va tegishli ta'ssirotni ong asab faoliyati bilan bopg'lanib turishi va ruhan jumbushga keltirishi, bu musiqaning tengsiz mo'jizakor va tilsiz qudratidir. Ularni faqat etnik tuzilishida milliyligi-mahalliyliigi, urf-odatlar va madaniy rivojidadagi choig'ulari va ladlarigina u yoki bu davlat musiqasi kesimida ekanligini ajratib turishi bilan hammaga bir xil ijobiy yoxud salbiy differensial psixologik ta'ssurot qo'zg'atadi.

O'zbek xalqi qadimdan o'zining boy milliy-madaniy qadriyatlarini, urf-odatlarini, jahon madaniyatiga qo'shgan ulkan xissasi bilan alohida o'rin egallaydi. Jahon madaniyati va san'ati rivojida o'zbek xalqi tomonidan yaratilgan boy musiqiy merosni butun dunyo tan olishining o'zi ham xalqimizning uzoq o'tmish tarixi, buguniga berilgan munosib bahodir.

O'zbek xalqining boy musiqiy merosini targ'ib va tashviq qilish uchun yurtimizda ko'p harakat qilinmoqda. 2001 yilda fol'klor, 2003yilda Buxoro shashmaqomi, 2009 yilda katta ashula, 2011yili askiyachilik san'ati YuNESKO tomonidan "Insoniyatning nomoddiy madaniy merosi durdonasi" sifatida ro'yxatga olinishi bu muhtasham san'atning hozirgi sharoitda rivojlanishi, ayniqsa yosh avlod orasida ehtibor topishi uchun muhim zamin bo'ldi.

Qadimgi Xorazm zaminida yaratilgan "Avesto" muqaddas kitobida, ayniqsa, uning "Xatlar" [Gatho] qismida musiqiy ijrochilik va uning uslublari haqida ko'plab ma'lumotlar bayon etilgan. Zardushtiylik ta'limoti ham o'z davrida qadimiy an'analarni tiklab, ularni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etganki, ushbu madaniy qatlamga mansub Darbori va Dabiriston maktablarining vujudga kelishi jiddiy o'zgarishlar davri hisoblanadi. Bizgacha yetib kelgan "Avesto"ning ko'p madhiyalari surud [ya'ni, qo'shiq] tarzida yaratilgan. "Avesto" usulidagi surud [qo'shiq]lar, goho hozirgi fors-tojik tillaridagi Eron va Tojikiston musiqaviy fol'klor yo'nalishlarida ham ijro etib kelinmoqda. N.Hakimovning tadqiqotiga ko'ra, Zardusht davrining 17 madhiyasi yashtlar orqali bizning davrimizgacha yetib kelgan. Bu qadimiy qo'shiq an'anasining

Asosiy sarchashmalari "Avesto"ga borib taqaladi. Miloddan oldingi VII-IX asrlarda Markaziy Osiyo xalqlarining madaniyati va musiqa san'ati boshqa davlatlarda, xususan Boxtar [Baqtriya]da ham ancha taraqqiy etadi, keyinchalik Midiya va Ahmoniyalar [Xoxomanish] imperiyasi Eron hududiga ham tarqaladi. Bu davrda musiqa san'ati professional maktab darajasiga ko'tariladi. Asosiy maktablar- Darboriy, Dabiriston an'analari shakllanib, diniy musiqa asosan Harbadiston uslubidan iborat edi.

Ko'xan-tojik musiqa maktabi ikki yo'nalishda bo'lgan; Manbalarda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Darboriy musiqa maktabida talabalar an'anaviy cholg'u ijrochiligi va ovozxonlik bo'yicha saboq olganlar. Talabalari katta yoshli erkaklar va ayollardan iborat bo'lgan darboriy maktabida diniy musiqa yo'nalishida ham saboq berilgan. Ahmoniy saltanatining oxirgi hukmdori Doro saroyida 329 ta talaba va maxsus ovozxonlardan tashkil topgan guruh bo'lganliklari, ular kuylash va raqsga tushish bilan shug'ullanganliklari va aynan mahalliy (fol'klor-lokal) uslub ekanligi bunga misol bo'la oladi. Diniy an'analardan tashqari, musiqa madaniyatining hofizlik an'analari davom ettirilib, bu yo'nalishlarda qadimgi Markaziy Osiyo xalqlari an'anaviy ijro uslublari yuksak saviyada rivojlangan.

Ajdodlarimiz tomonidan uzoq yillar davomida to'plangan boy musiqiy meros ustozlarning hayotiy tajribalari, o'ziga xos urf-odatlari keyinchalik shu zaminda yetishib chiqqan alloma-olimlarning musiqiy qarashlarida sayqallanib, ilmiy tus olgan va noyob qo'lyozmalarda muhrlanib, ma'naviy merosga aylantirilgan. Ushbu merosni o'rganish, yangi sifatlar bilan boyitib, ularni iste'molga olib kirish – jamiyatimizning hozirgi taraqqiyoti, undagi ma'naviy yuksalish, an'ana va qadriyatlarning tiklanishi jarayoni dolzarb masalalardan biridir. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A. Karimov,—"Kelajakda yanada ravnaq topishimizning, jahon hamjamiyatiga qo'shilishimizning garovidir",]deb ta'kidlagani bugungi kundagi ma'naviy rivojlanishning isbotidir..

Ma'naviy merosga bu kabi urg'u berilishi bejiz emas. Navbatdagi vazifa ajdodlarimiz merosini chuqur ilmiy asosda o'rganish, fol'klor musiqiy uslublarni hozirgi davr amaliyotiga tadbiq etish, eng muhimi, hozirgi jamiyatimizda musiqiy merosimiz tutgan o'rnini aniq-ravshan belgilab berishdan iborat.

Musiqiy meros va uning tarixini o'rganishda maqom sanhati alohida o'rin tutadi. Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy merosini o'rganish borasida musiqashunos-manbashunos olimlar I.Rajabov, F.Karomatli, O.Matyoqubov, A.Nazarov, R.Abdullaev, J.Rasulitoyev, O.Ibrohimov, S.Saidiy, R.Yanusovlarning ajdodlarimiz musiqa merosini o'rganishga doir olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir. San'atshunoslik yo'nalishlarining nazariy va amaliy asoslari, milliy va mahalliy uslublari masalalari, musiqa ilmi nazariyotchilarining asarlari, musiqiy qarashlari, islomgacha bo'lgan an'analar va fol'klor uslublari, musiqiy sozlar, maqomdon ustozlar tazkiralariga murojaat qilinib, ularning hayoti va ijodi hamda ijro uslublari va ijro maktablarining negiziy asoslari ko'rsatib berilgan.

Ushbu ish yechilishi kerak bo'lgan muammolar va mavzularning dolzarbligi xalq og'zaki ijodiyoti ilmidagi muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, Oliy va o'ta muhtovot ta'lim muassasalari, talabalari hamda san'at maktablari o'quvchilari uchun ilk marotaba mo'ljallangan.

O'zbek musiqa fol'klori namunalarini to'plash va yozib olish tarixi davriy va hozirgacha bilan kunlik bog'lanishlarga ega olamshumul kashfiyoti, uning hozirgi musiqashunoslikda ham ahamiyati yuksakdir. Ulardan ko'pchiligi hali beri nota tizimining professional yo'nalishidan o'rin olmaganligi bilan dolzarb tadqiqotlarni talab etmoqda. Uning ijrolari qisman xalq orasida ustozshogird an'anaviy uslubida hozirgacha saqlanib kelmoqda. Fol'klor ijodiy nusxalarini mukammal o'rganilib, ushbu nusxalarni to'pliq ilmiy muomalaga tadbiq etishda manba bo'lib xizmat etadi.

O'zbekiston birinchi prezidenti I.A.Karimov "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida: "o'z tarixini bilmaydigan, kechagi kunini unutgan

millatning kelajagi yo'q"¹, deb bekorga tahkidlamaganlar. O'zbekiston Prezidenti Shavqat Miramonovich Mirziyoyevning 2017-2021 yillardagi 5-ustuvor harakatlar strategiyasi hamda 2019 yildagi "Yoshlar ma'naviyatini yuqsaltirish va ularning bopsh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbus;

1. Yoshlarning musiqa, rassomchilik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga keltirishda xizmat qiladi.
2. Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularni sport sohasida qobiliyatini namoyon qilish uchun zarur sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan.
3. Aholi va yoshlar o'tasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etishga qaratilgan.
4. Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish uchun ular o'tasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish uchun bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo'naltirilgan.
5. Xotin qizlarni ish bilan ta'minlash masalalarini nazarga tutadi.

O'zbekiston xalqining mahalliy uslublari xalq og'zaki ko'rinishida 3000 ming yillik an'alarini saqlab, avaylab bugungi kun madaniyati peshqadamining timsoli asnosida jahon musiqa olamini hayratga solib, mo'jizali ta'sirot qoldirmoqda. Mutaxassis tayyorlashning maqsadi, vazifalari ushbu fanning xususiyatlarini o'rganish, talablarni o'qitish hamda tarbiyalashning mazmuni, tamoyillari va usullarini topg'ri belgilash eng muhim shartlardan biridir.

SHuningdek, musiqashunos olimlar Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy merosini o'rganish borasida musiqashunos-manbashunos olimlar F.Karomatli, R.Abdullaev, S.Saidiy, kabi olimlarning musiqashunoslik sohalariga tegishli asarlari, Z.Oripov qabilarning musiqa tarixi, madaniyatshunoslik va musiqashunoslik sohalariga tegishli asari ishning metodologik asosini tashkil qildi. SHuningdek, qiyosiy-tahliliy taqqoslash metodidan ham foydalanildi.

¹ Каримов И.А. Юсак маънавият – енгилмас куч. –Тошкент: Маънавият, 2008. –Б. 4.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- O'zbek xalq musiqa ijodiyotining shakllanish va taraqqiyot yo'lini sharxlanadi;
 - O'zbek musiqa fol'klori namunalarini to'plash va yozib olish tarixini o'rganiladi;
 - O'zbekiston mahalliy (fol'klor) uslublarining zamonaviy saxna ko'rinishlarini yoritiladi;
- “To'y qo'shiqlari” va Bolalar fol'klorini tasniflarini namoish etiladi;

Milliy mafkuramiz shakllanayotgan bir davrda ma'naviy tarbiya hamda milliy meros vositasi sifatida o'zbek musiqa fol'klori namunalarini to'plash va yozib olish tarixining unutilgan va yangi qirralarini zamonaviy musiqiy tafakkur iste'moliga olib kirish zaruriyati topla asoslandi va bu bilan ajdodlarimiz merosining hayotiy mohiyati isbotlab berildi. Unda ilgari surilgan g'oya, fikr-mulohazalar, amaliy taklif va tavsiyalar -- madaniy-mahrifiy, musiqiy-pedagogik va san'at hamda tarix sohasiga ixtisoslashtirilgan musiqava san'at maktablari, oliy ta'lim dargohlarida dars berish jarayonida bir qator ma'ruzaviy hamda individual o'quv kurslari ish rejasiga bevosita kiritilishi, shuningdek, o'zbek fol'klori musiqasi va madaniyati tarixini yozishda ilmiy manba sifatida umumli foydalanish mumkin.

O'zbek musiqa fol'klori sotsiologiya, etnografiya, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarix, san'atshunoslik, musiqashunoslik va boshqa fanlar bilan empirik tarzda ish olib boradi. Tadqiqot natijalari, ushbu ish yechilishi kerak bo'lgan muammolar va mavzularning dolzarbligi xalq fol'klorshunoslik ilmida muhim o'rin egallaydi. Shuningdek, Oliy va o'ta maxsus ta'lim muassasalari, talabalar hamda san'at maktablari o'quvchilariga “O'zbek musiqa fol'klori”, “Xalq og'zaki ijodiyoti”, “O'zbek musiqasi tarixi” fanlariga va “An'anaviy qo'shiqchilik va maqom asoslari”, kabi darslarda foydalanilsh mumkin.

I BOB

I. MARKAZIY OSIYO XALQLARI MUSIQA FOL'KLORINING QADIMIY ILDIZLARIDA TARIXIY BOSQICHLAR

1.1-§. Nomoddiy madaniy merosning sohalarida o'zlikni namoyon qilishning og'zaki shakli va an'analari.

O'zlikni namoyon qilishning og'zaki an'ana va shakllari bizning tushunchamizdagi xalq og'zaki ijodining o'zidir. Xalq og'zaki ijodida til muhim rol o'ynaydi. Chunki til ushbu merosni ifodalashda va kelgusi avlodga yetkazishda eng asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Xalq og'zaki ijodining tur va janrlari juda keng. Uning tarkibiga mif, afsona, rivoyat, ertak, maqol, matal, doston, masal, hikmatli so'zlar, tez aytish va boshqa janrlar, muxtasar qilib aytganda xalq merosining og'zaki ravishda ifodalanadigan barcha tur va janrlari kiradi.

Mif (afsona, rivoyat, asotir) qadimgi odamlarning borlik olam haqidagi ibtidoiy tasavvurlari majmui bo'lib, koinotning yaratilishi, insonlar, hayvonlar va o'simliklarning vujudga kelishi, samoviy jismlarning paydo bo'lishi, tabiiy hodisalarning sabablari va mohiyati, afsonaviy qahramonlar, ma'budalar va ilohlar topg'risidagi etiqodiy qarashlarni o'z ichiga olgan. Qadimda xalqlarda bo'lgani kabi, Markaziy Osiyo miflari mazmun va mohiyat jihatdan quyidagi turlarga bo'linadi:

- olam yaratilishi va hayot paydo bo'lishi ibtido haqidagi miflar;
- osmon jismlari va tabiat hodisalari haqida hikoya qiluvchi samoviy miflar;
- Gerakl, Gilgamesh, Hubbi, Alpomish kabi g'ayri oddiy hislatga ega bo'lgan afsonaviy pahlavonlar haqidagi antropogenik miflar;
- muayan e'tiqodlar bilan bog'liq (masalan, mo'l hosil so'rash, o'simlik yoki olovga topinish) sig'inish miflari;
- xalqlarning kelib chiqishi (masalan 92 ta o'zbek urug'larining paydo bo'lishi) bilan bog'liq etnogenetik miflar;
- taqvimiy miflar (masalan chilla, ayyom ajuz, ahman-dahman va boshqalar. haqida);

-olamning intihosi haqidagi esxatologik miqlar.

Miqlar "Avesto", "Iliada", "Ramayana", "Shohnoma", "Qalevala", "Alpomish", "G'o'r o'g'li" kabi adabiy yodgorliklarning yaratilishida ham salmoqli o'rin tutgan.

Rivoyat voqea va hodisalarni, inson faoliyatini ba'zan uydirmalar vositasida, ba'zan real tasvirlovchi fol'klor janridir. Hajmi qisqa, 2-3 epizoddan oshmaydi, an'anaviy shaklga ega bo'lmaydi. Odatda bir hikoyachi bayonidan boshlanib, og'izdan-og'izga o'tish jarayonida erkin talqin qilinadi. Mazmuniga ko'ra rivoyatlar tarixiy hamda toponimik bo'ladi. Tarixiy rivoyatda biror tarixiy shaxs yoki xalq qahramoni bilan bog'liq hodisalar hikoya qilinadi, axloq va odobning ideal me'yorlari tashviq etilib, muayyan faqtlar haqida axborot beriladi. Bunday rivoyatlar, xususan Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Amir Temur, Bobur, Mashrab va boshqa buyuk shaxslarning hayoti bilan bog'liq voqea-hodisalar asosida ham yaratilgan. Toponim rivoyatlarda esa shahar, qishloq, qo'g'on, saroy, maqbaralar nomi hamda ularning yuzaga kelishi sabablari bilan voqealar hikoya qilinadi. Odatda xotimasida hikoyadan maqsad ta'kidlanadi va muayyan fakt izohlanadi. O'zbek rivoyatlari bizgacha og'zaki, qisman yozma shaklda yetib kelgan.

Matal - muayyan hayotiy hodisani aniq va topg'ri belgilab beradigan obrazli ibora, ibora. Matilda o'sxatlash, taqqoslash, kinoya, qochiriq so'z kabi badiiy vositalardan foydalaniladi. Majoziy iboraning o'z asl ma'nosi bilan ta'riflanish ma'nosi o'rtasida yaqinlik, mantiqiy bog'lanish bo'lishi lozim. Matal bir yoki bir necha jumladan tuziladi, ular orasida qofiyalanish hamisha ham saqlanmaydi. (Masalan: "*Shamol bo'lmasa daraxtning shohi qimillamas*", "*qilim senga aytaman, kelinim sen eshit!*").

Maqol bu xalq og'zaki ijod janri bo'lib, qisqa va lo'nda, obrazli, grammatik va mantiqiy tugal ma'noli xiqmatli ibora, chuqur mazmunli gap. U muayyan ritmga ega bo'lib, avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, epiq va estetik tuyg'ulari, ijobiy fazilatlarini mujasamlashgan. Asrlar davomida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda

poetik shaklga kelgan. Maqollar mavzu jihatidan nihoyatda boy va xilma-xil. Turkiy xalqlari maqollaridan namunalar dastlab Mahmud Qoshqariyning “Devonu lug’ot-t-Turk” asarlarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham O’zbek xalqi orasida turli variantlarda ishlatiladi.

Masal – didaktik adabiyot janridir. Bu ta’limiy harakterdagi, aksariyat kichik she’riy, ba’zan nasriy shakldagi asar. Masalda insonga xos xususiyatlar, jamiyatga xos ijtimoiy hodisalar, qushlar va hayvonlar orasidagi munosabatlar, tabiat hodisalari vositasida aks e’ttiriladi. Mazmuni majoziy asosida qurilib, komiklikning va kinoyaning, ijtimoiy motivlikning ustunligi masalga hajviy ruh bag’ishlaydi. Masalning hikoya qismi hayvonlar haqidagi ertaklar, novella yoki latifalarga yaqin bo’lib, xotimasi maqol, hikmatli so’z va iboralar tarzida bo’ladi. Masal materiallari aksariyat ertak, majoz, novella, latifa va boshqalarda qo’llanilishi mumkin. O’zbek adabiy ijodida uning namunalari “Kalila va Dimna”, “Zarb-ul-masal” va boshqa asarlar tarzida uchraydi. Masalchilik bilan Faxriddin Attor, Jaloliddin Rumi, Alisher Navoiy kabi so’z ustalari shug’ullanganlar.

Afsona xalq og’zaki ijodi (fol’klor) shakllaridan biridir. U xayyolotiy, uydirma va to’qimadan iborat bo’lsada, so’zlovchi va tinglovchi tomonidan haqiqatdek tasavvur etiladi, hattoki voqealar bo’lib o’tgan davr va makon ham ko’rsatiladi. Afsonalar og’izdan-og’izga, eldan-elga o’tib kelgan, ifoda usuli, bayon tarzi hisoblanadi.

1.2-§. O’zbek xalq musiqa ijodiyotining shakllanish va taraqqiyot yo’li

Eng qadimgi fol’klor namunalari yozuv yuzaga kelmasdan ancha oldin paydo bo’lgan va yozma adabiyotning tashkil topishiga muhim hissa qo’shgan. Ular asl holida bizgacha yetib kelmagan yoki yetib kelganlari ham og’izdan og’izga, avloddan avlodga o’tish jarayonida ijodiy ishlangan. Ushbu masala yuzasidan Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy merosini o’rganish borasida musiqashunos-manbashunos olimlar I.Rajabov, F.Karomatli, O.Matyoqubov,

A.Nazarov, R.Abdullaev, O.Ibrohimov, S.Saidiy, R.Yunusovlarning ajdodlarimiz musiqa merosini o'rganishga doir olib borgan tadqiqotlari diqqatga sazovordir.


Buyuk Qo'shoniylar imperiyasi davrida mavjud bo'lgan: 1. Buxoro ajdodiy san'ati bugungi "Shashmaqom". 2. Musiqiy cholg'uchilar va hofizlar; 3. Raqqaslar; 4. Aktyorlar va masqarabozlar; 5. Yig'ichilar; 6. Qo'riqchi mehtarlar, dan iborat bo'lgan. Abu Rayhon Beruniy keltirgan ma'lumotlarga ko'ra, shu davrda Markaziy Osiyoda mahalliy aholi yil davomida 7 turdagi bayramni keng qishloqdagi bayramlardan «Navro'zo go'yo podshohning tug'ilishi kuni sifatida tantana qilingan. Ayniqsa, sulbi shu bayram hamda shu tisdagi o'zga urf-odatlar, marosimlar o'z navbatida yangi an'analarning shakllanishiga olib kelgan. Bu davrda qit'ra, boyta [boy], arfa [chang] eng qadimgi cholg'ulardan de'f-nog'ora, yirik rez-nog'ora, harbiy-nog'ora, kichik-nog'ora, doyra [daff], tablaq, hind tablagi, qo'a, tabira kabi urma cholg'ularning o'sha davr turlari yetakchilik qilgan. Buxoro musiqa madaniyatining o'ziga xosligi darboriy [saroy] musiqa, ya'ni Buxoro mumtoz san'ati [keyinchalik Shashmaqom turkumi], diniy-marosimiy musiqa an'analari, harbiy musiqa turlari, pahlavonlar musiqasi, shahar hunarmandchilik musiqa yo'nalishi, Rustoy va Dehat, ya'ni fol'klor ijodiyoti namunalariidan tashkil topgan. Markaziy Osiyo va yaqin Sharq mamlakatlari zaminida musiqiy madaniyat va tasviriy san'at Yevropa va ayrim Sharq davlatlariga qaraganda juda erta rivojlangan.

Zardushtiylar davrida saroy marosimiy musiqa ijrochilik amaliyoti yuqori darajaga ko'tarilgan. Musiqa san'ati namunalariining arxeologik topilmalari, umum ijrochilik madaniyati bilan ham bog'liqdir. Chunonchi, sahnaviy holatdagi Riton [budda haykali] minbari miloddan oldingi IV-V asrlarga tegishlidir. N.Hakimov tadqiqotlarida asosiy ta'sir doirasidagi musiqaviy san'at turlarining uslublari quyidagicha tasnif etiladi: 1. Saroy marosimiy uslublari, ya'ni haram va saroy uslublari; 2. Saroy harbiylari uslublari -a] ogohlantiruvchi tartib [salyutlar, uchrashuv marshlari]; b] harbiy orkestr uslublari; 3. Madaniy tarzidagi uslublari - a] vokal madaniyati. b] sozandalik madaniyati. 4. Qo'shon

musiqachilari madaniyati -a] shahar uslubi, b] qishloq uslubi, v] vokal va cholg'uchilik uslubi, g] harbiylar uslubi [shahar ko'rikchilari], d] marosimiy uslublar.

Markaziy Osiyo xalqlari musiqiy an'alarining o'xshashligi ularning yanada takomillashib borishiga asos bo'lgan. Bunda, ayniqsa, o'sha davr saroy musiqa san'ati ta'siri yetakchilik qilgan. Ijrochilik amaliyotida ayniqsa, "Dabiriston" maktabi an'analarga boy bo'lgan. Shahar musiqiy madaniyatida quyidagi yo'nalishlar; Darboriy musiqasi o'sha davrda mohir va mashhur ijrochilarni saroyda jamlab, muayyan kasbiy ijrochilik oliy professional maktabini rivojlantiradi. Diniy-marosimiy musiqa esa, har bir insondan Avestoning 21 kitobi, ya'ni «Gatho»larni maxsus an'analarda qayta bilishni talab qiladi. Harbiy musiqa ustoz sozanda - mehtar rahbarligida ijro qilingan va ustoz-shogird tizimida o'rganilgan. Pahlavoniylarning alohida musiqa maktablari bo'lmagan, ular asosan diniy va darboriy maktablarda ta'lim olganlar. Buxoroda shahar ustozona kasbiy musiqasi ancha taraqqiy etgan bo'lib, undan boshqa viloyatlar va davlatlarning sozanda, xonandalari ham ustoz va shogird tarzida ta'lim olganlar. Markaziy Osiyo xalqlarining eng qadimgi fol'klor namunalari ba'zi tarixiy yodgorliklar, yodnomalar, ilmiy asarlardagina saqlanib qolgan. Ular miflar, jangnoma ko'rinishdagi afsonalar, qahramonlik va pahlavonlik eposlari, qo'shiqlardan va maqollardan tashkil topgan.

Markaziy Osiyo xalqlari tarixda juda ko'p istilochilarni, bosqinchilik harakatlarini o'z boshidan kechirgan. Masalan: Axmoniylar, Sosoniylar, Makidoniyalik Iskandar (334), Chin hoqonlari (IV asr), Arab halifaligi (VII asr. 665), Mo'g'ul iste'lochilari (XII asr. 1219), Totalitariat davri XVIII asr oxirlari-XX asr 90 yillarigacha. Bu davrlarda Buxoro, Xorazm, Surxandaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Farg'ona vodiysining ko'p joylari harobaga aylangan. Hozirgi kunda O'zbekiston hududidagi Xorazm, Afrosiyob, Xolchayon, Termiz, Varaxsha, Bolaliktepa, Dalivarzintepa hududlarida olib borilayotgan arxeologik qazilmalar natijasida topilgan juda ko'p yodgorliklarda adabiyot, san'at va



madaniyat sohasiga tegishli hamda juda ko'p musiqa cholg'ularining qoldiqlari, xonanda va sozandalar aks ettirilgan suratlarining nusxalari topilmoqda.

Faqat Amir Temur zamonida Turkiston mo'g'ul bosqinchilaridan ozod qilindi. Movarounnahr qo'lga olinib, Samarqand uning poytaxti deb e'lon qilindi. Undan tashqari Oltin O'rdaga yurib Shimoliy Kavkazni, Astraxan, Qora dengiz bo'ylari 1399 yil, Eron, Shimoliy Hindiston, Turkiya 1402 yil, keyin Iroq, Suriya va boshqa juda ko'p mamlakatlarni egalladi. Shu davrda Movarounnahrda madaniyat, adabiyot, san'at turlari rivojlandi.

Markaziy Osiyoda VI asrdan XX asrgacha bo'lgan davr ijtimoiy- iqtisodiy jihatdan murakkab tarzda kechgan davr bo'ldi. Bu davr o'zbek xalqining o'troq dehqonchilik bilan ko'chmanchilik hayoti tartiblarini uzoq vaqt yonma-yon yashab kelgan davr hisoblanadi. O'zbek xalqining bu davrdagi boy va rang barang og'zaki ijodi namunalari nazar tashlar ekanmiz, ularda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, qadimiy tasavvurlarni va qarashlarni izlari o'z ifodasini topganligini ko'ramiz. Chunki ijtimoiy taraqqiyotga uzviy bog'liq bo'lgan fol'klor asarlari o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, xalqning hayotidagi tarixiy o'zgarishlar bilan o'zgarib bo'lgan, ularda bir necha davrlar o'z izini qoldirgan.

Fol'klor asarlariga xos bunday o'zgaruvchanlik va ko'p qatlamlilik ularning ko'pgina namunalarni ayrim olingan davrlar bilan bog'lab tekshirishni qiyinlashtiradi. Shuning uchun ham u yoki bu janrlarning muayyan davrdagi holati va taraqqiyoti haqidagi mulohazalar ko'pgina hollarda taxminiy bo'ladi, albatta. Hozircha mavjud tekshirishlarga suyanib turib, shuni aytish mumkinki, eng qadimgi davrlarda ko'pchilik xalqlarda miflar, urug', qabilalar haqidagi rivoyatlar, aytimlar, urf-odat, mavsum va marosim, mehnat qo'shiqlari keng tarqalgan. Ilk davlatlarning shakllanish davrida qahramonlik dostonlari yaratilgan, keyinroq epik, lirik va tarixiy qo'shiqlar, og'zaki drama paydo bo'lgan.

Keyingi vaqtlarda yozib olingan fol'klorning an'anaviy namunalari, asosan VI-XX-asrlarda yaratilgan asarlardir. Fol'klor asarlarning ayrim namunalarni, ayrim janrlarning keyingi taraqqiyoti va holatini muayyan davrlar bilan bog'lab

o'rganish mumkin. Masalan, o'zbek dostonchiligining qadimiy ko'rinishlari, uni avloddan avlodga o'tkazib kelgan bir necha avlod xalq baxshilari va ular ijro etgan dostonlari haqida yozma ma'lumotlar deyarli saqlanib qolmagan. Masalan, Amir Temur o'z safarlarini baxshilarga doston qilib kuylashni topshirgan, To'xtamish saroyida Kamolzoda va Jahon Mirzo kabi jirovlar bo'lgan xalq dostonlariga yaqin shaklda yozilgan «Abo' Muslim» kitobi XII -asrda yaratilgan.

Og'zaki ma'lumotlar bizni XVIII- asrga yetaklaydi. Ergash Jumanbulbul o'g'lining avlodlaridan biri Yodgor baxshi XVII-asrning ikkinchi yarmi va XVIII-asrning boshlarida yashagan. Ergash shoirning yettita ota-bobosi dostonchi o'tganligini hisobga olsak, aytaylik, XVI-asr oxirlarida yashagan dostonchi shoirlar haqidagi ma'lumotlar ham XVII-asr ning boshlarigacha yetib kelgan. O'zbek xalqining juda murakkab etnogenizi va etnogenitik taraqqiyoti, VI-VIII asrlardan XV asrgacha davom etgan migratsiya, ya'ni turkiy qabila va urug'larning oldinma keyin Markaziy Osiyo hududlariga ko'chib kelishi, joylashishi hamda yerli, turkiy bo'lmagan o'troq elatlar bilan aralashib ketish jarayonlari ham O'zbek dostonchiligining bu davrida yangilanish davrini boshlagan, taraqqiy qilgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

XVII-XVIII asrlar davomida dostonchilik taraqqiyotida juda jiddiy ko'tarilishlar bo'ldi. XIX asr uning eng gullagan davri bo'lib xalq orasida keng yoyildi. Xalq dostonlarida markazlashgan, mustaqil, farovon vatan va chet el bosqinchilariga qarshi kurash g'oyasi muhim o'rin tutadi. «Chambil qamali», «Rayhon arab», «Bektosh arab» kabi dostonlarda arab bosqinchilariga qarshi kurash tasvirlangan va bu dostonlar arablar Markaziy Osiyoga hujum qilgan davrda yaratilgan, markazlashgan davlat g'oyasi, vatan, el-yurt osoyishtaligi va mustaqilligi uchun kurash uzoq davom etgan bu davrda turli urug' va elatlarning yagona xalq bo'lib shakllanish davrida g'oyat muhim ijobiy hodisa ediki, bu g'oyalar o'zbek eposining qon-qoniga singib ketgan deyishimiz mumkin.

Xuddi shuningdek, mug'ul bosqinchilarining xurujlarini, ularga qarshi mahalliy aholining kurashlarini aks ettirgan asarlar ham anchagina. «Guldursun»

afsonasi ham shu nomli doston ham o'sha davr voqealari haqida hikoya qiladi. Mug'ul istilochilariga nisbatan xalq munosabati esa ramziy ifodalarda, umuman, chet el bosqinchilariga nisbatan xalq nafrati bayonida, afsonaviy va mifologik salbiy timsollar tasvirida saqlanib qolgan.

Bu davr o'zbek fol'klarida ayrim tarixiy voqealar va shaxslar nomi bilan bog'langan dostonlar, afsona va latifalar ko'p uchraydi. Masalan: «Tulumbiy» (XV asr), «SHayboniyxon», «Oychinor» (XVI asr), «Tulg'anoy» (XIX asr) kabi bir qancha dostonlar borki, ular yaratilgan davrlaridan ancha keyin yozib olingan, demak bir qancha o'zgarishlarga uchragan bo'lishlariga qaramay, ma'lum darajada o'z davri voqealarini aks ettiradi. SHuningdek, mashhur tarixiy siymolar Abu Ali ibn Sino, Amir Temur, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Mashrab, nomlari bilan bog'liq bo'lgan ko'plab afsona va rivoyatlar yaratildi. XIX-asr boshlarida xalq orasida yozma adabiyot namunalari keng tarqala boshladi. Ayrim shaxslar tomonidan o'zbek fol'klori asarlarini yozma adabiyotga yaqin ruhda qayta ishlash yoki yozma namunalari «fol'klorlashtirish» jarayoni kuchaydi. Buning natijasida turli xarakter va mazmundagi qissalar («xalq kitoblar») yuzaga keldi. hatto ayrim baxshilar ijodiy faoliyatida, masalan, Qo'g'on dostonchilari repertuarida yozma adabiyot namunalari ko'rina boshladi.

Bu davrda xalq ijodchilarining muayyan janrlarda professionlashuvi kuchayib dostonchi, ertakchi, qo'shiqchi, askiyaboz, masharabozlar ajralib chiqq boshladi. Bu esa fol'klorning estetik jihatdan mustaqillashuvida, uning mifologiya va ibtidoiy irim-irim hamda marosimlardan ajralib chiqishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Bu davr o'zbek fol'klarida xalq ijodi taraqqiyotining ilgarigi bosqichlarida maydonga kelgan ayrim janrlar, xususan, mavsum-marosim qo'shiqlari ba'zi o'zgarishlari bilan uzoq vaqt saqlanib qoldi. Ertaklar bilan topishmoqlarda esa bir muncha o'zgarishlar ro'y berdi: ularning totemistik qarashlar bilan bog'lanishi ancha susayib, ko'proq allegorik harakter kasb eta boshladi. Bir qator yangi janrlar (lirik va tarixiy qo'shiqlar, latifa va loflar, askiya va og'zaki drama) paydo bo'ldi. SHunday qilib, bu davrda o'zbek xalq og'zaki

Ijodiyotining deyarli hamma janrlarida ko'plab asarlar yaratildi. Bu asarlar xalqimiz madaniy hayotidagi ulkan ko'tarilishlar, muhim tarixiy voqealar bilan mahkam bog'liq. Xalqimiz bosib o'tgan tarixiy yo'l, uning boshidan kechgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar fol'klarining sermahsul bo'lishiga muhim zamin bo'ldi.

O'zbek xalqi etnik turmush tarzida to'y, ma'raka marosimlari, ularning yuzaga kelishi bilan bog'liq an'analar tarixiy asosga egadir. Patriarxatdan Patriarxatgacha o'tgan jarayonda nikoh va oila shakllarining paydo bo'lishi, uy xo'jaligining rivojlanish munosabati bilan monotan oila shakli vujudga kelishi, shakllanishi va ijtimoiy ahamiyat kasb etishida to'y marosimlari, kelin-kuyov tartibining joriy bo'lishida moddiy manfaatdorlik an'analari paydo bo'lgan.

To'y qadimdan uzoq davom etuvchi ham rasmiy va ham ramziy ahamiyatga ega marosim bo'lib, ularning tarkibida bir necha urf-odat va udumlar vujudga kelgan, ularda yangi oilaning paydo bo'lishi bilan bog'liq marosim qo'shiqlari, raqslar, o'yinlar, irim va udumlar ommaviy tadbir tantalarga aylanishi, pirovard natijada ikki yoshning yagona oila qurishi, avlodlar davomiyligini ta'minlashga xizmat qilishi bilan yakunlanishi to'g'risida juda ko'p etnografik ma'lumotlar mavjud.

To'yning etnomadaniyat merosidagi yorqin g'zallik an'ana bo'lib, har bir xalqning to'y marosimlarida uning ichki madaniyati, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarini o'z ifodasini topgandir.

O'zbek xalqi etnomadaniyatida "Xatna", "Sunnat" to'ylarining kelib chiqishi ham uzoq tarixga ega. "Xatna", "Sunnat" to'ylarining asl mohiyati bir bo'lib, ular o'zbek aholi etnik guruhlarida o'ziga xos o'tkazish tartiblariga ega. "Xatna" to'ydan oldin "Maslahat oshi" keyin "Qozon qurar" so'ngra esa "Xatmi qur'on" qilib xayriya oshi berilishi va nihoyat asosiy to'y bazmi, to'y marosimidagi mehmondorchilik, turli taomlar pishirilishi, bolalar tomonidan o'ynaladigan an'anaviy "Quloq cho'zma", "Oq suyak" va kattalar tomonidan o'ynaladigan "Ko'pkari", "Uloq", "Kurash" o'yinlari ularga beriladigan sovrinlarni xatm qilinayotgan bolaning ota-onasi, amaki va tog'olari tomonidan

hadya etilishi, to'y bazmi nihoyasiga yeta boshlagan paytda "Bolaning qo'lini halolash" – xatna qilish marosimi uyushtiriladi. Bu marosimda bolaning eng yaqinlaridan tashqari, shu oilaga yaqin bo'lgan yoru-do'stlar, mehmonlar ishtirok etishadi.

O'zbek etnosiga xos to'y marosimlari shartli ravishda oila qurish, ikki yoshning boshini qovushtirish bilan bog'liq an'ana, g'dakning dunyoga kelishi bilan bog'liq an'ana inson shaxsiy hayoti va maishiy turmush jarayonida qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatlarni nishonlash bilan bog'liq an'ana, inson muayyan balog'at yeshiga yetganligi shukronasi bilan bog'liq an'ana kabi turlarga ajratiladi. Inson vafoti munosabati bilan o'tkaziladigan "Xudoyi", "Ehson", "Ziyorat", "Mushkulkushot", "Mavlud" "Bibi Seshanba", "Padar oshi", "Momo oshi"(Oshibi biyon) marosimlari, ularning ma'naviy -ma'rifiy ahamiyati, ijtimoiy-ma'naviy jihatlari alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ma'raka marosimlari, ularni o'tkazishda mahalla fuqarolar yig'ini va oqsoqollar kengashining faoliyati ham muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy axborot vositalari va madaniyat o'choqlarida xalq marosimlari bilan bog'liq madaniyat tadbirlari, spektakllar, badiiy fil'mlar va ko'rsatuvlar tashkil etilishining ahamiyati kattadir. Zamonaviy To'ylar, yubileylar, ulug' insonlar tug'ilgan qutlug' sanalar ham ijtimoiy hayotimizda muhim o'rin egallaydi. Jumladan "Payg'ambar yoshi" marosimi, uning ma'rifiy-ma'naviy ahamiyatini alohida ta'kidlash mumkin. Umuman to'ylar – mamlakat tinchligi, obodonchiligi va xalqparvarlik siyosatining madaniy-ma'rifiy ramzi sifatida namoyon bo'ladi

Insonning yashash va hayot kechirish tarzi, urf-odatlar, marosimlar, bilan bog'liq ravishda juda ko'p qo'shiqlar yaratilgan. Marosimlar, odatlar turli tuman bo'lganidek, bularga bag'ishlangan qo'shiqlar ham xilma-xildir. Qo'shiqlar xalqning oilaviy bayramlarini. Marosimlarini bezab kelgan. marosim bayramlarida kishilar o'yin-kulgu qilganlar, dam olishgan, yangi mehnat faoliyatiga ilhomlanganlar.

II BOB

2. O'ZBEK MUSIQA FOL'KLORI NAMUNALARINI TO'PLASH VA YOZIB OLIISH TARIXIDAN

2.1. -§. XVI-asr Buxoro Miniatyura maktabida mavrigixonlik badiiyligi

O'zbek musiqa risolalarida ko'tarilgan masalalar hozirgi zamon boshlang'ich musiqa nazariyasiga yaqin turadi. Lekin ularda Sharq xalqlari o'tmish musiqasining amaliy tomonlari bilan bog'liq bo'lgan masalalar ham borki, hozirgi zamon musiqa nazariyasida bular umuman uchramaydi. O'ta asr olimlari ko'proq musiqa nazariyasi muammolarini hal etishda maqom musiqasi bilan muhofaza qilganlar. Bunda ular maqomlardagi parda (ton, yarim va cherak tonlar) misolida tahlil etganlar.

Musiqa asarlarini tashkil etadigan elementlarning eng kichik birligi ayrim musiqa tovushi (ton) bizgacha yetib kelgan nazariy kitoblarda "Nag'ma" iborasi bilan atalgan. O'zining baland-pastligi bilan muayyan nuqta (parda) chegarasida ma'lum vaqtgacha cho'zilib turadigan tovush "nag'ma" deb ataladi.

Musiqa o'ld nazariy risollalardan "nag'ma" musiqaga bog'liq bo'lmagan boshqa xil tovushlardan keskin farq qiladi. Ular ma'lum xususiyatlarga ega bo'ladi. Masalan insonning qo'pol ovozi, sozlanmagan cholg'ularning ovozi nag'ma sanalmaydi.

Musiqada nag'ma ikki xil bo'ladi:

- Nag'mai qavliy – ya'ni inson tovushi:
- Nag'mai fe'liy – musiqa asboblardan chiqadigan sunniy ovoz.

Baland pastligi jihatidan turlicha bo'lgan ikki xil nag'madan "bud" hosil bo'ladi. Bud ikki nag'ma birikmasi va ikki tovish oralig'ida paydo bo'ladigan interval ma'nosini beradi. Shunday qilib Sharq musiqa nazariyasida hozirda unchalik qo'llanilmayotgan turli iboralar mavjuddir.

O'tmish olimlari tomonidan musiqa nazariyasiga bag'ishlab yaratilgan risolalar musiqa san'atining monodiya (rivojlangan bir ovozli musiqa) ga asoslangan edi. Ushbu risolalarda birinchi bo'lim (ilmi talif) – ovozlarning o'zaro munosabatlari, tovushqatorlarni o'rganishga, ikkinchi bo'lim esa, (ilmu

iyqo) ya'ni Musiqiy ritm topg'risidagi ta'limotdan iborat bo'lgan. XV-asrning ikkinchi yarmida yashab o'tmishdoshlari Al Farobiy, Ibn Sino, Abdulqodir Marog'iyning musiqa nazariyasi oid asosiy ilmiy g'oyalarni davom ettirgan va rivojlantirgan tojik shoiri Abduraxmon Jomiy (1414-1492)ning "Musiqqa haqida risola"si anashunday asarlardan hisoblanadi.

Abdurahmon Jomiy ham o'tmishdoshlari singari ovozlarning interval hamda o'zaro munosabatlarni ular torning qismlari nisbatidan xoli holda asosiy jins – tovush qator (tetraxord va pentaxord) larni tashkil qilishi hamda ulardan jam (parda)lar tashkil etish usulini ko'rsatadi.

Og'zaki an'anadagi kasbiy musiqa maxsul- o'nikki maqomlardan kelib chiqib Jomiy asosiy tovush qatorlarni unetti pog'onali gamma hosil qiluvchi o'n etti bo'lakka bo'ladi, keyinchalik tovushqator asosini o'zbek musiqasiga xos bo'lgan miksolidiy ladiga muvofiq etti pog'onali gamma tashkil qilishi aniqlandi. Shunday qilib yuqorida bayon etilgan risollalardagi nazariy fikrlar saroy va shahar doirasida ommolashgan boy, rivojlangan musiqa san'ati ajoyib kuylar ijodkari, ijrochilari bo'lgan o'ta asr bastakorlarining professionallanishi, xalq musiqasida o'adi va rivojlandi, ijod etishning qat'iy qoidalari esa xalq musiqasining qo'shimcha ijodiy qayta ishlashi natijasi bo'ldi.

O'zbek xalqining XVI-XIX-asrlardagi musiqa madaniyati XVI-asrning ikkinchi yarmidagi o'zaro uushlar shaharlarning boshlab vayronaga aylanishi, Markaziy Osiyo xalq ommasining qashshoqlanishiga olib keldi.

XVII va XVIII-asrlarda fiodal tarqoqlik kuchaydi. Katta feyodal davlat alohida xonliklar Buxoro, Xiva hamda Qoqon xonliklariga bo'linib ketdi. Bunday bo'linish o'zbek xalqining musiqa madaniyatida ham aks etdi. O'zbek xonlari saroydagi musiqiy hayot asosan Temuriylarning Hirot va Samarqand saroylardagi an'analarni davom ettiradi, ko'pgina shoir va musiqachilar Buxorodagi Shayboniylar saroyiga bir qismi esa Xorazmga ko'chadi. Buxoro va Xorazmning aralash o'zbek va tojik musiqali poetik an'analari yanada taraqqiy topishi anashular bilan izohlanadi.

XVI-asr Shoir va Musiqachilari: XVI-asr shoirlari va musiqachilari shuningdek musiqa ilmining bilimdonlaridan Najmiddin Kavkabiylar Buxoriy ijodiy davrlarda katta qiziqish uyg'otadi. Uning "Musiqqa haqida risola" si ustoz san'atlarini Samarqand va boshqa shaharlarda davom ettirgan shogirdi (Xo'ji Muhammad, mavlono Rizo Samarqandiy) uchun musiqali poetik qo'llanma bo'lgan edi. XVII-asrning saroy musiqachisi va nazariyotchisi Darveshali Changi edi. Uning risolasi musiqaga oid fikrlarga boyligi bilan ahamiyatlidir. Muallif boshqalardan farqli holda faqatgina musiqa nazariyasi asoslarini bayon qilib qolmay, balki o'z asarining katta qismini turli davrlarda yashab ijod etgan bir qator musiqachilar faoliyati, shuningdek saroyda mavjud bo'lgan musiqa asboblari tavsifiga ham bag'ishlaydi.

Keyinchalik Musiqiy-nazariy risolalar bilan bir qatorda "Bayoz" lar ham vujudga keladi. Ular muayyan kuylar nomi ko'rsatilgan qo'shiqlar mamidan iborat to'plam edi. XVII-asrda Buxoro xonining mehmoni bo'lgan rus savdogari Pazuxin "Tushlik paytlarida musiqachilar kitobga qarab kuy chalib, ovoz bilan ashula aytar edilar" deb hikoya qiladi.

Kelib chikishi qadimiy bo'lgan hamda xalq san'atining har xil elementlari bilan boyigan og'zaki professional musiqa janri-maqomlar ham xalq ijodi asosida uzul-kesil tiniqlashdi va Buxoro Shashmaqomi XVIII-asrda topik shakllandi.

Og'ir hayot qashshoqlikda yashashiga qaramay mehnatkash xalq ijodi davom etdi, musiqa ijodi va ijrochiligi janrlari boy, cholg'u asboblari takomillashdi. Xalq qo'shiqchiligida ham cholg'u ijodining xilma-xil turlari o'zbek xalq teatrlarida qo'llaniladigan bo'ldi. Xalq qiziqchiligi, askiyachilik va qo'g'irchoq o'yin, dorbozlik san'ati keng tarqaldi. San'atkorlar xalq sayillari va ommaviy tantanalarda o'z san'atlarini namoyish qilardilar. Ba'zan qo'shiqlar hajviy tavsif kasb etardi. Feodal zulmi og'irliklari xalqni ularga qarshi kurashga chorlab, bu hodisa ijtimoiy narozilik qo'shiqlarida aqs etardi.

Bastakor san'ati Ayniqsa XVII-asr mashhur musiqa olimi Darvishali Changiyning "Risola Musiqiy" asarida keng yoritilgan. Bu asarda juda katta

ilmiy tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan faqtlar ipizotlar keltiriladi. Ayniqsa Kavkabiylar Buxoriyning musiqa risolalarida kuy va ashula turlari, shakllari masalasiga alohida boblar ajratilgan.

Kavkabiylarning ko'rsatishicha, kuy ashulalar uch xil bo'ladi:

- 1. Alxon jirmiy (ya'ni, topik kuy) musiqa tovushi (Nag'ma), doira usuli (Ritm) va she'r matni qo'shilgan musiqa asari.**
- 2. Alxon Basitiy (ya'ni oddiy kuy) musiqa asaridagi tovushlar yoki she'rni ulchovga solib o'qish.**
- 3. Alxon Xattiy (ya'ni cheqlangan kuy) musiqa asaridagi tovushlar, doira usuli va she'rning musiqasi.**

Musiqa asarining bu turlari haqida manbalarda mufassal ma'lumot yo'q.

Kavkabiylar va Darveshali o'z risolalarida kuylarning ishlanish uslublari va shakllari haqida ham mulohaza yuro'tganlar. Bunda qor (forscha-ish, yaratish) hafif o'lchovi doira usulida ijro etiladigan ashula yo'li, qavl, qor shaklining saql doira usulidagi retmiq variatsiyasidir, amal (arabcha-ijodiy asar) peshrav (yuqoriga harakat etuvchi) kuy shakli, oviza (vosita) bir kuy jumlasini boshqa kuy jumlasiga bog'laydigan vositadir. Savt (tovush ohang) uch bayt bog'langan ashula yo'lidir.

Yuqorida ko'rsatilgan kuy va asulalarning ishlash usullari XVII-asr musiqa olimlari asarlarida ancha keng miqdorda, tahliliy tarzda keltirilgan. O'n ikki maqom va shashmaqom, garchi Markaziy Osiyoda mavjud umumiy an'analar va qoidalar asosida yashab kelgan bo'lsada bizgacha ular juda katta o'zgarishlar bilan etib kelgan.

Musiqaga doir XV-XVII-asrlarda yozilgan risolalarda kuy va ashula shakllarini yaratilishi va ularning ijodqori haqida boy materiallar mavjud. Bu esa XIV-asrdan boshlab maqom yo'llarining rivojlanishda hal etuvchi rol o'ynagan bastakor an'anasining yanada kuchayganidan XV-XVII-asrlarda esa bu an'ana davom etibgina qolmay, bastakorda yangi ijodiy uslublar va vositalar topilib borganidan dalolat beradi.

XIV-XVIII-asrlar davomida shashmaqomning uzul-kesil shakllanib, qaror topishi uchun zamin yaratildi.

Shashmaqom – Naqsh, Peshrav, Amal, Savt, Qavl, Kor kabi kuy va ashula turlarining va ularni yaratish uslublarini yanada rivojlantirish natijasida bastakor an'analarini mahsuli sifatida yuzaga keldi.

Shashmaqom tahminan XVIII-asrning I-yarimlarida uzul-kesil. O'zbek, tojik xalqlarining mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga keldi. Shashmaqomda aytiladigan she'r matnlari orasida XVII-XVIII-asrlarda yashab ijod etgan Bedil, Ro'dakiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Kavkabiyy Buxoriy, Darvish Ali, Abdulqodir marog'iy, Firdavsiy, Manuchexriy, Mashrab, Sayido, Zebuniso, Nozim va boshqalar bo'lganligi kabi ulamo va shoirlarning g'azallaridan foydalanilgan.

Shashmaqom olti turli pardalarga moslab olingan va olti xil ladga asoslanga kuy va ashulalar yig'indisidan iborat. Shashmaqomga: Buzruk, Rost, Navo, Dugoh, Segoh va Iroq kiradi. Olti maqomning har biri juda katta hajmdagi turkum asarlar bo'lib, ularning har-biri tarkibida tahminan 20 tadan 44 tagacha katta va kichik maqom yo'llari bor. Lekin, maqomlarning xalq orasida mashhur bo'lgan (cholg'u, ashula va sunray) yo'llari bilan qo'shib hisoblanganda ular juda katta sonni tashkil etadi. Hozirgi nashr etilgan kitoblarda maqomlarning cholg'u va ashula qismlarin 250 taga yaqin.

Shashmaqom xalq ijodiyoti bilan doim munosabatda bo'lgan va u asosda uziuksiz boyib, rivojlanib kelganligini kuzatish mumkin.

XVI-asrda yashab ijod etgan Amir Ali Akbar Samarqandiy o'z davrining bir qancha san'atkorlariga murabbiylik qilgan. Masalan, Mavlono Darvesh, Mirhoqiy, Mavlono Pirmuhammad Qulol, Ustod Tulag Nayiy, Abdusattor Qonuniy, Ustod Arab Navo Qobopziy, Maxzumzoda Qatibiy, Maxzumzoda Xorazmiylar u kishining etuq shogirdlari bo'lgan. Bundan tashqari cholg'uchilardan dutorchi Mahmud Ishoq o'g'li, Toshkentlik Amr Fatxiy, Samarqandlik Mavlono Boqiy zardo'z, Xojagiy Jafar Qonuniy, Xefiya tarish, Hofiz Turdiy Qonuniy, Mirzaarabiy Qo'ng'iro't, Qobuzchi hofiz Poyanda,

Qubizchi Shayh Ahmad va Mirmastiy, Balxlik ustod Abdulloh naychi, tanburchi Xoja Navro'z, g'ijjakchi Uztod o'zbek qabilalarning xizmatlari katta bo'ldi. Ushbu davrda ud, qonun, tanbur, chang, nay, rubob, qo'buz, g'ijjak, ishraq, kungura, setor, ruhafzo, sunray, bolabon, nog'ora, doira kabi cholg'u sozlari keng qo'lanilgan.

XVI-XIX-asrlar I-yarmida mamlakatimiz hududida qo'g'irchoq o'yin va dorbozlik san'ati shuningdek, xalq og'zaki ijodi keng rivojlandi. Xalq musiqa fol'klarining rivojlanishiga "Sumalak sayli", "Darveshona", "Qizil gul sayli", "Lola sayli", "Behi guli sayli", "Boychechak gulgardon", "Bulbul qo'shig'i" kabi bayramlar va xalq sayllari keng imqoniyat yaratdi.

Xullas, o'zbek musiqasini XVI-XIX-asrlarda barcha janrlar bo'yicha rivojlandi va keyingi davrdagi takomillashuvi uchun keng asosga ega bo'ldi.

2.2. -§.O'zbek musiqa fol'klori namunalarini to'plash va yozib olish tarixidan.

1920 yillardan boshlab xalq og'zaki ijodiyotini o'rganish va uni yozib olish atabida o'rinni egalladi. 1919 yilda Turkiston respublikasida badiiy-etnografik komissiya tuzilgandi va bu komissiya hayatida V.A.Uspenskiy, O'zbek Zafary, B.Melimgayli, N.Mironovlar kirdilar. Komissiya o'ziga maqsad qilib birinchi o'ringda «Shashmaqom»ni va Markaziy Osiyoda yashovchi barcha xalqlar ijodiyotini o'rganishni o'z oldiga qo'ydi. 1923 yilning boshlarida V.A.Uspenskiy boshchiligidagi komissiya Buxoroda bo'lib Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'amilarning maqom majmuasini hammasini yozib oladilar. Lekin bu noyob xalq durdonalarini yozib olishda ancha qiyinchiliklar ham bo'ldi, Chunki maqomlardagi qochirmalar, nolalar va kuylarning yo'nalishi Uspenskiyni qiynab qo'yishdi. Shashmaqom bilan bir qatorda komissiya hayati xalq qo'shiq va kuylarini ham yozib olgan edilar.

1925 yilning bahorida V.A.Uspenskiy boshchiligidagi komissiya hay'ati Qo'qon ovullarida bo'lib u yerdan ham birqancha xalq qo'shiqlarini yozib oladi. Masalan: «Lola bayrami»-dagi Naqshi kalon, Naqshi xurd va boshqalar.

V.A.Uspenskiy boshchiligidagi ekspeditsiya faqatgina xalq qo'shiqlarini yozib olmasdan balki ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug'illanadilar va 1927 yilda «O'zbeklar klassik musiqalari» nomli katta maqola chop etadilar. O'sha yili Uspenskiyning bu maqolasi qatorida Abdurauf Fitratning «O'zbeklar klassik musiqalarining tarixi» nomli ishi ham chop etiladi va bu to'plamda Abdurauf Fitrat mahalliy mutaxassislardan ilmiy ishlarni tayyorlash topg'risidagi o'z fikrlarini bayon etadi. Fitrat to'plamida «Shashmaqom» qismlari topg'risida batafsil fikrlar yuritilib ularning ijrochilari haqida ham yozilgan.

1928 yilda Samarqandda musiqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot instituti ochildi. Bu oliy dargohda milliy musiqa mutaxassislarini tayyorlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan edi. Institutga N.N.Mironov rahbarlik qiladi va u kishi o'sha davrda mashhur bo'lgan hofizlar, xonanda va sozandalardan: Ota Jalol Nosirov va Ota G'iyos Abdug'ani, Domla Halim Ibodov, Abduqodir Ismoil (nay, qo'shnay, surnay ijrochisi), Matyusuf Xarratovlar bilan bir qatorda yosh san'atkorlar M.Ashrafiy, T.Sodiqov, Sh.Ramazonovlarni oldiga taklif etadi.

Institut ilmiy ishlarini natijalari sifatida biz N.N.Mironovning kitobini «O'zbeklar musiqasi» (Samarqand, 1929 yil), «O'zbeklar va boshqa Sharq xalqlarining musiqa madaniyati topg'risida» (Samarqand, 193 yil), «Buxoro, Xiva, Farg'ona qo'shiqlari» (Toshkent, 1931 yil) misol keltirishimiz mumkin.

Samarqand institutining ilmiy ishlari bilan bir qatorda Toshkentda Ye.Ye.Romonovskaya boshchilik ekspeditsiya ham xalq kuy va qo'shiqlarini yozib olgan edi. Bu ekspeditsiyaning eng muhim ilmiy yozuvlaridan biri bu o'zbek Xotin-qizlarining ichkarida aytiladigan kuy va qo'shiqlari edi, Ye.Ye. Romanovskaya bilan H. Muhammedovalar bu ishga asos solgan edilar. 1917-1932 yillardagi ilmiy ishlar fol'klor yozishlarni yakunlab shuni ta'kidlash keraki, xalq noyob durdonalarini yozib ularning abadiy tarixda va xalqimizga taqdim etilib bu buyuk xalq musiqiy asarlari qanchadan-qancha avlodlarga meros sifatida qoladi.

Xalq kuy va qo'shiqlarini yozib olish bilan bir qatorda ularni qayta ishlash xor va orkestr jamoalariga moslash ishlari ham boshlanadi. 1922 yilda

V.A.Uspenskiy va N.N.Mironovlarning birinchi simfonik qayta ishlagan partituralari tinglandi. «Sharq musiqa kechalari» Konsertlarida Mironovning «Turkiston» va Uspenskiyning «Latifa», «Zar kokul» xalq qo'shiqlarini qayta ishlab orkestrga moslaganlari tinglovchilar diqqatini o'ziga jalb etdi.

«Turkiston» syuitasida 4 o'zbekcha va 4 qozoqcha xalq qo'shiqlari garmoniyalashtirilib orkestrga moslashtirilgan. Bu asarda o'zbek xalq qo'shiqlaridan «Sarbozlar», «Azizam», «Layzongul» va «G'ayro-g'ayro dambadam»-lar qayta ishlanib orkestr ijrosida o'zgacha jiloga erishgan.

Puflab chalinadigan orkestr uchun ham o'zbek xalq kuy va qo'shiqlarini qayta ishlash ishlari boshlanib bu hayrli ishlarni chex millatiga mansub V.V.Leysek bajarishga kirishgan. Masalan: Leysek «Rajabia» nomli kuyni orkestrga moslab qayta ishladi va bu asar o'sha yillardagi konsert dasturlaridan mustahkam joy oldi.

Xususan, an'anaviy sozanda bastakor san'ati tarixining buyuk ijodqorlari tarixini har tomonlama chuqur o'rganish, izlanish hamda xalqimizga yetkazishga keng imqoniyatlar ochildi.

An'anaviy sozanda bastakor san'atiga xos asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Tavyor kuyga so'z solish.
2. An'anaviy Musiqiy materiallardan foydalanib asar yozish.
3. Oq'zaki an'anaga murojaat qilib asar yozish.
4. Har xil janrlarni uyg'unlashtirib asar yozish.
5. Qardosh xalqlar ohangini o'zbek uslubiga moslab asar yozish.

"Bastakor" atamasining "Kompozitor", "Kompozitor" atamasining O'zbekcha "Bastakor" degan fikrga qo'shilib bo'lmaydi. Chunki, bu ikki musiqiy ijod yo'nalishi bir-biridan tubdan farq qiladi. Bastakor forscha so'z bo'lib, basta-tuzish, bog'lovchi ma'nosini, kor-ishlash mazmunini bildiradi. Bastakor ijodi monodiya, ya'ni bir ovozli kuy ma'nosini bildiradi. Kompozitor-fransuzcha so'z bo'lib, yaratuvchi degan ma'noni anglatadi. Sharqda esa kompozitorni "Mussandif" deb atashadi. Bu musiqiy ijod ko'p ovozli musiqa

uslublari garmoniya va polifoniyaga bog'langan ijoddir. Bastakor ijodi asosan ikki yo'nalishda:

1. Og'zaki, ya'ni nota yozuvisiz

2. Nota yozuvi yordamida rivojlanib kelmoqda.

Milliy musiqa merosini yozib olish va qayta ishlashga doir ishlar 1919 yil dekabrda Turkiston respublikasi maorif Xalq Komissarligi San'at bo'limi qoshida Badiiy-etnografik komissiya tashkil etildi. Komissiyaning dastlabki vazifalaridan biri bo'lib hisoblangan musiqa fol'klarini yozib olish ishning boshqa barcha turlarini ham o'ziga qaratdi, natijada komissiya bir butun, Musiqali-etnografik komissiya deb atala boshladi. G'.Zafariy, N. Mironov, V. Uspenskiy komissiya a'zolari edi.

O'zbekistonda musiqa fol'klarshunosligiga asos soluvchilar orasida V. A. Uspenskiy alohida ajralib turdi. Uspenskiy ko'p asrlik badiiy madaniyat an'analari vakillari xalq musiqachilari orasida juda tez do'stlar topar edi, shuning o'zi ko'pincha uning ishlarining muvaffaqiyatini belgilab berardi.

Shashmaqomning yozib olinishi muhim ish bo'ldi. Ana shu maqsadda musiqali-etnografiya komissiyasi Uspenskiyni Buxoroga komandirovka qilgan edi. Uspenskiy Buxoroda bir yildan ko'proq (1923—24) turib, taniqli ijrochilari— hofiz Ota Jalol Nosirov va tanburchi Ota G'iyos Abdug'anilar bilan hamkorlikda ish olib bordi.

Markaziy Osiyo respublikalarida bu sohada dastlabki qadamlar V. A. Uspenskiy va N. N.Mironov tomonidan qo'yildi. Ular qayta ishlagan xalq kuylari 1922 yil fevralda Toshkentda ijro etildi. Mironovning syuitasi simfonik orkestr uchun moslashtirilgan sakkizta xalq qo'shig'ini (to'rtta o'zbekcha va to'rtta qozoqcha) o'z ichiga olgan edi..

Uspenskiyning 20-yillarning boshlarida alohida pyessalar tarzida maydonga kelib, keyinchalik «Chetira melodii narodov Sredney Azii» (v obradotke dlya simfonicheskogo orkestra) degan umumiy nom bilan Moskvada nashr etilgan (1934) partiturasini o'zgacha belgilarga ega. Partitura simfonik orkestr uchun qayta ishlangan o'zbekcha, afg'oncha va ikkita qozoqcha qo'shiqdan tashkil

topgan.

Uspenskiy bilan bir qatorda o'zbek xalq kuylarini garmoniyalashda boshqa musiqachilar ham o'z kuchlarini sinab ko'rdilar. 20-yillarning oxiriga kelib O'zbekistonda N.N.Mironov rahbarligidagi Samarqand o'zbek Musiqa va Xoreografiya instituti (Ilmuzxoruz) fol'klorshunoslik ishlarining tashkiliy markaziga aylandi. Institut o'zining Samarqandda ishlagan yillari mobaynida (1928-32) nusxa ko'chiruvchi valiklarda besh yuzdan ortiq xalq ijodi asarlarini yozib oldi hamda bir qancha kitoblarni nashrga tayyorladi. Bular orasida N.Mironovning «Muzika O'zbekov» (1929), «Обзор музыкальных культур Узбеков и других народов Востока» (nota yozuvi M. Ashrafiy, Sh. Ramazonov va T. Sodiqovlarniki, 1931, «Песни Ферганы, Бухари и Хивы» (1931) kitoblari bor ed. Har bir nashr etilgan kitob Mironovning kirish maqolari bilan ochilgan bo'lib, ularning shogirdlari notaga olgan xalq kuylari to'plamidan iborat edi.

2.3.-§. Musiqa san'ati sohasidagi birinchi o'quv va ilmiy dargohlar: Fitrat va musiqa.

Buxoro Amirligi va Xiva xonligining yemirilishi hamda Buxoro Xalq Sovet respublikasi (1920 y.), Xorazm Xalq Sovet Respublikasi (1920 y.), ular negizida O'zbekiston Respublikasi (1924 y.), so'ngra Tojikiston Respublikasi (1929 y.)da tarkib topgan. Aynan shu vaqtda asarlar qa'ridan kelayotgan klassik musiqa an'analarida o'zgacha qarashlar sodir bo'la boshladi. Yangi siyosiy bo'linishlar natijasida maqom san'atining qadimiy o'choqlari bo'lmish Buxoro, Xorazm, Farg'ona va Toshkent O'zbekiston hududiga kirganligi munosabati bilan Buxoro, Xorazm va Farg'ona-Toshkent uslublari umumlashtirilib, mushtarak an'ana sifatida ko'rila boshlandi. Shuning uchun A.Fitratning 1927 yilda chop etilgan kitobi "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" deb nomlanishi ham bejiz emas.

Birinchi musiqali teatrlar 1918 yili Toshkentda tashkil etilgan rus opera teatri Turkistondagi birinchi musiqali teatr edi. Teatr tashkil bo'lganga qadar

Havaskorlar musiqali teatr jamiyati kuchi bilan klassik operalardan parchalar ko'rsatar edi. Bu pastanovkalarniig eng aktiv va talantli ishtirokchilari opera teatrining birinchi sostaviga solist sifatida kirgan edilar. Teatr o'z faoliyatini boshlashidanoq o'zining xor va simfonik orkestriga ega edi (birinchi dqriyori F. Isdiyachis). Teatr sostavi tez orada Rossiyaning yetakchi teatrlari artistlari bilan mustahkamlandi. Spektakllarda Markaziy Osiyoda gastrolda yurgan rus opera nasnalarining ustalari L.V.Sobinov, A.V.Nejdanova, G. S. Pirogov, P. I. Kravovich va boshqalar ishtirok etdilar. 20-yillar teatr pastanovkalari orasida Dargomizskiyning «Suv parisi», Chaykovskiyning «Yevgeniy Onegin» va «Mazepa», Verdining «Traviata» hamda «Rigoletto» va boshqa klassik operalar bo'y edi. Teatr sahmasida G. I. Gizler (Arskiy)ning «Stenka Razin» opsراسi muvaffaqiyat bilan o'ynaldi.

Axarlarni tanlash va o'rgatishda (notasiz) musiqa merosimizning taniqli bilimdonlari, hofizlar Mulla To'ychi Toshmuhamedov va Shorahim Shoumarov ishtirok etdilar. Bosh qahramon- Halima rolini (20-yillarning oxirida) kuyinchalik nom qozongan o'zbek opera solistqasi Halima Nosirova o'ynadi. Bu spektakl tomoshabinlar ommasida katta muvaffaqiyat qozondi.

Respublika musiqali teatr san'ati tarixida o'zbek adabiyotining asoschisi A. Navoiy dostonlarining instsenirovqalari ham muhim rol o'ynadi. Bu sohada «Fahod va Shirin» spektakli «dastlabki qaldirg'och» bo'ldi. Bu spektakl Navoiyning ana shu nomli dostoni asosida yaratilib, Havaskorlar truppasi tomonidan 1922 yilda avval Toshkentda, so'ngra esa boshqa shaharlarda sahna yozini ko'rdi. Spektakl musiqasi maqomlardan parchalar va boshqa og'zaki an'amadagi professional musiqa janrlari namunalaridan tashkil topgan bo'lib, kalg cholg'u ashoblari ansambli jo'rligida artistlar tomonidan ijro etilardi. Navoiyning «Layli va Majnun» dostonining insttumentovkasi Toshkentda gastrolda bo'lgan Ozarbayjon truppasining sezilarli ta'siri ostida amalga oshirilgan. O'zbek artistlari tomonidan qo'yilgan «Layli va Majnun»ning ilk pastanovkalari (1922—23) da ozarbayjoncha musiqa saqlanib qolgan. 30-yillarning boshiga kelibgina «Layli va Majnun» musiqali dramasi o'zbek milliy

repertuarining asari sifatida vujudga kelgan.

30-yillar musiqa ijodchiligida muhim tendentsiyalar ta'kidlanadi. Bu davrga kelib o'zbek musiqali teatrining shakllanishi yangi bosqichga kirdi, yangi janrlar-opera va balet vujudga keidi. O'zbek fol'klori kuylari zaminida simfonik asarlar paydo bo'lib, ularning eng yaxshilari respublika musiqa hayotidan o'rin oldi. O'zbek romansi va kamer cholg'u pyessalar yaratishdagi birinchi tajribalar ana shu davrga to'g'ri keladi.

Abdurauf Fitrat: qomusiy bilim egasi bo'lgan buyuk insonlardan biri. Shuning uchun ham islom va adabiyotimiz tarixi, Markaziy Osiyoda yer-suv munosabatlari, arxitektura, tarix, o'zbek tili va madaniyati ravnaqi yo'lida samarali xizmat qildi. Fitrat klassik adabiyotning bilimdoni, tadqiqotchisi va targ'ibotchisi edi. U ulug' Turk shoiri Tavfiq Fikrat, qadimiy Turk adabiyoti tadqiqotchisi Muhammad Fuod Ko'pirlizoda, Ismoil Hikmat asarlarini mutolaa qildi, ularga ergashib, 250 bosma toboqqa yaqin ilmiy-badiiy meros qoldirdi.

Fitrat musiqamiz tarixini yoritish, «Shashmaqom»ni to'plash va notaga tushirish ishlarini O'zbekistonda birinchilardan bo'lib boshladi. U yaqin Sharq musiqa maktabini tashkil etishda tashabbus ko'rsatdi. Buxoro hukumatining qaroriga bilan 1921 yilning 10 avgustida Fitrat Sharq musiqa maktabini birinchi boshqari (direktori) qilib tayinlandi. Sharq musiqa maktabiga adib o'z hovlisini hadda etgan (Buxoroning Dzerjinskiy ko'chasidagi 8-hovli. Shu kunlarda shahar Kommunal xo'jaligi yotoqxonasi). Mazkur musiqa maktabiga Domla Huda Hudaev Huda bo'lim mudiri, «Shashmaqom» bilimdonlaridan Shohnazar Shoholev, Boboqul Fayzullayev o'qituvchi bo'lib kelganlar. Tarixiy manbalarda yozilishicha, Fitrat Buxoroning barcha nohiyalaridan iste'dodli yoshlarni atrofiga to'plagan. Uspenskiyga o'z yonidan haq to'lab «Shashmaqom»-ni notaga tushirishdek xayrli ishni bajargan. Biz shu kungacha buxoralik mashhur hofiz va Bastakorlar Levicha hofiz, Gavriil Patak, quticha ellarning na ijodini, na hayotini bilamiz. Bu uchala zot "Bozori shab"da har kuni xonish qilishgan. Fitrat afandi ular bilan bevosita aloqada bo'lgan.

1928 yili «Alanga» jurnalining 2-sonida Fitratning «"O'zbek musiqasi

to'g'risida» maqolasi bosildi. Musiqamiz haqida shunday yozadi: «...U bir musiqaki yolg'iz o'zining klassik qismida uch yuzdan ortiq kuy saqlagan; bir musiqaki, bu kun o'n beshga yaqin cholg'uning egasidir; bir musiqaki, loyiq nazariyasi, usuli bor; uni maqtag'anlar to'g'ri so'zlaylar». Fitrat musiqamiz nazariyasi; tarixini chuqur xis etgan, bilgan. O'z davrining musiqachilaridan Ota Jalol bilan juda yaqin bo'lganligidan, Fitrat "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida ta'kidlashicha, "Segoh" maqomidagi "Savt" sho'bachasini Ota Jalol Fitratning tashfiqi bilan 1922 yilda bastalagan.

Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitoba madaniyatimiz, jumladan, musiqa fanida katta hissa qo'shgan. Ushbu kitob 1926 yilda yozilgan va 1927 yilda O'zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan Samarqandda chop etilgan. U 75 sahifadan iborat bo'lib, eski o'zbek yozuvida bosilgan. Risolaning orqa muqovasida mashhur Bastakor Ota G'iyos Abdulg'aniyevning (1854 - 1927) surati bor. Kitobning "muqaddima"fasli «O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi» tomonidan yozilgan. Kitob ikki qismdan iborat bo'lib birinchisida Sharq musiqasi (o'zbek musiqasi), usul va pardalar, har bir maqomning sho'bachalari hamda tanbur, mizrob, dutor, rubob, qo'biz, chang, g'ijjak, cho'shnay, nay, bolabon, surnay, karnay, doira va nog'oraning kelib chiqish tarixi, rivojlanish bosqichlari haqida so'z boradi. Ikkinchi qism esa «Musiqamiz tarixiga bir qarash» yoki «Turk musiqasi» deb nomlangan.

«Bizning eski kuylarimiz orasida, - deb yozadi Fitrat, - «Rok», «qator sarang» degan kuylar bor. «Rok» hindcha «maqom» Demakdir. «Sarang» esa hind cholg'ularidan biridir. Bular musiqamizning ko'p eskidan (yolg'iz arad, eron emas) hatto hind musiqasidan ta'sirlanganligini ko'rsatadir». Fitrat Mazkur risolada islomgacha bo'lgan musiqamiz tarixini ishonchli dalillar asosida baholashga harakat qilgan. U Abdul Qodir Marog'iyning "Zubdat ul-advor", Muhammad ibn Mahmudning «Nafois ul-funun», Muhammad Fuod Ko'pirlizodaning «Milliy tatabbular majmuasi», hofiz Darvesh Ali Changiyning «Tuhfat us-surur», Alisher Navoiyning «Mezon ul-avzon», 1925 yilda Xorazmda yaratilgan «Xorazm musiqa tarixchisi» kabi muhim manbalarni

chuqur o'rgangan. Shuning bilan birga maqomdagi har bir usulning nazariy tomonlarini nozik fahm ta'b ila yoritdi. O'zbek musiqasida qo'llanadigan 24 usulning bir-biridan farqli tomonlarini nazariy jihatdan farqlab berdi. O'n to'rtta cholg'u asbobi xususida mufassal ma'lumot yozib qoldirdi. Masalan, u tanbur haqida shunday yozadi: "Burungi musiqa kitoblarimiz «tanbur so'zani», «Tanbura» shaklida yozadirlarda, aslida yunoncha bir so'z ekanini so'ylaydilar. Bu cholg'uning chindanda yunondan bizga kelib-kelmaganini terandan tekshirish mumkin bo'ladi. Biroq bu cholg'uning Sharqda juda eski bir narsa ekanini ma'lumdir. Mashhur Nosir Sayyorning Xuroson valiyligi zamonida Xurosondan Shom shahriga «Tanbur»lar, «Borbad»-lar istanilgani «Ravzat us-salot»da xabar berilgan. O'rta Osiyo xalqlari orasida «Do'n'bira» atalgan bir cholg'u bor. Tori ikkitadir. O'zi bu kungi bizning dutorimizdan kichkina, pardalari ham undan ozdir. Tanbur, Tanbura, Do'n'bura so'zlarining birgina so'z ekanida shubha yo'qdir. Mana shu ma'lumotga tayanib eskidan borlig'i xabar etilgan. Tanbur - Tanburaning bu kungi do'mbiraning xuddi o'zi yo shunga yaqin bir narsa ekaniga, ya'ni bu kungi bizning tanburimizning ikki torli, ibtidoiy bir shakli bo'lg'oniga hukm etilsa, yanglish bo'lmaydir. Hijriy o'ninchi asrda o'tgan hofiz Darvesh Ali Changiy tomonidan «Tanburning burun zamonlarda ikki torli bo'lgani, so'ngralari Husayn Boyqaro zamonida Mahmud Shayboniy otli bir musiqashunosning unga bir tor orttirg'ani» to'g'risida berilgan xabar esa yuqoridagi fikrimizning kuchini orttirgan bo'ladir...» Fitrat har bir cholg'u asbobi xususida so'zlaganda uning uch tomondan ko'rinishini ham tasvir etadi.

«O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi» kitobining ikkinchi fasli "Musiqamizning keng tarixiga bir qarang" yoxud "Turk musiqasi" deb nomlangan. Arxeologik izlanishlar natijasida topilayotgan ko'pgani musiqa asboblari ham fikrimizning dalilidir. Ikkinchidan, insoniyat yer yuzida paydo bo'lgandan boshlab kuyga tabiiy ehtiyoj sezdi, Tabiat hodisalari, tiriklik olamidagi turli harakatlarni o'z «san'ati»ga singdira bordi. Shuning uchun har bir el tarixi bilan musiqasi tarixi uzviy bog'likdir. Fitrat aytmoqchi, islomgacha

o'zbeklarning ham o'z musiqalari, "o'z boshli nazariyalari" bo'lgan. Bu haqda quyidagi dalilni keltiradi: "Usmoniyali musiqashunoslardan Raif Yaktabekning marog'ali Xo'ja Abdul Qodirdan ko'chirib yozganiga ko'ra Turk (o'zbek)larda uchta «usul doirasi» bor emish. Turklar butun kuylarni, ashulalarni shul uch usul "usul doirasi" uzra ijro qilar emishlar. Bularga «Ko'k»lar demishlar. Fitratning xizmatlaridan yana biri, ushbu risolasida ilgarigi zamonlarda yashab ijod qilgan bastakor, hofizlar nomlarini, ular qoldirgan kitoblarini zikr qiladi. «hatto «Tulifat us-surur»ning aytishiga ko'ra, - deb yozadi Fitrat mashhur Ulug'bek Mirzoning o'zi ham musiqa olimlaridan sanalgan. Temurning bolalari zamonida qonunchi Darvesh Ahmadiy (Samarqand), naychi Sulton Ahmar (samarqandlik), Turkcha, forsha ikki devon bilan musiqada bir risola egasi bo'lg'an. Qoraqo'llik Hisomiy musiqada bir risola yozgan. Xorazmlik Abdul Vafo Tabib ham musiqa olimi bo'lgan. Balxlik Mavlono Sohib, o'z zamonasida atoqli bastakor sanalgan shahrisabzlik Abdulbaraka kabi kishilar yetishib musiqamiz uchun xizmat qildilar. Nag'orachi ham shoir bo'lgan qadimiy, Navoiyning musiqa muallimi Xo'ja Yusuf Burxon, Navoiyning tog'asi Muhammad Ali Haribiylar ham shul zamonning mashhur musiqashunolaridan edilar». Fitrat o'zbek musiqasining Ulug'bek zamonigacha bo'lgan davrini alohida ko'rsatib chiqish bilan birgalikda XIV-XV asrda Samarqandda o'zaro jang-jadaliar, fisqu fasod kuchayib «go'zal san'atlar»ning markazi Hirotga qo'chganligini yozadi: «Husayn Boyqaro ham Alisher Navoiyning himoyalari ostida chig'atoy (o'zbek) adabiyoti, chig'atoy musiqasining «oltin davri» Hirotda ko'rila boshlaydir. Hirotda Husayn Boyqaro to'g'risidagi musiqa ustodlaridan so'zlaganda, Navoiydan gapirishni qadrshunoslar yuzasidan lozim, deb bilamiz». Fitrat Navoiyning musiqa ilmi, o'z atrofiga musiqashunoslarni to'plab g'amxo'rlik qilganliklarini Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" sidan misollar keltirish bilan qayd etadi. Alisher Navoiyning o'zi ham bastakor bo'lgan degan fikrni ilgari suradi: «Musiqaning nazariy-amaliy yoqlaridan yaxshi bilar edi. Bobur Mirzo o'zining mashhur asarida Navoiyning asarlarini sanar ekan «yana ilmi musiqada yaxshi nimalar bog'labtur, yaxshi «pehrav'lari»

«bordun» deb, u zamonning istelohida ashula kuylarga «naqsh», ashulasiz kuylarga «peshrav» der ekanlar. Navoiyning usta bir san'atkor bo'lganini ko'rsatadir». Fitratning o'z iborasi bilan aytganda, haqiqatdan ham, u Alisher Navoiyning «buyuk qadrshunosi» edi. XVI asrda «Musiqqa haqida risola» yozgan, Najmiddin Kavkabiyning fojiali taqdiri haqida keltirilgan ma'lumotlar ham qimmatlidir.

Fitrat o'zbek xalq og'zaki ijodi uchun muhim faktlarni topadi: «Turk musiqasining bizda qolgan eng bugungi so'zlari- Baxshi - o'zan qo'buz sozlaridir. «Baxshi so'zining bugungi ma'nosi el «shoir-cholg'uchi»sidir. El orasida "qo'biz" yo "do'mbira" chalib dostonlar o'qib yurgan maxsus kishilar - shoir-cholg'uchilar bor. Biz mana shularga «baxshi» deymiz. Xolbuki. Hijriy to'qqiz yuzinchi mo'ljalda, (Navoiy zamonida) bu so'z uyg'urcha yozgan kotib ma'nosida talqinlanar edi. Professor Ko'pirizodaning Haloqxon zamonida yozilgan «Zich ilxonidan ko'chirganiga ko'ra, «baxshilar har oyda uch kun parcha talqin ibodat qilad va belgisi yemaklar yerlar». Bu so'zlardan Sharq madaniyati va musiqashunoslarining ibtidoiy madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlarni bilib olishlari mumkin.

Shu o'rinda beixtiyor, o'ylab qolasiz. «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi»ni yozgan, Sharq musiqqa maktabiga boshqonlik qilgan, «Shashmaqom»ni to'plashda faollik ko'rsatgan, o'zi tanbur chalib, maromiga yetkazib g'azal kuylay oladigan Fitrat nahotki biror kuy bastalamagan bo'lsa har holda bu savolga izlanishlar orqaligina javob berish mumkin.

Xullas, Fitrat «O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi»ni yozib musiqashu-nosligimizda o'chmas iz qoldirdi. U xalqimiz va merosimizning o'zi aytmoqchi, benazir qadrshunosi edi. Bu singari bebaho risolalarni tezroq chop etib xalqimizga berishimiz lozim deb bilaman.

III BOB

3.O'ZBEKISTON MAHALLIY USLUIBLARI VA ZAMONAVILIK

3.1. -§.Xalq musiqasining mahalliy uslublarida qo'shiqchilikning metroritmik janrlari.

Xalq qushiqchiligi qo'shiqchilik san'atining eng ko'hna turidir. U xalqning orzu-umidlari, turmushi, axloqi, maksimal va milliy ozodlik uchun kurashini o'zida ifodalaydi. O'zbek xalq qo'shiqchiligining janrlari jihatidan xilma-xilligi va hayotda tutgan o'rnining xilma-xilligi bilan boshqa xalqlar qo'shiqchiligi madaniyatiga ko'p jihatdan o'xshashdir. O'zbek qo'shiqchiligini o'z funksiyasi va hayotda tutgan o'rniga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin. **1. Ma'lum vaqt va sharoitda** ijro etiladigan qo'shiqlar. Bunga oilaviy marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, allalar va har xil tantanalarda ijro etiladigan qo'shiqlar kiradi.

2.Istalgan vaqtda, har qanday sharoitda ijro etiladigan qo'shiqlar. Bularga laparlar, yallalar, ashula qo'shiq, chalgu kuylari, chulama doston qo'shiqlari, aytishuvlar kiradi.

Har biri guruhga kiruvchi qo'shiqlar o'ziga xos tavsifli belgilarga ega. Masalan: Ijro etilishi ma'lum vaqt, yoki sharoitni taqoza etadigan birinchi guruh qo'shiq janrlarining mavzusi muayyan marosim yoki boshqa vaziyat bilan bog'liq, bo'lib, ulardan deyarli chetlashmaydi. Bunga yor-yorlarni misol keltirish mumkin. Ikkinchi guruhga qiruvchi qo'shiqqa esa joy va vaqt tanlamaydi. Ular umuminsoniy qadriyatlar asosidagi qo'shiqlar bo'lib, janr jihatidan ham xilma-xil va murakkabdir.

Katta ashula. Bu yirik hajmli ashula bo'lib, uning kuy ohanglari keng nafasli hofizlar ijrosi uchun muljallangandir.

Katta ashula asosan Fargona-Toshkent ashula yo'liga xos bo'lib, uni odatda ashulachi hofiz, yoki 2-4 hamnafas ashulachi-hofizlar aytadilar. Bu ashula janri keng diapazonali bo'lib, adatda musiqasiz kuylanadi (chalgu sozlari jurfigisiz).

Ashula. Nisbatan keng diapazali, aksariyat xollarda g'azallarga bastalanadi. Uni yakka hofiz hamda ashulachilar ansambili kuylashi mumkin. Ritm jihatidan ham qo'shiqqa nisbatan murakkab bo'ladi.

Qo'shiq. Janr sifatida nisbatan kichik diapozonli kuydan tashkil topgan, ko'proq barmoq vazndagi she'rlar, mustaqil to'rtliklar hamda termalar asosida yoziladi, qo'shiqlar ko'p xollarda naqoratli bo'ladi. Naqorat ko'pincha bir kuplet she'r hajmida bo'lib, qo'shiqchidagi har bir kupletdan so'ng takrorlanadi.

Qo'shiq-kichik avjli bo'lgan va hor bandida ko'tariladigan quyidan iborat vokal janri. Masalan «Oy layli», «Yoshligim», «Bahor keldi» Alla-onalar tomonidan yaratilib, ular tomonidan aziz farzandlariga mehr-muhabbat va orzu-umidlarni ifodalab kuylanadigan musiqa. Shu bilan birga mayin orombaxsh yoqimli ohangga ega bo'lib bola ruhiyatini tinglashini yoshlikdan musiqaga idrok etishni o'rgatadi.

Yalla. Yalla o'zbek qo'shiqchilik san'atida alohida o'rin egallaydi. Odatda yalla qo'shiqning raqs bilan birga ijro etilgan ko'rinishidir. Yalla-cholg'uchilari yakkaxon yoki xonandalar ijrosida aytiladigan vokal janr, raqsbo'ligi ijrosida ko'pchilik ishtirok etishi kabi jihatlari bilan laparga yaqin turadi.

Lapar. Odatda qo'shiqning duet, aytishuv shakllariga yaqin bo'lib, ikki xil ko'rinishda bo'ladi. 1. Yakka ijrochi o'zi qo'shiq kuylab, o'zi raqs harakatlari bajaradi. **ikki.**Erkak va ayyol, ona-bola, ota-bola o'tasida kechayotgan voqealarni hazil tariqasida ifodalaydi.2.Cholg'uchilar jo'rligida yakka ijrochi ham kuylab ham raqsga topshadi. Masalan: «Bug'macha bilagim» «Fabrika», «boshginam og'riydi» qabilar. Shuningdek, lapar birin-ketin savol-javob tarzida ham aytiladi.

Ulan. O'lan ma'lum bir ladga topqliq rioya qilmagan xolda, terna, she'rlar asosida aytiladi,ko'p xollarda erkak va ayyol, yigit va qiz o'tasidagi aytishuvga o'xshaydi.

Yor-yor qo'shig'i kelinni kuyovnikiga uzatib borishi jarayonida ayyollar tomonidan ijro etiladi. Xududiy yor-yorlar ham mavjud. Masalan: Toshkent

yor-yori, Fargona yor-yori, Namangan, Andijon, Buxoro va Jizzax hamda Surxon va Xorazm yor-yorlari mavjuddir.

Terma-rechitativ tarzida qaytarma kuyda ko'proq pand-nasihat odamiylik, mehr-muhabbat kuylanadi. Termalar ikki asosiy ko'rinishda bo'ladi.

1. **Baxshi (shoir, dostonchi) termalari**

2. **Xalq termalari, ommaviy xalq kuylari-tizimi oddiy bo'lgan va ijroda qulay bo'lgan kuylar.** Masalan «Ufor», «Andijon pol'kasi», «O't bo'laman», «Chertmak», «Qashqarcha», «Do'loncha» va boshqalar. Shu bilan birga bolalar uchun ham ko'pincha hazil, kulgili aytishuvli qo'shiqlar bor, ular sevib eshitib kelmoqdalar.

Halfachilik san'ati Xorazm xalqiga xos janr turi bo'lib, bunda ikki ayyol garmon cholg'usi ijrosida mahalliy a oddiy turkumdan iborat badiiylikni ijro etilgan holda kuylashadi va raqsbop hazilomud aytishuvlarni ham bellashuvdek ifoda etishadi. Bir qatorda Xorazmning milliyligi liboslarida aks ettirganidek, badiiylikni guli darajasiga yetgan deyish mumkin.

Bayram va marosim qo'shiqlari: O'zbek xalqining uzun o'tmishi davomida turli bayram va marosimlar hamda urf-odatlar shakllanib, ularda xalqimizning dunyo qarshi, hayotiy qismatlari orzu-istaklari va ma'naviy dunyosi asosida uni aks ettiruvchi kuy va qo'shiqlar yaratilgan.

Ma'lumotlarga qaraganda toprq faslga bo'lingan quyidagi marosimlar o'tkaziladi.

1. **Bahor faslida «Navro'z bayrami»**

2. **Yoz faslida «Choy momo»**

3. **Kuz faslida «Obla baraqa»**

4. **Qish faslida «Yas yusup» «Gap-gashtak»**

Mavsumiy marosim qo'shiqlarining eng namunalari g'zal bahor va undagi asosiy sana-Navro'z bayramiga bog'liq ijod etilgan e'tiborli joyi shundaqi, bu toifa namunalari asosan bolalar fol'klori tarkibida bizgacha yetib kelgan. Ommaviy bayram va marosimlarda musiqa muhim o'rin tutadi. Hatto shu tadbirlarni o'tkazish uchun karnay, sumay, nog'ora, doira, devul qabilardan foydalanishadi.

Mavsumiy marosim qo'shiqlari deganda, xalqimizning yil fasllari va mehnat mavsumlariga bog'liq holda o'tkazilgan marosimlari hamda shu marosimlarning tarkibiy qismi bo'lgan aytilari tushuniladi.


O'zbek xalqining dostonchilik san'ati; O'zbek xalqining dostonchilik san'ati haqida so'z borganda Surxandaryo-Qashqadaryo, Buxoro-Samarqand, Xorazm dostonchilik musiqiy uslublari haqida so'z yuritish joiz bo'ladi.

MARKAZIY OSIYO MAHALLIY USLUBLARI METRORITMIKASI:

"Markaziy Osiyo milliy va mahalliy ufarlari, har bir davlat va undagi xalqlarning eng sevimli, raqsbob, jo'shqin, zavqona zarb'usullari hisoblanadi. San'atshunos olim, professor S.Saidiyning tadqiqotlarida Ular urma cholg'ular vositasida ijro etiladi va tantanali [og'ir, o'tacha, tez] uslubiy tavsifiy ko'rinishga ega. O'lchovlari: 2/4; 4/4; 5/8; 6/8; 7/8; 8/8 takt o'lchovlarda dinamik belgilardan urg'u, [aksent] belgisi va zarblarning past-balandligidan kelib chiqqan sado, tasnillangan holda ajralib turadi, 8/8 o'lchovli raqsona tuzilgan Tojikistonning Pomir hududida eng sevimli hisoblansa, Ko'lobda 5/8; 7/8 o'lchovlarda, Xo'jand va Dushanbeda 2/4; 6/8; 7/8 o'lchovli usullar kengroq qo'llaniladi", deyilgan².

Yana, O'zbekistonning Surxondaryo viloyatida 2/4; 6/8; 7/8; Qashqadaryoda 2/4; 6/8; Buxoro, Samarqandda 2/4; 4/4; 5/8; 7/8; Xorazmda 2/4; 4/4; 5/8; 6/4; 12/8 . Farg'onada 2/4; 6/8; 7/8; Andijon, Namangan va Qo'qonda 2/4; 6/8; Toshkent, Jizzaxda 2/4; 6/8; Qoraqalpohlarda 2/4; 5/8; 6/8; 7/8 va hoqazo. Qirg'izistonda 2/4; 6/8; 5/8; Turkmanistonda 2/4; 5/8; 7/8 va hoqazo. Qozog'istonda esa 2/4; 5/8; 6/8 o'lchovlari kengroq Kuzatiladi.

M:m =120. Zavqona, tantanali.




² S.Saidiy. Markaziy Osiyo madaniyatida urma zarbli cholg'ular. (O'zbek va tojik musiqa an'analari misolida). O'quv qo'llanmasi. Toshkent. "Musiq" nashriyoti. 2005. 2015 yil.

Albatta, barcha usullar mahalliy ko'rinishlarida o'zaro farq qilgan, ularning cholg'u ansambllarida sadolanishi, savt ijro usullarida, qo'shma qaytarmalar yoki topldiruvchi urma cholg'ularda farqlanadi.

Buxoro qo'g'irchoqbozlar ufari.



Qo'qon an'anaviy erkaklar Raqs ufarisi zarb usuliga xosdir.



Nog'ora ufari



Farg'onadagi dorboz ufari Buxoroning ufar uslubidan farqlanadi. Farg'ona dorbozlar ufari o'yinida.



bo'lsa,

Buxoro dorboz ufarisi. M:m = 120



yoki o'yin usuli:



Buxoro "gushtingir" ufari [Pahlavonlar kurashi]dagi usul:



Samarqandda ham xuddi shu usullar ijro etiladi. Toshkent dorboz o'yinida: M:m = 80-100





Andijon dorboz o'yinida:



Xorazm dorboz ufarisi.



Toshkent nog'ora usulining tasnifi, kuy va ohanglarda ham usuliy tuzilgan jihatidan boshqa mintaqalarning zamonaviy kuy va ohanglarida uchratish mumkin. Bular:



Namangan va Farg'ona mahalliy raqs usullarida ["Keldim", F.Karomatli yozuvida] doyraning alohida Erkin usul bajarishi kuzatiladi.

M:m =120



Atoqli san'atkor Yu.Rajabiy: "Avloddan avlodga, ustozdan-shogirdga og'zaki o'tib, bizga yetib kelgan maqomlarning shakllanishi va taraqqiyotiga har bir avlod, sozanda, xonanda va bastakorlar o'z hissalarini qo'shganlar, shu sababli maqomlarning ohang tuzilganligida, ularning nomlanishida va maqom yo'llarida jalb etiluvchi doyra usullarida turli davr yo'nalishlari chuqur iz

qoldirgan»¹, – deb ta’kidlaydi. Yu.Rajabiy Shashmaqom usul tuzilganishlarini chuqur tahlil etgan Buxoro Shashmaqomining barcha qismlarida usul tizimining qator variantlari mavjud bunday holat O’zbekiston va Tojikistonda Shashmaqom «Suvoriy zarb» doyra usullarida kuzatiladi.



dan iborat.

Xorazmda esa quyidagicha:



Markaziy Osiyo milliy va mahalliy usullaridagi urma cholg’ular bir-biridan ma’lum darajada farqlansa-da, ularning usul tasniflarida, ayniqsa ufar ijrosidagi mahalliylik xususiyatlari kuy ohanglar jo’rnovozligida bir xil bo’ladi.

Urma cholg’ular ijrolaridagi ufar usuli milliy va mahalliy uslublarning eng qadimgi va sho’x, «doyra zarb» usuli hisoblanadi. Sho’x bazmlar ufarsiz o’tmaydi. Ufar Buxoro Shashmaqomi, Farg’ona maqom yo’llari Toshkent va Xorazm maqomlaridan ham o’rin olgan, unda Buxoro Shashmaqomining o’zida bir necha uslubli ufarlar tasnifini ko’rish mumkin. Bular-«vazmin», «tez» va «chillaqi» ufar uslubiy usullaridir. (Chillaqi–5-barmoq). S.Saidiy ma’lumotilari.[2.26.]

Surxandaryo-Qashqadaryo dostonlari adabiy-musiqiy asar sifatida talqin qilinadi. Ular nasriy va nazmiy qismlarga bo’linib, o’zaro bir-biriga bog’langandir. Doston ijrochilarini baxshi, shoir, yuzboshi deb ataydilar. Dostonlar asosan do’mbira cholg’u jo’rligida bopg’iq ovozda kuylanadi, bopg’iq ovozni hosil qilish va ishlatish alohida mashqlar natijasida amalga oshiriladi. Ushbu malakani oshirishda ustoz-shogird an’analariga rioya qilinadi natijada shogirdlar ushbu vohalarda mashhur bo’lgan «Alpomish», «Avazxon», «G’o’r o’g’li», «Kuntug’mish» dostonlarini yod oladilar va ko’rikdan o’tadilar. Baxshilar dostonlarning nasriy qismlarini qo’shiq shaklida kuylaydilar.

¹S.Saidiy. 1998 йilda муаллиф томонидан Бухоро АРК дорбозчилари ижроларидан ёзиб олинган.

Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchilik san'atida Shahrisabz va Sherobod maktablari asosiy markaz sanaladi. Abdulla Nurali o'g'li va Islom Nazar o'g'li kabi baxshi shoirlar Shahrisabz dostonchilik maktabining yirik namoyandalari bo'lsa, Shernazar Beknazar o'g'li, Mardonqul Avliyoqul o'g'li, Umar Safar o'g'li, Normurod baxshilar esa Sherobod dostonchilik maktabining mashhur ijrochilari hisoblanadilar.

Dostonlarni ijro etish ham asosan mavsumiy bo'lib, kech kuzda dehqonlar hosillarini yig'ishtirib bo'lganlaridan so'ng boshlanib, erta bahorgacha davom etadi. Dostonchi baxshilar xonadonlarda uyushtirilgan dostonchilik kechalariga taklif qilinadilar va mahalla, qo'ni-qo'shni yig'ilishib, dostonlar tinglashadi bu azaldan odat tusini olgan bo'lib, baxshilarni oilaviy bayramlarga, to'y-tomoshalarga, hosil bayramlariga ham taklif etganlar ya'ni dostonchi baxshi o'z dostonlarini qisqacha aytim yo'li bilan ta'riflab beradi va eshituvchilarning xohishiga ko'ra bir dostonni boshlaydi dostonchi baxshilar doston ijrolaridan tashqari bag'ishlov ijrolariga ham juda usta bo'lib, biron yaxshi kunga, marosimga, mashhur odamlarning ismlariga monand bag'ishlovlarni nasriy va she'riy yo'llarda ham ijro etadilar. Bu ijro baxshilardan o'ta zukkorlikni talab qiladi hozirgi davr dostonchilik ijrochiligi Shoberdi baxshi Boltayev maktabi yetakchilik qilmoqda.

Surxondaryo-Qashqadaryo musiqasida dostonchilik san'atidan tashqari keng ommalashgan mehnat qo'shiqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Qo'sh, O'rim, yorg'inehoq qo'shiqlari dehqonchilik bilan bog'lansa, «xo'sh - xo'sh», «Churey», «Turey-turey» qo'shiqlari chorvachilik bilan bog'liqdir. Charx, O'mnak, kashta, bopzchi qo'shiqlari esa hunarmandlar mehnati qo'shiqlari sanaladi.



Dostonlarni kuylash tartib-qoidalariga ko'ra, avvalo, termalar aytiladi. Terma biror bir doston ijrosidan oldin baxshi tomonidan kuylanadigan aytim bo'lib, bunda baxshi o'z bisotida bor dostonlarni qisqacha ta'riflaydi va shu tariqa tinglovchilarga qarata "Qay dostondin aytayin", deb murojaat etadi.[2.8.].

Surxandaryo-Qashqadaryo musiqa uslubida mehnat jarayoni bilan bog'liq qo'shiqlar salmoqli o'rin tutadi. Bu turdagi qo'shiqlar aholining qadimgi davrlaridan buyon shugullanib kelayotgan chorvachilik va dehqonchilik kasblari bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Chorvachilikqa doir qo'shiqlari (aytmieri) asosan soginch qo'shiqlaridan iborat bo'lib ular qora mol, biya, tuya, eski kuy kabi uy hayvonlarini sog'inish paytida kuylangan. Bunda «Xush-xush» «Turey-turey», «Churey-churey» kabi qo'shiqlari aytilgan.

Dehqonchilikqa doir qo'shiqlardan «Qo'sh xaydash», «Xo`p Hayda», «Mayda-mayda» «Yozi» qabilardir.


*Xo`p xayda xayda xayda
Qalqon qulog'im xayda
Temir tuyogim xayda
Somonni qilgin mayda*



QAY DOSTONDIN AYTAYIN

Baxshi termasi


Shoshmasdan




Ter-ma-ni qo'-yay-lik, ay-tay-lik dos-ton, ter-ma-ni



qo'-yay-lik, ay-tay-lik dos-ton, Qu-loq sol-sang



yi-a'll-gan qa-dir-don. Cham-bil bel-di kan-ta da-g'i a-



dz-ti, O-lam-ga mash-hur-dir Go'ro'g'li sul-ton,



o-lam-ga mash-hur-dir Go'r- o'g'- li sul-ton.



Go'r o'g'- li-dan ay-tay-lik-mi bir su-xan?

Xalq musiqasi ijodi ham fol'klorning boshqa turlari singari badiiy va g'oyaviy mazmunan sodda, ixcham va mukammal formulalarga juda ko'p tarixiy faqtlarga ega bo'lgan san'at turidir. Dono xalqimiz yaratgan boy musiqasi ulkan ma'naviy boyligimiz bo'lib, u yosh avlodni axloqiy va g'oyaviy estetik tarbiyasi uchun ham bebaho manba bo'lib hisoblanadi. Demak xalq musiqasi san'atining kishi qalbiga eng yaqin turidir. SHu bilan birga ko'pgina qo'shiqlar xalqimiz qon qoniga singib ijro etilib kelmoqda.

bi Lola sayli; O'zbek xalqining uzoq o'tmishi davomida turli marosim va an'anaviy tantanalar shakllangan bo'lib, ularning ko'hna hayotdan taaluqli. Shunday marosim-bayramlardan biri bahor mavsumida o'tkazilgan. «Lola sayli» diti.

Lola sayli Navruz bayramining birinchi kunida o'tkazilgan: Bu bayramni an'anaviy o'tish shunday bo'lgan: mahaliy aholi keng yig'ilishib, yoshlarni lola terimiga Kuzatganlar. Terimchilar qir-adirlarga sayr qilishib kuchoq-kuchoq lola terishgan qo'shiqlar kuylashgan. Lola aytimlari o'zining yorqin kuy-ohanglari va shux-uynoqi doira usullari bilan shodlik tuyg'ularini ifoda etadi.

*Lolachaga ishim bor, hey lola
Kissamda kishmishim bor, hey lola
Kishmish bo'lsa mayliga haylola
Qiz bolada ishim bor hey lola*

*Lola lola lolajon
O'sar joying dalada
Lola, lola lolajon
Chidadingmi jalaga*

Demak, misollardan ma'lum bo'ladiki, har qanday yondash qo'shiqlar og'izdan-o'gizga o'tib, o'zbek xalqining sevimli qo'shiqlari bo'lib kelmoqda.

O'zbek musiqasida bastakor uslubi; o'zbek musiqamizning rivojiga ulkan hissa qo'shgan yirik musiqashunoslarimiz bor. O'ziga xos uslubiy-yaratgan kuy qo'shiqchilari ular g'ijjaq, chang, tanbur dutor kabi asboblarda ijro etishganlar. Shunday bastakorlarimizdan M.Burxonov, YU.Rajabiy Hoji Adulaziz Rasulov, Q.Jabborov T.Jalilov qabilardir. Ular o'z ish faoliyatida tinmasdan qo'shiqlar kuylar yaratgan. «Diyorimsan», «Oyxon», «Boboxon qiz» kabi bir necha asarlarni yaratdi.

Buxoro-Samarqand musiqa uslubiga doir dostonchilik maktablari asosan viloyat tumanlarida qaror topgan bolib, ular hozirgi Jizzax Viloyatidagi «Bulung'ur dostonchilik maktabi», «Narpay dostonchilik maktabi» kabi ataladi. Shulardan Bulung'ur va Qo'g'on dostonchilik maktablari mashhurroqdir. Bulung'ur dostonchilik maktabida «Alpomish», «Yodgon», «Yusuf bilan

Ahmad», «Rustamxon», «G'o'r O'g'lini tug'ilishi» kabi qahramonlik dostonlari yetakchi o'rin tutadi. Jo'rovoz soz sifatida dombra sozi qo'shiladi. Amin baxshi, Chinni Shoir, Tavbuzar shoir, Qurbonbek shoir, Yo'ldoshbulbul, Jumanbulbul, Yo'ldeshshoir, Qo'ldash Suyar kabi baxshilar bu maktabning o'tmishidagi (XIX asr) yirik namoyandalaridir. Fozil Yo'ldosh o'g'li (1872-1955) bu maktabning so'ngi yirik vakillaridan biri edi. Qo'g'on dostonchilik maktabida «Alpomish» dostoni ijro etilgan bo'lsa-da, biroq unda ishqiy-romantiq dostonlarga jumladan, «Gumor pari», «Kunduz» bilan «Yulduz», «Oysuluv», «Kuntug'mish» singari dostonlarga e'tibor beriladi. Qo'g'on dostonchilik maktabining o'tmishdagi yirik vakillari qatori Yodgor, Laras, Mulla-Tosh, Mulla Xolmurod, Jumanbulbul kabi baxshilarni aytish kerak. Ergash Jumanbulbul o'g'li (1868-1937) va Po'ikan shoirlar (1874-1941) bu maktabning so'ngi yirik namoyandalari edi.

Ergash Jumanbulbulning quyidagi she'rida esa Nurota maktabi uslubiga oid dostonlar nomlari sanab o'tiladi:

Yigirma xil ohang bilan so'z aytib,
Yigirma xil noma do'mbira chertib
Xoh katta, xoh kichik eshitsa,
Har qanday odamni balkitib, eritib

Sherobod maktabining mashhur baxshisi Umar shoir Safar o'g'li ijodiga mansub she'rida esa Surxondaryo-Qashqadaryo dostonchiligidagi nomalar soni keltiriladi.

Ey do'mbiram kajakdor,
O'ttiz ikki nomang bor,
Hammasi ham maftunkor,
Birin chalsam biri bor...

deb, 32 noma borligi ta'riflanadi. Keyinchalik 60 ga yetkazilgan. Ushbu ma'lumotlardan ko'rinadiki, doston qo'shiqlari qadimdan nomalar deb yuritilgan.

Diyorimizning qadimiy madaniyat maskanlari bo'lmish bu vohalarda xalq qo'shiqlari, ashulalari, cholg'u kuylari, Qarsak o'yin — aytimlari hamda kasbiy musiqaga doir dostonchilik, sozanda san'ati va maqom namunalari keng o'rin tutadi. Mazkur uslubning o'ziga xos jihatlaridan biri — ikki tillik, ya'ni o'zbek


va tojik tillari an'anasining namoyon bo'lishidir. Bu holat ushbu sarhadda yashab, faoliyat ko'rsatgan ko'pgina shoirlar, jumladan, Mujrim Obid, Abdullo Mulham Buxoriy, Fitrati Zardo'zi Samarqandiy, Muznib Shavkatiy Kattako'g'oniylar ijodida, shuningdek, ikki tilda ijro etib kelinayotgan o'zbek va tojik xalqlarining yuksak mumtoz musiqa namunasi bo'lgan Shashmaqom (Buxoro maqomlari) turkumida o'z aksini topgan.

Ikki tillilik an'anasi xalq musiqasida o'zgacha shakllarda aks etadi. Chunonchi, ayrim xalq qo'shiqlarini ayni vaqtning o'zida ham o'zbek, ham tojik tillarida kuylash mumkin. Odatda, qo'shiqning bandlari o'zbek tilida, naqarotlari esa tojik tilida, ba'zan aksincha ham bo'ladi. Bundan tashqari, ayrim xalq qo'shiqlarini o'zbek yoki tojik tillarida kuylash imkoni mavjuddir. Shuningdek, faqat bir tilda- yo o'zbek, yo tojik tilida kuylash uchun ijod etilgan xalq qo'shiqlari ham uchraydi.



Xalq kundalik turmush tarzida, bayram-u to'y-tomoshalarida musiqa muhim o'rin tutib keladi. Jumladan, bahor mavsumi bilan bog'liq "Guli surx" xalq marosimi tantanalarida qo'shiqlar aytilgan, "Qayroq o'yin", "Zang o'yin" kabi buxorocha raqslarga tushilgan.

SOZANDA SAN'ATI: Buxoro- Samarqand musiqa uslubida sozandachilik san'ati ham shakllangan bo'lib, u ayyollar ijodi bilan bog'liqdir. Sozanda- bu yakkaxon aytimchi bo'lib, u qo'lida qayroq yoki zang (qo'ng'iroqcha) ushlab



raqsga topshadi hamda qo'shiq bandlarini kuylaydi. Ikki-uch ayyoldan iborat doirachilar dastasi esa naqarotlar bilan jo'r bo'lib turadi.



BO'YI-BO'YI

Xalq qo'shig'i

O'rtacha

Bo'-yi, bo'-yi, bo'-yi, ab-ro'-yash du-
 me mo-re. Ni-go-ri no-za-ni-ni ah-
 ni dar-dam (ey), Ab-ro'-yash du-
 ni mo-re. Bo'-yi, bo'-yi, bo'-yi,
 ab-ro'-yash du-ni mo-re. Sa-ram-ku gar
 bur-ri bo-xan-ja-ri tez (ey),

Demak, sozanda dastasi (ansambli)da jami uch-toprt ayyol — yakkaxon sozanda, doirachi, naqarotchi qatnashadi. An'anaga ko'ra, sozanda dastalari o'z aytimini faqat xotin-qizlar davrasida o'tkaziladigan yig'in, To'y va turli bayramlarda namoyish etadi. Ularning repertuari o'zbek va tojik tilida bo'lgan ko'p qismli o'yin-aytim turkumlaridan iborat bo'ladi. Shuningdek, aytim qo'shiqlarni ham O'zbek, ham tojik tillarida kuylash an'anasi mavjud. Odatda, sozanda o'z aytimini vazmin, lekin tantanavorlik ruhi bilan sug'orilgan "To'y muborak" qo'shig'i bilan boshlaydi. So'ngra asta jadallashib boruvchi raqs - o'yin ayimlari birin-ketin, topxtovsiz ijro etila boshlanadi.

Doirachilar ham naqarotlar, ham usullar bilan jo'r bo'lib turishadi, ba'zan esa turkum davomida ikki xil tuzilishga ega ritmlarni o'zaro mutanosib ijro etadilar.

a). Buxoroyi Sharif udumlaridan "Oshi softy", "Padar oshi", "Nahor oshi", "Payg'ambar oshi", "Oshi jumagi", "Oshi bibi seshanbe" shoxona nomalanishini olgan bir taomining to'yona va diniy qo'llanishi.


San'atshunos olim S.Saidiyning ma'lumotlarida «Buxoroyi Sharifning 2300 ming yillik tarixiga ega va qadimda askarlarlarning bahodirona va bayramona taomi, (oshi) bilan mashhur bo'lib kelgan va asrlar davomida musulmon dunyosi kirib kelganidan boshlab tarkiban quvvatlanish jihatdan rivojlanib kelgan "Oshi Softy" beqiyos vitaminlarga boyligi va to'yinaligi bilan,



butun jahonni hayratga solmoqda. Tarixan qiyoslaganda Aleksandr Makedonskiy Buxoroni ishg'ol qilingandan so'ng, "Mening askarlarimni to'ydiradigan va ularni ko'p vaqtda och qolmaslikka olib keladigan, zararsiz va foydali taom masalasini qo'yganda, Buxoro aholisi katta qozonda birinchni (Guruch) yuvib, g'shtlar esa boshqa qozonlarda qaynatib olingach, unga turli oshbob massaliqlar qo'shilgan yog'li-parxezsimon oshni damlab tarqatishadi. Bu taom Aleksadrga ma'qul bo'lganidan so'ng, askarlariga har kuni bir marotaba osh pishirilishini ma'qul ko'radi. Ushbu ta'minot ikki yil davom etgankim, hatto jangda yaralangan yo ko'p qon yo'qotgan askarlar sog'ayib ketgan va yana jangga kirishgan"ligini bayon etadi. Yana ushbu an'ana bugungi kungacha massa yo katta jamoa, to'yona va bayramlarda ko'p miqdorli mehmonlarga tortiq etiladi. Osh qadimda "Askarona", "Toji-ta'to'l" yo "Sajdai ruhon" va qadimgi Buxoroning janubiy qismida Pomirning (Badaxshon)ida, aniqrog'i "Isro'shan" va "Xorug"da yer yuzining (koinotimizning) hamma payg'ambarlarini nazarga olgan holda **"Dandoni Payg'ambaron"** deb nomlanishi jahonda mashhur va ma'qul bo'lganligi bilan ham ahamiyatlidir. Ammo ushbu oshning massalig'i o'zgacha bo'lib, yaxudiylarning xalta oshiga yaqin. Ushbu Musulmon dunyosiga kelib "Buxoroyi Sharif"da jahonning eng soflangan, gigiyenik jihatdan har bir masallixida sinchkovlik bilan extiyodkorona ahamiyat berilgan holda tayyorlanadigan va keng tarqalgan "bir taom" bu **"OSHI SOFIY", "PADAR OSHI", "NAHOR OSHI", "PAYG'AMBAR OSHI", "OSHI JUMAGI", "OSHI BIBI SESHANBE"** shoxona nomlanishini olgan bir taomning ham qadimda va ham bugungi kunda 3 xil dinlardan evolyutsion asnoda o'tib, rivojlanib kelgan to'yona va diniy qo'llanishidir. Ushbuning tayyorlanish qoidalari murakkab va o'zga xos siruasrorlari va masallixlaridan iboratdir. Ushbu taomni parhez (Diyeta) olgan yoki og'ir jarohatlangan bemorlar iste'mol qilsalar ham shifo topishlari va turli vitaminlarni a'zolariga qabul bo'lganligini sezadilar.

Buxoroda To'ydan oldin "Oshi sofi", "Padar oshi", "Payg'ambar oshi", diniy a'zalarda esa "Oshi Jumagi", "Oshi bibi seshanbe" va "Sunnati" deb tilga

olinadi. Oshi sofiga diqqatimizni jalb etsak, Sohibqiron davrida ham Buxoro oshpazlari tomonidan Sohibqironga va askarlariga katta mis qozonlarda pishirib berilgan va Amir Temurga ma'qul bo'lganligiga sabab, ham To'yimli va uzoq vaqtga ochlikdan saqlanishi, tom ma'noda Sohibqiron askarlarining janglarda ko'p qon yo'qotganlar, asab faoliyati yo ko'z asabi bilan chalinganlarga ham as qotganligidadir. Bundan tashqari va "Qobuli" deb nomlangan osh taomi ham To'yona va bayramona hisoblanib, ushbu Markaziy Osiyo va qo'shni davlatlarida, jumladan; O'zbekiston va Tojikiston, Turkmaniston va Sharqdan Afg'oniston, Ozarbaydjon, Eron , Arabiston va boshqa davlatlarni kamrab olganligi, musulmon dunyosida ma'naviy bayramlarda ta'dil etishi va odatiy tusiga aylanganligi bilan ammo u "Qobuli" deb nomlanishida haruma taraflama farqlanib boradi. Buxoroda tayyorlangan "Oshi sofi", boshqa xududlardan ham ayuan, o'zga xosligi bilan ajarialib turadi va o'xshamasdir. Buxoro tarixida aholi va mehmonlarga tongda osh taomi bilan kutib olishadi va katta davrada maqomchilar ansambli tarovati va qur'on sur'alari o'qiladi. Nahorgi osh goh paytlari namoshom ham o'tkaziladi va nog'orachilar ostida tantanavorlik bilan davra ochiladi va mehmonlarni kutib olishadi. Nog'orachilar ansamblida esa bir necha 2-6 gacha karnaychilar 1-2 tagacha oo'shnaychi va Surnaychilar, do'l-baraban, baraban, qo'sh-nog'orachi va doyrachilardan iboratdir. Ikkinchi turida esa Diniy urf -odatida a'zada "Oshi sofi" tarqatiladi va ushbuga mullo yo Shayx, diniy-qozilar yo Hoji-kalonlarning duolari o'qiladi va "Jumagi" deb nomlanadi.



Oshi sofi Buxoro

Naimiy so'zi
Shodmon Sulaymon tarjimai
To'xtasin Rajabov musiqasi

♩=105

A-na osh, a-na osh, a-na osh, so-fi osh.

Naqarot

A-na osh, a-na osh, so-fi osh, so-fi osh. O-shi so - fi - yi Bu-xo - ro mis - li bir

gav - har e - rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun ming tuh - fa - dan af - zal e - rur. Mis qo-zon

uz - ra ni-goh sol xud-di op - poq mar va-rid, Tan-ga quv - vat, dil - ga mal - ham, po - ki - za

Naqarot

dil - har e - rur. O-shi so - fi - yi Bu-xo - ro mis-li bir gav - har e - rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun

ming tuh-fa-dan af - zal e - rur. Osh - paz us - to Sa-lim - ga yo - g'i - lur ol-qish, du-o, Meh - mon

qad-ri-ra bil - gay, ko'ng-li pok, zar - gar e - rur. Go'sh-tu yog' bir-la gu-ruch - ni tan-la-gay a - lo-si-dan,

Naqarot

Mur - chu gam - do-ri, na - yiz sol-gay yuna za - lar e - rur. O-shi so - fi - yi Bu-xo - ro mis-li bir

gav - har e - rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun ming tuh-fa-dan af - zal e - rur. He-tu-dol-chun-lar qo' shib,

Naqarot

qand-choy tu-tar Mir-zo Hu-sen, Jon-ga ro - hat, dard-ga dar-mon, mis-li hal - voy - tar e - rur. O-shi so -

fi - yi Bu-xo - ro mis-li bir gav - har e - rur, Ham a-ziz meh-mon u-chun ming tuh-fa-dan af - zal e - rur.

A-na osh, a - na osh, a - na osh, so - fi osh A-na osh, a - na osh, so - fi osh, so - fi osh.

Xorazm dostonchilik maktabi o'z an'analariga ega bo'lib, boshqa mahalliy dostonchilik maktablardan farqli jihatlarga ega. Bu farqlar asosan quyidagilardan iborat.

A) Xorazm dostonlari «Bog'liq ovozda» emas, balki «Ochiq ovoz» uslubida kuylash xususiyatlari bilan ohanglanadi.

B) Ko'pincha mahalliy dostonchilik maktablarida do'mbra sozi jo'rnavoz siyratida qo'llanilsa, Xorazm dostonchiligida dutor, tor so'zlaridan foydalaniladi. Shuningdek, doston aytishda ijrochilik ansambli qatnashadi. Bunda ustoz baxshi dutor, tor yoki rubobda, qolganlar esa g'ijjak, bo'lamon va ba'zan doira sozlarida jo'r bo'lib turishadi.

V) Xorazm dostonlari repertuarini «Oshiq G'arib va Shohsanam», «G'o'r o'g'li», «Kuntug'mish», «Bozirgon», «Oshiq oydin» kabi dostonlar tashkil etadi. Biroq, Xorazm dostonchiligida qahramonlik dostoniga mansub «Alpomish» namunasi uchramaydi. Xorazm dostonchiligining yirik vakillari Ahmad baxshi, Bola baxshi, Ro'zimbek Murodov, Qalandar baxshilar nomini aytish joizdir. O'tmishda doston aytuvchilarni g'yanda, ular ijro qiladigan yo'llarini noma deb yuritilgan.

Xorazm nomalari yirik hajm, kuy yo'nalishi, parda, lad va avjlari o'ziga xos yorqin uslubi bilan ajralib turadi. Maxsus til irodasi, musiqiy nuqtai nazardan Xorazmda ikkita yirik dostonchilik uslubi mavjud. Ular baxshilarning iboralari bilan Shirvoniy va Eroniy yoki Janubiy yoki Shimoliy Xorazm uslublari deb yuritiladi. Shirvoniy uslub o'z ichiga Hazarasp, Bog'ot, Yangiariq, Qo'shiko'pir, Urganch, Xonqa, Shovot, Toshhovuz tumanlarining Ilonli, Ko'hna Urganch, Qoraqalpog'istonning "To'rtko'l", "Ellikqal'a" umanlarini qamrab oladi. Uning markazini shartli ravishda Xiva shahri deb belgilash mumkin. Mazkur uslub nomalari 72 ta bo'lib, ular doston she'rlarining vazni, bopg'inlariga ijrochi baxshini ovoz imkoniyatlariga qarab o'qiladi.

Xorazm musiqa uslubining o'ziga xosligi uning an'anaviy cholg'ularida ham namoyon bo'ladi. Masalan, bulamon damli- puflama cholg'usi bu uslubda keng qo'llaniladi. U boshqa mahalliy uslublarni uchun xos emas. Bulamon- tut

daraxtidan ishlangan kichik surnay shaklidagi cholg'u bo'lib, unda yakka holda va ansambl tarkibida ijro etish mumkin. Xorazmda Kavkazning mashhur tor cholg'usi ham keng tarqalgan. XIX asr oxiridan boshlab esa, "garmon" cholg'usi ham qo'llana boshlangan. Uni "soz" deb atashadi. Bulardan tashqari, Xorazm musiqa amaliyotida deyarli barcha o'zbek xalq cholg'ulari (dutor, tanbur, g'ijjak, nay, qo'shnay va boshqalar) qo'llangani holda do'mbira sozi kam uchraydi.

Xorazm musiqa uslubida raqs va umuman, o'yin harakatlari bilan bog'liq cholg'u kuylari salmoqli o'rin tutadi. Raqs-o'yin kuylarini bir necha turlarga bo'lish mumkin.

1. Xalq orasida ommalashgan raqsalar. Ularning asoslarini "Lazgi", "G'arji Qorabog'", "Ufori" kabi kuylar tashkil etadi.

2. Dorbozlarning o'yin-kuylari. Ularni "Yelpazalandi", "Ufori Yelpazalandi" kabi kuylar tashkil etadi.

Qiziqchi va masharabozlarning o'yin-kuylari. Bu kuylarni "Chog'olloq", "Az-az", "Az-azning tezi", "Xorazmcha", "Yuz bir", "Ot eroni", "Surnay yo'li" kabi namunalar tashkil etadi.

Xorazm raqs va o'yin kuylari ommaviy bayram, sayillarda ijro etiladi. o'tmishda esa Xiva xonligida o'tkazilgan xalq sayli kunlari "Xatarli o'yin" nomli turkum mazmunida ham namoyish etilgan. "Xatarli o'yin"da parrandalar va uy hayvonlarining xatti-harakatlari (masalan, "Ot o'yin", "Tustovuq o'yin", "Kabtar" va b.) hamda "Olina terish", "Kampir", "Ko'knori" kabi maishiy saxnalar musiqa jo'rligida komik harakatlar vositasida aks ettirilgan.

Xorazm musiqa uslubida ham shu kabi cholg'ular bilan birga yana bulamon, garmon va Kavkaz tori keng qo'llaniladi. Jumladan, xalqalarning turli aytimlariga garmon cholg'usi jo'mavoz sifatida qo'llaniladi. Tor cholg'usi esa maqom, suvora va doston ijrochiligida jo'mavoz cholg'ular orasida yetakchi o'rinda turadi. Shu bilan birga bulamon, garmon va tor sozlari turli ansambllar tarkibida ham qo'llaniladi. Go'r o'g'li" dostonidan "Ovozning seni" aytimini tinglang.



XORAZM LAZGISI

Xalq kuyi

QURVBOQ

Eroniy uslub Gurlan tumanining bir qismini Qoraqolpog'istonning Amudaryo, Xo'jayli Toshhovuz viloyatining shimoliy tumanlarini o'z ichiga kiritib oladi. Uning markazini shartli ravishda Mang'it shahri deb belgilash mumkin. Ustoz ustalarning fikricha musiqiy mohiyatga ko'ra shirvoniy uslub 72, eroniy uslub 32, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarining Sherobod maktabi 64 nomadan iborat. Xulosa qilib aytganda doston ijrochiligi o'zbek musiqa san'atining ajralmas bo'lagidir.

Milliy musiqamizda dostonlar keng tarqalgan. Ular kishini maftun etuvchi qiziqarli mazmun va ajoyib she'riy-musiqiy qo'shiq aytimlaridan iboratdir, odatda dostonlar ishq muhabbat yo'lidagi vafodorlik, Vatanga sadoqat, qahramonlik, do'stlik tuyg'ulari, tabiat g'zalligiga maftunkorlik kabi muhim ijtimoiy mavzular kuylanadi.

OVOZING SENI

Shoshmasdan

Xalq o'zi yet-qiz-gan
a-ziz meh-roo-nim, bo-la-mao'x-
shay-di o-vo-zing se-ni. Tez xa-ba-rin
ber-gil chiq-mas-dan jo-nim,
o'g'-li-mao'x-shay-di o-vo-zing se-ni,
bo-la-ma o'x-shay-di no-li-shing se-

Dostonlikning maftunkorligi shundan iboratki, unda yirik nasriy hikoya va she'riy musiqa bir mushtarak asar bo'lib, uni san'atkor baxshi ijro etadi.

Baxshi asarning nasriy qismlarini mohirona hikoya qiladi, she'riy bo'lalarni esa qo'shiq va ba'zan musiqiy sozlama (rechtativ) tarzida kuylaydi. Qo'shiqlar asosan o'zining ijrosidagi yakka cholg'u ijrosida kaylanadi. Dostonxonlik o'ziga xos zavqli va qiziqarli adabiy-musiqiy kecha bo'lib, tinglovchilar diqqat e'tiborini soatlab jalb etadi. Mahoratli baxshi ijrosidagi doston mazmuni va obrazlarini tinglovchi tasavvur qilib boradi va asardagi voqealarga beixtiyor qatnashay o'tgandek bo'ladi.

Xorazm xalfachilik san'ati maktabining
namoyandalari Gulbahor Norquliyeva,
Xolbuvi Matyoqubova, Parigul
Jumaniyozova



Bastakor Hayitboy Norboyev
va Parigul Jumaniyozova



Olti xalfa

M.M. ♩ = 90

Ol-ti xal-fa bi- ri Ay- sha, Bar-moq-la-ti qo'-
 sha jo'- sha. Oa-shuqay-tur jo'- sha jo'- sha (yay). El-ga bal-li ol -
 ti xal - fa. Olti xal-fa bi - ri Yo- qit, O' ti-rib-di qo - shin qo - qib,
 Ham-om-la-ti qil - g'aa yo - qib (ay) El-ga bal-li ol - ti xal - fa.

Olti xalfa biri To'ti,
Chellere bitgan suv o'ti,
Yurakinda bordir o'ti,
Elga balli olti xalfa.

Olti xalfa biri Bo'ston,
Otlari olamga doston.
Yurgan eri bog'-u bo'ston,
Elga balli olti xalfa.

Olti xalfa biri Tursin,
Arvaga sakrab o'tirsin.
Arvani ko'chari sinsin,
Elga balli olti xalfa.

Olti xalfa biri Fotma,
Uzin bo'yi o'zi qatma.
Qizil yuzli, qoshi chatma,
Elga balli olti xalfa.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubidan Xorazm musiqa ijro uslubini farqlash. Farg'ona-Toshkent musiqa amaliyotida deyarli barcha xalq cholg'ulari, jumladan, dutor, tanbur, rubob, chang, sato, g'ijjak, nay, qo'shnay, surnay, karnay, doira, nog'ora va boshqa sozlarni ko'rish mumkin. Bu sozlar vaziyatga qarab, yakka yoki ansambl shaklida namoyon bo'ladi. Xususan, ommaviy bayram, xalq tantanalari va to'y marosimlarida surnay, karnay, nog'ora va doiralardan iborat asnambl sadolari yangrasa, uy-xona sharoitlarida esa sadolanishi nisbatan yumshoq cholg'ular-dutor, tanbur, g'ijjak, qo'shnay va boshqalar qo'llaniladi. Ashula aytuvchi hofizlar ko'pincha dutor va tanbur jo'rnavozligini qo'llaydilar.

Farg'ona - Toshkent musiqa uslubi: Farg'ona- Toshkent musiqa uslubi-Farg'ona vodiysi, Toshkent shahri va viloyati hududlarida qaror topgan Musiqiy an'analar majmuidir. Bunda xalq musiqasiga oid kuy, terma, lapar, yalla, qo'shiq, ashula kabi aytim janrlari, shuningdek, dostonchilik, ashulachilik, maqomchilik kabi kasbiy musiqa an'analari o'z aksini topgan.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida bolalar fol'klori, xotin-qizlarning qo'shiqchilik ijodi, yallachilik, ashulachilik va cholg'u kuylari munosib o'rin tutadi. Jumladan, mazkur uslubdagi bolalar fol'klori bo'lgan "Boychechak", "Yomg'ir yog'aloq", "Laylak keldi", "Oftob chiqdi", "Chuchvara qaynaydi", "Chittigul" kabi qo'shiqlar nafaqat shu sarhadda, balki butun diyorumiz bo'ylab mashhurdir.

Xotin-qizlar davrasida lapar-u yallalar, to'y marosimi qo'shiqlari bo'lgan "Yor-yor", "Kelinsalom" vaboshqa qo'shiq namunalari sevib aytiladi.

Farg'ona -Toshkent musiqa uslubida "katta ashula" deb nom olgan ashula yo'li ham bo'lib, u, odatda, turli ommaviy yig'in va tantanalarda, bayram marosimlari, gap-gashtaklarda hamda an'anaviy choyxona majlislarida hofizlar tomonidan ijro etilgan.

Farg'ona- Toshkent cholg'u musiqasida raqs kuylari ham mashhurdir. Bu o'rinda, jumladan, "Dilxiroj", "Andijon polkasi", "Farg'onacha rez", "Tanavor", "Katta o'yin" kabi raqs kuylari ni aytish mumkin.

Farg'ona -Toshkent musiqa uslubida xalq ashulalari muhim o'rin tutadi. Bu ashulalar terma, lapar, qo'shiq singari aytimlarga nisbatan ovoz doirasining kengligi hamda kuychan, so'lim ohanglari bilan ajralib turadi. Xalq ashulalari barmoq vaznida bo'lgan xalq she'rlari yoki aruz vaznidagi mumtoz she'riyat asosida aytiladi.

"Tanavor", "Eynozanin", "Oydek to'libdur", "Farzona", "Ul parivash" singari xalq ashulalari nafaqat hofiz-ashulaehilar, balki ziyolilar, hunarmandlar, kosiylar va boshqa kasb egalari tomonidan ham ijro etib kelinadi. Shuningdek, bu turdagi ashulalar xotin-qizlar tomonidan ham "ichqarida" kuylangan. Jumladan, "Chaman ichra", "Tanavor"ning "Qora sochim" kabi ashula yo'llari dutor jo'rligida xotin-qizlar tomonidan sevib ijro etiladi.

Ashulalar, an'anaga ko'ra, turli yig'in va majlislarda, to'y marosimlari va boshqa xalq tantanalarida ijro etilgan. Choyxonalarda esa ashulachilarning ijodiy musobaqalari ham o'tkazib turilgan.


Taniqli ashula ijrochilari qatorida Mamadbobo Sattorov, Boltaboy Rajabov, Erkaqori Karimov, Ortiqxo'ja Imomxo'jayev, Rasulqori Mamadaliyev, Jo'raxon Nultonov, Ma'murjon Uzoqov, Mukarrama Azizova, Zaynab Polvonova, Murodjon Ahmedov, Tavakkal Qodirov, Fattohxon Mamadaliyev, Orifxon Hotanov kabi maallim san'atkorlar nomim hurmat bilan tilga olamiz.

Katta ashula Farg'ona-Toshkent musiqa uslubining o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Chunki, kasbiy musiqaga oid bu ashula janri boshqa mahalliy uslublarda uchramaydi.

Katta ashula-yirik hajmli va kuy- ohanglari keng nafasga mo'ljallangan ashula bo'lib, u yakka hofiz-ashulachi yoki 2-4 hamnafas hofizlar tomonidan aytiladi. Bunda jo'rnavoz choig'ular qo'llanilmaydi. Katta ashulalarning nazmiy asoslarini aruz vaznida bo'lgan diniy-falsafiy, ishqiy-muhabbat, pand-nasihati kabi mavzulardagi she'riyat (Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat, Miskia, Habibiy va boshqalarning) namunalari tashkil etadi.

Bu turdagi ashulalar rivojlangan kuylarga ega bo'lib, odatda, erkin ritm-o'lchov asosida kuylanadi. Mazkur janrning "patnusaqi ashula", "liqobi ashula"

ingari boshqacha nomlanishlari ham ma'lumqi, zero hofizlar ijro paytida qo'llarida patnis yoki likop (tarelqa) ushlab turadilar. Boltaboy hofiz, Hamroqulqori, Mamadbobo Sattorov, Akbarqori Haydarov, Erkakori Karimov, Ma'murjon Uzoqov kabi



hofizlar kata shulalarning mahoratli ijroch qari edilar. Bu san'atkorlar kuylagan "Ko'p erdi", "Bir kelsun", "Ey dilbari jononim", "Adashganman", "Do'stlar", "Yovvyi Chorgoh" singari katta ashulalar keng tinglovchilar ommasiga yaxshi ma'lumdir.

Keyingi yillar davomida ayrim katta ashulalarni cholg'ular jo'rligida ijro etish amaliyoti ham qo'llana boshlandi. Bunga "Mehnat ahli", "Ey dilbarijononim", "O'zbekiston⁵" kabi katta ashulalarni misol keltirish mumkin. Shuningdek, katta ashulalarni alohida cholg'uda, masalan, nayda ijro etish an'anasi ham yuzaga keldi. Bu o'rinda Ismoil naychi, Abduqodir naychi va Saidjon Kalonovlardek ustoz san'atkorlarimizning xizmatlari katta.

Farg'ona-Toshkent musiqa uslubida xotin-qizlar ijodi unumli bo'lib, ular orasida, jumladan, tarafma-taraf bo'lib lapar aytishlar, turli qo'shiqlarni kuylash, to'y marosimi aytilari bo'lgan yor-yor, kelinsalom va o'lanlarni kuylash ommaviy tus olgan. Bular ichida, Ayniqsa, yallalar sevib ijro etiladi.

Yalla-bu band-naqarot shakliga ega aytim bo'lib, u raqsga tushib kuylanadi. Bunda yakkaxon yallachi doira jo'rligida raqsga tushib bandlarni kuylasa, naqarotlarni davrada hozir bo'lgan ko'pchilik qo'shilib aytadi. Bundan tashqari, Buxoro-Samarqand sozandalari va Xorazm xalfalari san'atiga yaqin bo'lgan kasbiy yallachilar ham bo'lib, ular yakka holda yoki ansambl tarzida namoyon bo'ladi. Yakka holdagi yallachi, odatda, o'z aytilariga dutor yoki doira sozida jo'r bo'ladi. Yallachilar ansambli esa 2-3 ayyoldan iborat bo'lib, faqat doira jo'rligida kuylaydilar. Xotin-qizlar davrasida hozir bo'lgan yallachilarning repertuari asosan qo'shiq, lapar, yalla va to'y marosimi aytilaridan tuzilgan

bo'ladi. Katta ashula janri Farg'ona- Toshkent maqom yo'llariga, Ayniqsa ashula yo'llarining avjlariga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Qolaversa, bunday ta'sirlanish jarayonida har ikkala janr (katta ashula+maqom) xususiyatlarini o'zida mujassam etgan yovvoyi maqom janri ham yuzaga kelgan edi. Bunda Farg'ona- Toshkent maqom ashula namunalarini jo'mavoz cholg'ularsiz, katta ashulaga monand Erkin uslubda aytilishi ko'zda tutiladi. Binobarin, "yovvoyi maqom" iborasi "usulsiz maqom" ma'nosida ham ishlatiladi. Shunga ko'ra, masalan, "Ushshoq" ashula yo'lining usulsiz (katta ashula uslubida) ijro qilinishi "Yovvoyi Ushshoq", shuningdek "Chorgoh" yo'li — "Yovvoyi Chorgoh" kabi ataladi.

Ba'zan "Yovvoyi" so'zi o'rnida "Patnusaki maqom" tushunchasi ham ishlatiladi, ya'ni "Patnusaki Chorgoh", "Patnusaki Bayot" singari. Bu borada "patnis" so'zining qo'llanilishi ham katta ashula uslubidagi ijroga ishoradir. "Yovvoyi maqom"larda Lutfiy, Sakkokiy, Navoiy, Muqimiy, Furqat, Miskin, Habibiy va boshqa muhtoz shoirlarning aruz vazni she'riyat namunalari qo'llaniladi.

3.2.4. O'zbekiston mahalliy (fol'klor) uslublarining zamonaviy saxna ko'rinishlarida "To'y qo'shiqlari" va Bolalar fol'klori

To'y juda qadim zamonlardan beri kishilar hayotida muhim voqea bo'lib kelgan. Xalqning ma'naviy boyligi to'y-tomoshalarda namoyon bo'lgan. To'y marosimlari- beshik to'yi, xatna to'yi, yosh to'yi, uylanish to'yi singari xilma-xil bo'lganidek, uning qo'shiqlari ham turli tumandir.

Qiz uzatar kechasida aytiladigan qo'shiqlardan biri «yor-yor»lardir. «Yor-yor» qo'shiqlari musiqiyli, ma'lum cho'ziq ohangda ko'pchilik bo'lib kuylanishi, naqoratlari bilan ajralib turadi. «Yor-yor» qo'shiqlarida asosan qiz o'stirgan ota-onaning tahrifi, orzulari, uzatilayotgan qizning madhiyasi-g'azalligi, chevarligi. Qizga turmush haqidagi nasihatlar, o'nib-o'sishi, serfarzand bo'lishi haqidagi tilaklar tashkil qiladi. «Yor-yor» qo'shiqlari

respublikamizning hamma yerida ham keng tarqalgan va asosan ayollar ijro etiladi.

Ayrim joylarda erkaklar tomonidan ham aytilishi mumkin. Kelin salom. Kelinchakni kuyovning yaqin qarindosh-urug'lari bilan tanishtirish marosimida kelinsalom yoki betochar qo'shiklari aytiladi. An'anaga ko'ra kayvoni (dasturxonchi) kelinni tushadigan uyga darvozadan olib kirishdan boshlab aytadi. Uy egalari, to'yga kelganlar esa «alik salom» deb javob qaytaradilar.

Buxoro va Samarqand viloyatida an'anaviy «salomnoma»lar o'qiladi. «Kelin salomda» kayvoni kuyovga qaynata, qanana hamda tog'alari, ammalari, xolalariga salom berganda tahrif-tavsiflar orasida hazilnamo ga'larni qo'shib chatib yuboradi.

«Kelin salom»ga qatnashgan ayollar bundan rohatlanib, kuladilar. Tanqidiy hazil ham, kulgi ham beg'ubor, bundan hech kim xafa bo'lmaydi. Aslida «Kelin salom»da aytiladigan qo'shiqlar avvaldan ijod qilingan esa-da, kayvoni tilidan guyo yangi kelinning qarindoshlari tabiatiga mos tushadigan qilib, hozirgina ijod qilinganday tuyuladi. Ko'p yerlarda «Kelin salom» uch satrdan, Farg'ona vodiysida toprtlıklardan tashkil topadi. Asosan, avvalgi ikki satr o'zaro kofiyadoshdir.

Kayvoni: Bog' orqasidan yo'l bergan,
Hamyonidan 'ul bergan
Qaynatasiga salom.

Ayollar: Alik salom.

Kayvoni: Suv kechgani eringan,
Ug'il tug'ib kerilgan,
Qaynanasiga salom.

Ayollar: Alik salom.

Kayvoni: Ariqdagi zulukday,
Qoshi-ko'zi pilikday,
Qoqib qo'ygan ilikday,
Ovsiniga salom.

Ayollar: Alik salom.

Kayvoni hazilomuz kelin salomlarni birvarakay topkib, odamlarni kuldirib, aytaveradi. Berilayotgan tavsiflar nomi tilga olingan kishini to'pla tasavvur etishga yordam beradi:

Tomga bosgan buyraday,
G'o'zadagi pechakday,
Yurishlari topraday,
Qayrilmachoq gajakday,
Kuyov yigitga salom.
Ochilgan gul pechakday
Qaynegachisiga salom.

Ayrim yerlarda kelinga qarindosh bo'lmish kishilarning, shuningdek, to'yda astoydil xizmat qilganlarning nomlari birma-bir aytiladi:

Boquvdan chikkan otdek,
Ikki beti banotdek,
Habibulloga salom.

Yana xalq orasida kuyov tomonidan kelin tomonga atab, shuningdek, kelinnikiga kuyov navkarlari bilan kelganlarida qiz tomonidan aytiladigan «xush kelibsiz», shuningdek, «To'y muborak» qo'shiqlari ham bo'lib, ular hozir ham keng tarqalgan.

Lapar janrlari, uning o'ziga xos jihatlari va ijrochiligi: O'zbek marosim fal'klari orasida milliy marosimlardan biri nikoh to'yi bilan bog'liq fol'klor namunalari tashkil etadi. Nikoh to'yi marosimlari va uning fol'klorini boydir. Nikoh marosimlari bilan bog'liq ravishda jar (chorlovlar), ulan, Lapar, yor-yor, kelin salom, kuyov salom, to'y olqishlari kabi mustaqil fol'klor janrlari mavjud.

Respublikamizning shahar va qishloqlarida ijro etiladigan, Lapar janrlari va uning xususiyatlari o'ziga xosligi bilan ajralib turadi.

Laparlar nikohdan bir-ikki kun oldin kelin bo'lib tushadigan qizning uyida ijro etilgan. Bu marosim turli yerlarda «Qiz oqshemi», «Qizlar majlisi», «Qiz oshi», «Lapar kechasi», «Qizlar bazmi», «Lapar to'yi» kabi turli tuman nomlar bilan yuritiladi.

Lapar to'yi tadbiri to'y marosilarining nikohlargacha bo'lgan tarkibiy qismi hisoblanadi. Odatda kizning (kelinning) yangalaridan biri maxsus yasatilgan otga minib, orqasiga 11-12 yoshli bolani mingashtirib, yoki 'iyoda holda qishlog'i va to'ydosh yaqin qishloqlarni aylanib, Lapar kechasiga xabar qiladi. Bunda ashulachi, o'yinchi, laparchi qiz juvonlarni taklif qilishga alohida e'ttibor beriladi.

Yigitlar va yosh yalanlar qizlar bazmining oxirida, ya'ni uning Lapar aytishish qismida ishtirok etadilar. Qiz bilan yigitlar tarafma-taraf turib, oshiqona g'azal-baytlar aytishganda, xuddi so'z bilan tortishmachoq o'ynaganday bo'ladi. Bu bazmda qizlar va yigitlar tomonidan ikki kishi sal oldinga chiqib Lapar aytishadi.

Odatda, tuyga atab, qizning otasi ikki-uch juft kavush olib qo'yadi. Lapar aytuvchi shulardan bir poyini ushlab turib Lapar boshlaydi va qizlar topdasidagi Laparchi qizga uzatadi. Ular ham o'z navbatida Lapar bilan javob berib, haligi bir poy kavushni ro'paradagi Laparchi yigitga olib kelib beradi. shu tariqa yangidan-yangi Laparchilar urtaga tushaveradi.

Lapar bilan qiz va yigitlar bir-birlariga muhabbat izhor etib, tanishgan va ahdi-'aymon qilishgan. O'z yurak dardlarini muzikasiz ma'lum ohangda ashula qilib aytishgan. Bordi-yu Lapar aytayotgan yigit bilan qiz bir-birin yoqtirib qolsa, Lapar aytib turib bir-birlariga sovg'a berishgan.

Masalan, yigitlar ko'pincha kavush bilan birga tanga, so'm bersalar, qizlar qiyiqcha, dastrumol, atir, sovun va shu kabi narsalarni kavushning ichiga solib qaytarishgan.

Qiz bazmida ko'pdan beri aytilib kelingan Laparlar takror aytilar va yangilari ham ijod qilinardi. Odatga ko'ra, bazmdan avval ziyofat beriladi, mashhala yoqiladi, sung o'yin boshlanadi, keyin Laparga o'tiladi.

Lapar Toshkent atrofi tumanlarida, Janubiy Kozog'iston o'zbeklari orasida keng tarqalgan. Laparni ko'p biluvchilarni Laparchi deganlar. Ayrim to'ylarga maxsus Laparchilar ham chaqirilgan.

Lapar raqsbo'p kuyga ega bo'lib, ko'pincha o'yin-raqs bilan ijro etiladi. Laparni odatda ikki qo'shiqchi dialog shaklida ijro etadi. Uning matnlari asosan ishqiy-lirik yoki didaktik yumoristik yoki hazil shehrlardan tashkil topadi.

Masalan: Sochingni qora deydilar,
Qorasoch ukam yor-yor,
Ko'rsat sochingni bir ko'rayin,
Jonim ukamey yor-yor.

Bu misolda yigit-qiz o'tasidagi dialog bir xil kuyning takrorlanishida ijro etiladi. Dialog teksti har xil kuyga asoslanishi ham mumkin. Bunday paytda matning ikkinchi "javob" bandi qo'shiqning birinchi va har bir keyingi "savol" bandidagi ohangni rivojlantiruvchi kuy tuzilmasiga mos keladi. Shuningdek, Xorazmda raqs jo'rligida yakka ijrochi aytadigan qo'shiqlar ham "Lapar" deyiladi. Garchi mazmunan bir xil bo'lsa-da, Laparning har ikki turi qo'shiqdan o'z kuyining raqsbo'ligi bilan farqlanadi.

Ayrim hududlarda "Lapar" termini o'lan deb yuritiladigan dialog shaklidagi To'y marosim qo'shiqlariga nisbatan ham qo'llaniladiki, bu aytishuv kelin bilan kuyov tomon vakillarining har bir guruhida alohida-alohida unison qor sifatida ijro etiladi yoki yakka-xonlar dialogi tusida bo'lishi mumkin.

O'yin folklori va tabiiy ijodkor xalq butun so'zning yosh avlod tabiatidagi kuchli va jozibador qadim zamonlardan oqib kelgan. U o'zining xalq uyushmalarini ko'z mo'jizasi bilan bunyod keltirgan.

Bolalar folklori kichikintoylar olami bilan kattalar dunyosini uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'yinlar, qo'shiqlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan Bolalar folklori bolalarda eng yaxshi fazilatlarini-vatansparvarlik, mehnatga muhabbat, kishilarga ishonch, do'stlarga sadoqat tuyg'ularini yekattalar bilan birga tabiat stixiyalariga qarshi kurashish va ularni yengish malakasini tarbiyalaydi.

Bolalar folklorini yaratishda kattalar ham bolalar ham baravar hissa qo'shishgan. Kattalar bolalarni erkalash shehrlarini yaratishganki, alla, aytim,

olqish, ovutmachokq, qiziqmachokq, singari erkalash xususiyatlariga ega bo'lgan bu janrlar onlaik fol'klori tarzida ifodalangan.

Onalik fol'klori keng mahnodagi tushuncha bo'lib, 'oetik namunalarda erkalash xususiyati yetakchidir. SHu Mantiqqa asoslanib, onalaik folbg'ekloiridva 'oetik asarlar silsilasini nasriy asarlar guruhidan ravshanroq ajratish niyatilda onalarni erkalovchi shiorlari deb ham atash mumkin. O'z navbatida erkalash shehriyatiga mansub namunalarning ijro maqsadi, urni va bola yoshi, saviyasiga ko'ra guruhlarga bo'lnadi.

Birinchi guruhga mansub qo'shiqlar bolaning beshikdagi davri bilan chambarchas bog'liq. SHuning uchun ularni beshik qo'shiqlari deyishadi. Allalar, aytimlar, olqishlar, ana shunday xususiyatlarga ega. Beshik qo'shiqlari bola uch yoshga toplungga qadar aytiladi.

Allalar-ijtimoiy estetik qiymatiga ko'ra birinchidan-bolalarni uxlatishdan iborat., ikkinchidan-tarbiyaviy estetik mohiyat kasb etishdan iborat. Beshik qo'shiqlarida eng ko'zga ko'rinadigan mavzu- bola ta'rifi. Ona o'z bolasina o'zi bilgan yaxshi so'zlar bilan tahriflaydi.

Qo'zi boqqan qo'y etsin,
Topganimga To'y yetsin .
To'y-To'ylarga ulansin,
Davlat beshingga urnashsin.
Alla-yo, alla.

Ikkinchi guruhga oid qo'shiqlar bola tug'ilganidan to 10-11 yoshga to'lguncha ijro etiladigan aslida beshik bilan bog'lanmagan onalik mehri tarovatidan yuzaga kelgan badihalardir. Bular suyish qo'shiqlari bo'lib, erkalatmalar, ovutmachoklar, qiziqmachoklardan tarkib topgan Aytim-olqishlar erkalovchi ruhdagi rasm-rusum bo'lib, aksariyati, asosan, bolalarning beshik davriga oid turli tuman marosimlarda ijro etiladi. CHaqaloq beshikka solinganda, cho'miltirilganda, birinchi qadamini bosganda, sochi birinchi olinganda, bola shahnigasiriq tututilganda,xullas shunday rasm rusumlarning mazmuniga yarasha aytim olqishlari mavjud. Bolaga yangi kiyim kiydirish qutlovigv aylangan quyidagi aytim-* -olqishga ehtibor berish lozim.

San bir yillik,
Man ming yillik,
Kiya-kiya topzdiraylik,
Dugonalarimdan uzdiraylik.

ERKALAMALAR. Erkalamalar kichkintoylar g'ashlanganda, baqirib-chinqirib yig'laganda, betoqatligi oshganda aytilib, kayfiyatning ko'tarinkiligini oshirish uchun ijro etiladi.

O., shugina, shiringina,
Munchagina, tunchagina
Kunchagina, shunchagina,
Yashnab turgan kunchagina.

«Yasha», «Balli», «Ofarin», «Rahmat», kabi erkaloovchi, olqishlovchi so'zlar ham bolaga quvonch bag'ishlaydi.

Ovutmacholqlar. Onaning bola bilan bo'lgan munosabatlarida juda qadim zamonlardagi odatlarning izlarini ko'rishimiz mumkin. Bular kishilarning tirikchilik shakllari, turli xil an'analari bilan birga, ularning o'z davarida animistik, totemistik tushunchalarda bo'lganligini tasdiqlaydi.

Biz bu tushunchalarni ba'zi keksalarning harakatlari vaqtida kuzatamiz. Masalan: ona bolani beshikka belayotganida o'ng qo'li bilan qovuzni tekislab, keyin bolani yotqizayotib, shunday so'zlarni aytadi:

Egasi kelgin, boboylari chiqsin.

Bolani beshikdan yechib olayotganda esa: Uyqusi beshikda qolsin.- deydi. Diqqatini ikki narsa o'ziga jalb qiladi, bir- beshikning egasi bola. Bolani beshikka belayotganda bu joyda, vaqtincha, boshqa bir narsa egallab turibdi. Egasi kelganda u joyni bopshutishi kerak. Ikkinchi: Uyqu bodadan ajrab, beshikda qolishi kerak ekan.

Mahmud Koshg'ariyning nazari ham bu faktni ham chetlab o'tmadi: Isiriqq, isiriqq deyilganda «Ey jin, es-hushingni yo'qot.» Deyilgani bo'ladi» deb izoh beradi olira.

Ovutmacholqlarning ma'lum bir turkumi onalarning qilgan harakatlari o'lchovlik vazifalarini ham o'taydi. Masalan ona beshikdagi bolani yechib olar

ekan, o'ng bilagidan g'oz ko'tarib, «O's - O's,»- deydi, yana chap bilagidan ko'tarib, «O's,...O's,» deydi.

Ovutmacholqlar yana bolaming tinchlantirish ehtiyojini qondiruvchi maqtovlardir.

Vuy-vuy, shuginani kim urdi,
Vuy-vuy, shuginaga kim lab burdi.
Yig'lama oppoqqinam,
Boshimdagi qalpoqqinam.

BOLALAR QO'SHIQLARI. Kishilar o'z mehnatlarini, turmushdagi barcha voqealarni qo'shiq bilan bezaganlar. O'zbek xalq og'zaki ijodiyoti boyliklari ichida kattalardan bollalarga meros qoladigan qo'shiqlarning salmoqli turi mehnat qo'shiqlaoidir.

Oq sigir . ko'k sigir,
Qani tezroq bo'i sigir,
Doni menga,
Somonni senga,
Xo'p, top'.

Katatalarning bollarga aytib beradigan, keyinchalik bollalarga meros bo'lib qoladigan yana bir qo'shiqlar turkumi Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» dan to bizning davrimizgacha aytilib kelingan jonli va jonsiz personajlar bahsidir.

Oq sholi, ko'k sholi,
Oq sholini oqlaylik,
Ko'k sholini kopklaylik,
Niyozbekka saqlaylik.

Xalq o'tasida suv haqida juda ko'plab afsonalar. qo'shiqlar, ertaklar yaratilagan. O'zbek xalqiningg eng yaxshi orzulari suv bilan bog'langan. Bu umumxalq ruhidan bolalar bolalar ham chetda qolmaganlar. Ularning o'yin va ashulalarida ham suv, tabiat hodisalari mavzui bor.ulardan biri yong'ir haqidadir.

Yong'ir yog'aloq,
Echki sog'aloq,
Boyning o'g'lini
Qorni dumaloq.

Qo'shiqning bir necha variantlari mavjud:

Yomg'ir yog'aloq,
Yam-yashil o'tloq,
Endi ekinlar,
CHIqarar quloq.

Buxoro viloyatinig o'zbek va tojik tillari asosida shirin-shakar qilib,»
Yomg'ir-yomg'ir bore bore yoqqaningni ko'ray»-deyishadi. Farg'onada yosh
qizlar «Yomg'ir yog', Sochim o's!» deb qichqirishadi. Surxondaryoda esa
yomg'ir yoqqanda aytiladigan shunday qo'shiq bor:

Yomg'ir yog'sin,
O'ralar topilsin,
Sur xotin,
Sur xotinga suv kerak,
Qozon topla un kerak.

Bunda yomg'irning «qozon- qozon un» keltirishi ochiqdan-ochiq aytib
qo'yiladi. Don-un, un-non. Bolaga esa non yekrak. Qor haqida ham qo'shiqlar
bor. Qadim zamonda qor kambag'allik, ochlik, yu'inlik ramzi edi. Qorni
yog'ishi inson irodasidan tashqari hodisa, odamning unga itoat qilishdan boshqa
chorsini yo'q deb tushunilardi.

Shuning uchun qor xatlar: «Qor yog'dirgan xudoyimning o'zi» so'zlari
bilan boshlanar edi. Qorda qolgan odam nochor odam sifatida tasvirlanadi.
Ko'pincha, cho'l va kamplar tilga olinardi. «Qolgan ishga qor yog'ar»
maqollari esa omadsizlikdan. Ishni yurishmasligidan darak berardi.
Qo'shiqlardan bir misal:

Qor yog'adi gupillab,
Ammam ketar chopkalab,
Ko'rpacha soling yonimga,
Ammam kelsa uyimga

Bahor fasli kelishi bilan bolalar o'yinlarini boshlab yuboradilar. O'g'il
bolalar osmonga varrak uchiradilar. Qiz bolalar sochlariga bargak taqadilar.
Bolalar to'li chivichlarini qo'l bilan uqalab, asta po'stini shilib, o'zlariga
sivizg'alar yasaydilar. Kichkintoylar xivichlarni «toy» qilib minishadilar.

Boychechak bolalarning birinchi qo'shig'iga sazovor bo'ladi. Ular bu qo'shiqni baland ovoz bilan bab-baravar aytadilar.

Boychechagim boylandi,
Qozon topla ayrondi,
Ayroningdan bermasang,
Qozonlaring vayrondi.

Kattik yerdan kazlab chikkan boychechak,
Yumshok yerdan yugurib chikkan boychechak.
Boychechakni tutdilar,
Tut yogochga osdilar.
Qilich minan chodilar,
Baxmal minan yopdilar.

O'zbek va tojik etnografiyasining, fol'klarining tadqiqotchisi Professor Ye.M. Peshchereva suhbat vaqtida nega « boychechakni tutdilar, tut yog'ochga osdilar» deyilishiga diqqatimizni tortdi. Haqiqatdan havm, qadim SHarqda tut daraxti muqaddas daraxtlar dan biri deb hisoblangan. O'zbeklarda mazkur ehtiqodga ko'ra daraxtning «egasi bor» deb hisoblanadi., ehtiyot qilinadi, uning tanasidan xotinlar sochini tarash uchun taroq, bola belaydigan beshik qilinadi.

Boychechak xalq orasida ramziy timsol bo'lsa kerak. Negaki, u xuddi odam singari tasvirlanadi. Uni «Tutadilar», «tut yogochga osadilar», «qilich bilan chopadilar», «baxmal bilan yopadilar». Bunday ishlar bundan 2-3 ming yil ilgari qadim Misr, Yunonda ham bo'lganini etnograf tarixchilar biladilar.

Boychechak bolalar tushunchasida ijodiy timsol u, yoshlik, jushkinlik ramzi. U o'zbek bolalari ogzidan yozib olingan bir variantda boychechakni kilich bilan chopish «kamlik qiladi», uni «balgon» bilan uradilar va keyin qilich bilan chopadilar.

Demak, u yana «isyonkor» ham ekan. O'zbek xalqida biror kishi o'z kuchi bilan qiynalib usgan bulsa, «axir, u qattiq yerdan katalab chiqqan boychechakning o'zi-da!» deyishadi. Buning hammasi boychechak mehnatkash kishi timsoli ekanidan dalolat beradi. Toshkent viloyatida:

Boychechagim, boychechak,
Etagim tula boychechak.

Yoki:
Kulogida donasi,

Boychechagim bolasi,

Donasini olay desam,
Yugurib chikdi onasi.

Baxor faslida «CHidti gul» qo'shiqlari ham aytilib, kelingan. Bu qo'shiq bilan bolalar qo'shiqqa mos harakatlari bilan uynaydilar. Qo'shiq ohangi o'yingu o'lchov mezon bo'lib uni yetaklaydi. O'yin esa qo'shiqning mazmunini to'ldiradi. Unga harakat bag'ishlaydi. Bola bir vaqtning o'yindan ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan rohatlanadi. Qo'shiq ijrosini kuz oldimizga keltirib kuraylik. Qizlar juft-juft bulishib, kaftlarini bir vaktida bir-biriga urib, aylanishib, yana urishtirib, qo'shiq aytadilar. «CHittigulo-chittigul», deyilganda kizlar yuzma-yuz turadilar. Qo'llari ma'lum tartib bilan bir-birlariga qarsillab tegib, chiroyli oxang kasb etadi. «Xay-yu, chittigul, xay-yu chittigul» deyilganda kizlar bir xil maqom bilan turgan joylarida gir aylanadilar.

CHidti gul-o, chittigul,
Xay-yu chittigul,
CHittigul gulga gul bosay,
Bir yonini yonbosay,
Hay-yu chittigul,
Hay-yu chittigul,

Quling qulyog'dan bo'lsin,
Deling belbog'dan bo'lsin

Hay-yu chittigul,
Hay-yu chittigul,

Yoz faslida «Laylak keldi, yoz buldi» kushigi ko'proq aytiladi. Bu qushlarning kelishidan, ekinlarning unishidan, qushlarning kelishidan, arilqandan ayvlarning to'lib oqishidan, bola ko'nglida quvonch uyg'otadi.

Bolalar ota-onalaridan laylak haqidan ko'p ertaklar, afsonalar eshitganlar. Ular laylakni yoz faslini elchisi sifatida tasavvur etadilar.

Laylak keldi, yoz bo'ldi,
Qanoti qog'oz bo'ldi,
Laylak boradi tokka,
Quloqlarida halqa.
Xalqasi tushib qoldi.
O'tirdi yig'lamoqqa.
Laylak keldi ilon qoch,

Bola chakang olib qoch,
Yangi tuning kiyib qoch.
Eski tuning tashlab qoch.

Qo'shiqning bolalar kushigiga xos yana bir tomoni bor: Qo'shiq oxiri kutilmaganda «ilon koch», turtligi bilan tugallanadi. Avvalo ilonni bola yomon ko'radi, ilon bor joyda chumilolmaydi.

Ikkinchidan laylak ilon yeydi, shuning uchun kochish kerak. Uchinchidan, yoz bo'lib, laylak kelishi vaktidan ilon tullab, 'ust tashlaydi. Bu qo'shiq fasl izining kurinishidir. Qo'shiqning variantlari ko'p. Ba'zi qo'shiqlarda laylakni «opa» deb ataladi va unga xazil mutoyiba bilan murojaat kilinadi:

Laylak opa,
Boshinga kapa,
Takiyam suvga tushib ketdi.
Olib bering, jon opa!

«Oftob chiqdi olamga» qo'shiqlari bir turkum she'rlarini tashkil qiladi. Aslida qo'shiq oftobning chiqishi bilan blalar, kattalar quvonchiga bag'ishlangan bo'lsada, bora-bora u maishiy tus olib ketadi. Bodalarning pishiqchilik-arpa, bug'doy pishishi, yantoq, quvray, ajriq qurib- o'tin bo'lishi, qozon- tandirlarda non yopilishi, bolarning to'yib non yeyishi imkoni haqida qo'shiq aytilishi kutiladi.

Oftob chiqdi olamga,
Yugurib bordim xolamga,
Xola, xola kulcha ber!
Xolam dedi:- O'tin ter!
O'tin terdim bir quchoq,
Kulcha yodi bir o'choq.
O'g'liga berdi yog'liq kulcha,
Menga berdi kuyuk kulcha.

She'r voqeasi qisqa: bola xolasidan kulcha so'raydi, xolasi o'tin terib kel, dedi. Bola o'tin terib keldi, kulcha yildi. Afsuski, pishgan kulchadan o'tin termagan xolasining o'g'li yog'liq, butun kulcha oladi, u esa, «shuncha ishlab», atigi qo'yuq olib qoldi.

Bu o'rinda bola «qornidan ham qadriga» xafa. Qo'shiqning aytilishi boisi shu. U deyarli hamma viloyat, tumanlarda aytiladi. Uning elementlari ham

mahalliy tili, sharoit, odatlarga qarab o'zgaraveradi. Masalan: termizda bolaga ko'moch tegadi Farg'onada nonning kuyganini, boshqa joylarda- «menga berdi zig'ichcha» va hokazo. Bola adolatsizlikdan xafa bo'ladi va xolasi qilgan ishni «birini o'n qilib», bolaga xos mubolag'a bilan tasvirlaydi.

Bolalar folklori- og'zaki ijod namunalari. Odatda bolalar yoki ular uchun kattalar tomonidan yaratiladi. Folklor janrining tarkibiy kismi. O'zbek Bolalar folklori alla, ertak, ermaklar, tez aytish, topishmoq, bolalar o'yin qo'shiqlari, erkalama, masharalama va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bolalar folklori bolaning tinglashiga, aytib yurishiga, o'qiniga, qo'shig'iga moslangan bo'ladi. O'zbekistonda Bolalar folklori namunalari to'plam holida 1932 yildan nashr etila boshladi. Kattalar tomonidan yaratiladigan alla, ovutmachiq va erkalamalar onalar mehruhabbati bilan yo'g'rilgan bo'lib, ularda go'dakning istiqboliga oid orzuomidlar, bola yashayotgan muhit o'z ifodasini topadi. Bolani belash, o'tqazish, atakchechak yurgizish, sakratish, o'ynatish va ovutishlarda "Toyttoy", "Bordibordi" va boshqa ovutmachoklar aytiladi. Bolalar qo'shiqlarining ko'plari yil bollar bilan bog'liq, "Boychechak", "Oltob chiqsi olamga", "Chittigul", "Laylak keldi, yoz bo'ldi", "Qurbaqa", "Qaldirg'och" kabi qo'shiqlarni bolalar yil boshida, dafalarda, qishloq ko'chalarida aytishadi. Ular bahor kelishi, yung'ir yog'ishi, quyoshning olamni istishi, ilk chechak, birinchi qor kabi fasl va tabiat hodisalari bilan bog'liq. "Bu bog'chada olisha", "Zuvzuv borag'on", "Chamandugul", "Oq sholi, ko'k sholi" va boshqa qo'shiqlar turli davrda aytilaveradi. Ularda ovchilik, dehqonchilik, chorvachilik, hunar va san'at bilan bog'liq mehnat jarayonlari, kattalar xatti-harakatlariga taqlid aks etadi. O'yinlar ham, qo'shiqlar ham bolalarning akliy va jismoniy kamolatga yetishiga yordam beradi, ularda zavq uyg'otadi. O'yinlar Bolalar folklori ning murakkab turi bo'lib, ularda drama va musiqa unsurlari chatishib ketadi. O'yinlarni kichik yoshdagi bolalar "Choriy chamber", "Hakkalakam" kabi sanama o'yinidan, katta bolalar "Qushim boshi" degan topishmoqdan boshlaydi.

Bolalar bog'chalari, maktablarda o'yinlardan keng foydalaniladi. Bolalar folklori yosh avlodni intizomli, jasur, qat'iyatli, qiyinchiliklarni yengishga,

o'rtloqlariga yordam berishga tayyor bo'lish singari yaxshi sifatlarga ega bo'lib o'sishlariga yordam beradi. Uning ayrim namunalari maktab darsliklari va o'qish kitoblariga kiritilgan

BOLA TERMALARI. Bola hayotida qo'shiq, o'yin, mashg'ulotlardan tanaffus bo'lmaydi. Yuqorida keltirib o'tilgan qo'shiqlardan ham mukammalroq, voqealari murakkabroq qo'shiqlar bor. Biz ularni xususiyatlaridan kelib chiqib, afsonaviy qo'shiqlar, voqeaband bala termalari deb atasak ham bo'ladi. Negaki, bolalarning jo'shqinligi va izlanuvchanligi, sabrsizligi va harakatchanligi to'plab tushgan ularning sermahsul fantaziyasi bilan ham yo'g'rilgan. O'zbek bolalari aytadigan «Osmondagi oy», «Asakaning yo'lida» singari qo'shiqlar diolog shaklidagi qo'shiqlar sirasiga kiradi.

- Osmondagi oy,
Saydazim boy,
Nima yeyapsan?
- Olma yeyapman.
- Olmangdan tashla
- Acham urushadi.
- Achang o'lsin.
- Xudo saqlasin.
- Hovlingni su'ur,
Lo'li o'ynasin,
Qozoningni yuv,
O'ja qaynasin.

O'zi kichig-u, ichida qancha xalq hikmati borligiga diqqat qiling: olma yeyayotgan kishining davlati Toshkentdagi mashhur savdogar Sayidazim boynikidan kam emas, Qizg'anchiq «acha»ning boridan yo'g'i yaxshi; hovli supurilsa to'y bo'ladi, to'yda lo'lilar o'yin ko'rsatishadi; qozon yuvilishining ham xosiyati bor - ichi to'lib, ovqat qaynaydi. Ovqatning ham go'jasi qaynasin (palov, shovla, halim pishsin deyay aytgani yo'q!) Negaki, faqat guja qaynasagina bolalar to'yib-to'yib icha oladilar.

«Tepdim sandiq ochildi» qo'shiqlari vokeband kissa tarikasida aytiladigan qo'shiqlardan biridir. Bu qo'shiqning bir necha variantlari tu'lanib, Elbek tomonidan nashr ettirilgan.

Tilla sandik ochildi,
Tagiga bodom sochildi.
U bodomni terolmay,
Qanotlari kokildi.
Qanot bering uchaylik,
Oq saroyga tushaylik

Qo'shiq 24 yuldan iborat va o'yinning sharti ham bayon qilingan.

Qo'shiqda bola fantaziyasi ehtiborga olingan. Bunday qo'shiqlar bolalar qo'shiqchiligidan takomillashmagan yukori darajadagi shakllar bulib, qo'shiqchilikning avvalgi yoki keyinchalik kuriladigan mayda termalari boskichini utgandan keyingina yuzaga kelgan deyish tugri buladi.

Rivoyatlar hayotiy voqealarni hayotiy uydirmalar vositasida aks ettiruvchi og'zaki ijod janrlaridan biridir. Rivoyatlarda tarixiy voqealar va ayrim shaxslar bilan bog'liq bo'lgan voqealar, kishilar turmushi, geografik joylar, sahro, ko'l, dengiz, shahar, qishloq, qal'ha, Saroy va boshqalarning barpo bulishi va vayron bo'lishi hikoya qilinadi. Rivoyatlar u yoki bu voqea haqida xabar berishi va uni tasdiqlash vazifasini o'taydi. Rivoyatlar mavzusiga ko'ra tarixiy va joy nomlari bilan bog'liq rivoyatlarga bo'linadi.

Rivoyatlarda aytishlaricha, bir joyda ming uchar otini tutib olish uchun ularning doimo kelib quy ichadigan bulog'iga behush qiladigan dori solib qoyadilar. SHu biyla bilan uchib kelib otlarini tutadilar, qanotlarini qirqadilar va ulardan inson mahmatiga majbur etadilar. SHu-shu o'sha joyning nomini Nazorat (Ming ot) deb yuritganlar.

Bayon shaklida yetib kelgan bu afsona mazkur nomning yuzaga kelish sababidan daruk beradi. Har ikki afsonadahan isbotlovchi faktlar ishonchlik manba emas, uydirmadan iborat. SHuning uchun ham toponimik harakterdagi afsonalarga doimo ishonib bulmaydi. Ular faqat masalaning u yoki bu belgisi, detalinigina aniqlashi mumkin. SHunga karamasdan, «Baroktom» va «Xazoras'» afsonalari qabila osoyishtaligi, erkin va ozod hayot haqidagi orzularni ifoda etgan.

Tarixiy janglar haqida yoki uning tahsirida yaratilgan «Tumaris», «SHiroq», «Zariadr va Odatida», «Guldursun» kabi afsonalar qaxramonlik yoki jangnoma tipidagi afsonalardir.

«Tumaris» afsonasida tasvirlangan massagetlar qabilasi va bu qabilaning eron bosqinchlariga qarshi olib borgan kurashlari tarixiy fakt. Umuman, har bir afsona o'zi tashkil topgan manbadan qanchalik uzoklashsa, usha vovokelikni aks ettirish xususiyati shunchalik xiralashadi, oxir oqibat tarixiylik izi yo'qolib ketadi. Natijada u faqat estetik funktsiyani ado etuvchi badiiy asarga aylanib koladi.

Uch xil turdagi afsonalarning har biri o'ziga xos kompozitsion forma, badiiy tasvir vositalari, obrazlar sistemasiga ega. Ular turli xil tushuncha, bilim, e'tiqodini tasdiklash uchun xizmat qiladi. Birinchi va ikkinchi turkum afsonalar hikoya kilish uslubiga kura ko'proq sexrli ertaklarga yaqin turadi. CHunki ularda ko'pincha xayoliy obrazlar ishtirok etadi va ular ertaklarga xos fon yaratib, umumiylikni ifodalaydi, ayni paytda u yoki bu vokealarning fakt ekanidan darak berishga, uni tasdiklashga harakat qiladi. Jangnoma tipidagi afsonalar esa, qaxramonlik dostonlariga yaqin turadi. Biroq, ular ertak va doston singari shakli qathiy emas, unda umumfol'klor asarlariga xos badiiy tasvir vositalari aralash holda kela beradi.

UMUMIY XULOSA

O'zlikni namoyon qilishning og'zaki an'ana va shakllari bizning tushunchamizdagi xalq og'zaki ijodining o'zidir. Xalq og'zaki ijodining tur va janrlari juda keng. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, uning tarkibiga mit, afsona, rivoyat, ertak, maqol, matal, doston, masal, hikmatli so'zlar, tez aytish va boshqa janrlar, muxtasar qilib aytganda xalq merosining og'zaki ravishda ifodalanadigan barcha tur va janrlari kiradi.... Ammo, bugungi kunda "Fol'klor" uslubi "Xalq og'zaki ijodi"dan ajralib chiqqan xolda ravnaq topmoqda. Yuqorida ko'rsatilgan buyuk siymolarimiz qalamiga mansub tarixiy bosqichlar bilan bo'g'liq ijodlarning ko'pchiligi bizga ayyon bo'lmasada, ammo baralla aytish mumkinki, rivojlanib borayotgan xalq ijodiy faoliyati va undan ajralib chiqqan fol'klor uslublari dunyo bo'ylab o'zligini namoish etishi va tanishtirib borishi asnosida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'rinib turibdiki eng qadimgi fol'klor namunalari yozuv yuzaga kelmadan ancha oldin paydo bo'lgan va yozma adabiyotning tashkil topishiga muhim hissa qo'shgan. Ular aad holida bizgacha yetib kelmagan yoki yetib kelganlari ham og'zaki og'izga, avloddan avlodga o'tish jarayonida ijodiy ishlangan.

Ayrimdan Buyuk Qo'ahoniyalar imperiyasi davrigacha mavjud bo'lgan professional fol'klor uslublari va boshqa turdagi ta'lim yo'nalishlari bizning zamonimizgacha kelib yetgan, ammo bular bugungi kunda Tojikiston, Hindiston va Xitoy, Gurjiston va tog'li xududlar, hatto ayrim Yevropa davlatlarigacha o'rin olib, uslubiy jihatdan o'zlarining adabiy tillarida o'zgartirib, o'z o'rniga ega bo'lgan. lekin ularning ajdodiy san'atida eng qadimgisi o'zimizdan o'tganligi haqida ilmiy asoslar talaygina. Musulmon dunyosida O'zbekistonning I va II renesansi davri- Sharq qolaversa jahonning ilmu-ma'rifat markaziga aylanganligi va bizdan boshqa davlatlar ilmu-ma'rifat, madaniyat va tarbiya hamda san'atning ko'pqirrali uslublarini o'rganib, o'zlariga xos tarzda o'zlashtirib olishlari ham jahonshunul ahamiyat kasb etadi .

Keyingi vaqtlarda yozib olingan fol'klarning an'anaviy namunalari, asosan VI-XX-asrlarda yaratilgan asarlardir. Fol'klar asarlarning ayrim namunalari va janrlarning keyingi taraqqiyoti va holatini muayyan davrlar bilan bog'lab o'rganishni taqozo etadi. Masalan, o'zbek dostonchiligining qadimiy ko'rinishlari, uni avloddan avlodga o'tkazib kelgan bir necha avlod, xalq baxshilari va ular ijro etgan dostonlari haqida yozma ma'lumotlar deyarli saqlanib qolmaganligi alohida jahonshumul tadqiqotni talab etadi deyish o'rinlidir..

Eng qiziqarlisi Avesto davrida yozib qoldirilgan 21 ta madhiya bugungi kungacha Sharqzamin fol'klar ijrochiligida saqlanib qolmoqda va bular, bugungi kunda Tojikiston, Afg'oniston, Eron va Hindistongacha o'z tillariga o'girib namoish etiladi, Ammo asliy nusxasi faqat Tojikiston va Afg'oniston va Eronda ijro etiladi.

XVI-asr Shoir va Musiqachilari: XVI-asr sheirlari va musiqachilari shuningdek musiqa ilmining bilimdonlaridan Najmiddin Kavkabiy Buxoriy ijodi ilmiy davrlarda katta qiziqish uyg'otadi. Uning "Musiqa haqida risola" si ustoz an'analarini Samarqand va boshqa shaharlarda davom ettirgan shogirdi (Xoji Muhammad, mavlono Rizo Samarqandiy) uchun musiqali poetik qo'llanma bo'lgan edi.

O'zbek xalqining XVI-XIX-asrlardagi musiqa madaniyati XVI-asrning ikkinchi yarmidagi o'zaro urushlar shaharlarning boshlab vayronaga aylanishi, Markaziy Osiyo xalq ommasining qashshoqlanishiga olib keldi.

Bastakor san'ati Ayniqsa XVII-asr mashhur musiqa olimi Darvishali Changiyning "Risolai Musiqiy" asarida keng yoritilgan. Bu asarda juda katta ilmiy tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan faqtlar ipizotlar keltiriladi. Ayniqsa Kavkabiy Buxoriyning musiqa risolalarida kuy va ashula turlari, shakllari masalasiga alohida boblar ajratilgan.

XVII va XVIII-asrlarda fiodal tarqoqlik kuchaydi. Katta feoydal davlat alohida xonliklar Buxoro, Xiva hamda Qoqon xonliklariga bo'linib ketdi. Bunday bo'linish o'zbek xalqining musiqa madaniyatida ham aks etdi. O'zbek

xonlari saroydagi musiqiy hayot asosan Temuriylarning Hirot va Samarqand saroylardagi an'analarni davom ettiradi, ko'pgina shoir va musiqachilar Buxorodagi Shayboniylar saroyiga bir qismi esa Xorazmga ko'chadi. Buxoro va Xorazmning aralash o'zbek va tojik musiqali poetik an'analari yanada taraqqiy topishi anashular bilan izohlanadi.

Kavkabiyning ko'rsatishicha, kuy ashulalar uch xil bo'ladi:

- 1. Alxoni jirmiy (ya'ni, to'liq kuy) musiqa tovushi (Nag'ma), doira usuli (Ritm) va she'r matni qo'shilgan musiqa asari.**
- 2. Alxoni Basitiy (ya'ni oddiy kuy) musiqa asaridagi tovushlar yoki she'rni o'lchovga solib o'qish.**
- 3. Alxoni Xattiy (ya'ni cheklangan kuy) musiqa asaridagi tovushlar, doira usuli va she'rning musiqasi.**

Musiqa asarining bu turlari haqida manbalarda mufassal ma'lumot yo'q.

Shashmaqom taxminan XVIII-asming I-yarimlarida uzul-kesil, tojiku-o'zbek, xalqlarining mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga keldi. Shashmaqomda aytiladigan she'r matnlari orasida XVII-XVIII-asrlarda yashab ijod etgan Bedil, Ro'dakiy, Al-Forobiy, Ibn Sino, Umar Hayyom, Xusrav Dehlaviy, Kavkabiyy, Buxoriy, Davud Ali, Abdulqodir Marog'iy, Pirdavsiy, Manuchexriy, Mashrab, Bayida, Zuhuro, Nozim va boshqalar bo'lganligi kabi ulamo va shoirlarning g'azallaridan foydalanilgan. Ushbu an'ana-dagi ayrim so'zlari Buxoro – Samarqand fol'kloriga o'tib ketgan va Mavrigixonlikning Suxanronlik-Suvanronlik tizimida uchratish mumkin.

Xullas, o'zbek musiqasini XVI-XIX-asrlarda barcha janrlar bo'yicha rivojlandi va keyingi davrdagi takomillashuvi uchun keng asosga ega bo'ldi.

O'zbek musiqa fol'klori namunalarini to'plash va yozib olish tarixida:

1920 yillardan boshlab xalq og'zaki ijodiyotini o'rganish va uni yozib olish alohida o'rinni egalladi. 1919 yilda Turkiston respublikasida badiiy-etnografik komissiya tuzilgandi va bu komissiya hayatida N.Mironov, A.Bekyayev, N. Eyxorn, V.A.Uspenskiy, G'ulom Zafariy, E.Melngaylis, N.Mironovlar kirdilar.

Komissiya o'ziga maqsad qilib birinchi o'rinda «Shashmaqom»-ni va Markaziy Osiyoda yashovchi barcha xalqlar ijodiyotini o'rganishni o'z oldiga qo'ydi.

Milliy musiqa merosini yozib olish va qayta ishlashga doir ishlar 1919 yil dekabrda Turkiston respublikasi maorif Xalq Komissarligi San'at bo'limi qoshida Badiiy-etnografik komissiya tashkil etildi. Komissiyaning dastlabki vazifalaridan biri bo'lib hisoblangan musiqa fol'klorini yozib olish ishning boshqa barcha turlarini ham o'ziga qaratdi, natijada komissiya bir butun, Musiqali-etnografik komissiya deb atala boshladi. G'.Zafariy, N. Mironov, V. Uspenskiy komissiya a'zolari edi.

Ko'rinib turibdiki, xalq kuy va qo'shiqlarini yozib olish bilan bir qatorda ularni qayta ishlash xor va orkestr jamoalariga moslash ishlari ham boshlanadi. 1922 yilda V.A.Uspenskiy va N.N.Mironovlarning birinchi simfonik qayta ishlagan partituralari tinglandi. «Sharq musiqa kechalari» Konsertlarida Mironovning «Turkiston» va Uspenskiyning «Latifa», «Zar kokul» xalq qo'shiqlarini qayta ishlab orkestrga moslaganlari tinglovchilar diqqatini o'ziga jalb etdi.

Uspenskiy bilan bir qatorda o'zbek xalq kuylarini garmoniyalashtirishda boshqa musiqachilar ham o'z kuchlarini sinab ko'rdilar. 20-yillarning oxiriga kelib O'zbekistonda N.N.Mironov rahbarligidagi Samarqand o'zbek Musiqa va Xoreografiya instituti (Ilmuzxoruz) fol'klorshunoslik ishlarining tashkiliy markaziga aylandi.

Institut ilmiy ishlarini natijalari sifatida biz N.N.Mironovning kitobini «O'zbeklar musiqasi» (Samarqand, 1929 yil), «O'zbeklar va boshqa Sharq xalqlarining musiqa madaniyati to'g'risida» (Samarqand, 1930 yil), «Buxoro, Xiva, Farg'ona qo'shiqlari» (Toshkent, 1931 yil) misol keltirishimiz mumkin.

Bular orasida N.Mironovning «Muzika O'zbekov» (1929), «Обзор музыкальных культур Узбеков и других народов Востока» (nota yozuvi M. Ashrafiy, Sh. Ramazonov va T. Sodiqovlarniki, 1931, «Песни Ферганы, Бухари и Хивы» (1931) kitoblari bor edi. Har bir nashr etilgan kitob Mironovning kirish maqolari bilan ochilgan bo'lib, ularning shogirdlari notaga

olgan xalq kuylari to'plamidan iborat edi.

Shuning uchun A.Fitratning 1927 yilda chop etilgan kitobi "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" deb nomlanishi ham bejiz emas.

Fitrat klassik adabiyotning bilimdoni, tadqiqotchisi va targ'ibotchisi edi. U ulug' Turk shoiri Tavfiq Fikrat, qadimiy Turk adabiyoti tadqiqotchisi Muhammad Fuod Ko'pirlizoda, Ismoil Hikmat asarlarini mutolaa qildi, ularga ergashib, 250 bosma toboqqa yaqin ilmiy-hadiiy meros qoldirdi.

Ushbu kitob 1926 yilda yozilgan va 1927 yilda O'zbekiston Davlat nashriyoti tomonidan Samarqandda chop etilgan. U 75 sahifadan iborat bo'lib, eski o'zbek yozuvida bosilgan. Risolaning orqa muqovasida mashhur Bastakor Ota G'iyos Abdulg'aniyevning (1854 -1927) surati bor. Kitobning "Inuqaddima" fasli «O'zbeklarni o'rganish qo'mitasi» tomonidan yozilgan.

Fitrat o'zbek xalq og'zaki ijodi uchun muhim faktlarni topadi: «Turk musiqasining bizda qolgan eng bugungi so'zlari- Baxshi - o'zan qo'buz sozlaridir. «Baxshi so'zining bugungi ma'nosi el «shoir-cholg'uchi»sidir. Xalqda, Hujriy to'qqiz yuzinchi mo'ljulda, (Navoiy zamonida) bu so'z uyg'uncha yozguch kofib ma'nosida ishlatilar edi. Professor Ko'pirlizodaning Haliqxon zamonida yozilgan «Zich ilxonidan ko'chirganiga ko'ra, shaxidlar har oyda uch kun parchez tutib ibodat qilar va belgili yemaklar yerdur. Bu so'zlardan Sharq musiqasi va musiqashunoslarning ibtidoiy madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlarni bilib olishlari mumkin.

O'zbek qo'shiqchiligini o'z funksiyasi va hayotda tutgan o'rniga ko'ra ikki guruhga bo'lish mumkin. **1.Ma'lum vaqt va sharoitda ijro etiladigan qo'shiqlar.** Bunga oilaviy marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari, allalar va har xil tantanalarda ijro etiladigan qo'shiqlar kiradi.

2.Istalgan vaqtda, har qanday sharoitda ijro etiladigan qo'shiqlar. Bularga laparlar, yallalar, ashula qo'shiq, chalgu kuylari, chulama doston qo'shiqlari, aytishuvlar kiradi.

Katta ashulalar, ya'ni SUVANRONLIK SAN'ATI, ashula va qo'shiqlar Fol'klar ijrochiligiga kirmaydi. Ular milliy mumtoz ijrochiligi, an'anaviy va zamonaviy xonandalik tizimiga asoslanadi deyish mumkin.

Folk'lor xalq og'zaki ijodining o'zga xos turi va bugungi kunda alohida ajralgan holda o'z yo'lini zamonaviylik bilan rivojlantirib bormoqda. Unda, Suxanronlik va Suvanronlik bir-birovi bilan uzviy bog'langanligi bilan o'zgaruvchan xarakterga ega. Yuqoridagilardan ancha farqlanadi, chunki ularda Suxanronlik uchramasligi bilan yaqqol ajralib turadi.

Markaziy Osiyo mahalliy uslublari metroritmikasi bir birovidan farqlangan holda o'xshashlik tomonlari ham mavjud. Bu ularning an'anadagi geografik tuzilishi bilan ham bog'liq albatta. Misol tariqasida 5/8, 7/8 o'lchovlarda ijro etishlar aslida Buxoro-Samarqand va Surxandaryo-Tojikiston uslubiga va yana Qoraqalpog'iston, Turkmaniston va Qirg'izlarda qo'llanilib kelingan. Kamdan-kam Qozoqlarda ham uchratiladi. Bugungi kunga kelib faqat Surxandaryo va Buxoro mavrigixonliklari va Fol'klorida uchratish mumkin. Bu esa faktologik nuqtai nazardan olib qaraganda Buxorodan Tojikistonni ajratib, alohida Respublika qilib qo'yilgani va fol'klar ijrochiligining ajralib va ajratib qo'yilganidan dalolat bersada ammo ular o'z mavq'eni yo'qotmasdan kelgani bilan ahamiyatlidir.

Folk'lor xalq og'zaki ijodining o'zga xos turi va bugungi kunda alohida ajralgan holda o'z yo'lini zamonaviylik bilan rivojlantirib bormoqda. Unda, Suxanronlik va Suvanronlik bir-birovi bilan uzviy bog'langanligi bilan o'zgaruvchan xarakterga ega. Yuqoridagilardan ancha farqlanadi, chunki ularda Suxanronlik uchramasligi bilan yaqqol ajralib turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1.Rasmiy nashrlar

1.O'zbekiston prezidenti Shavkat Miramonovich Mirziyoyevning 2017-2021 yillardagi 5- ustuvor strategiyasi hamda 2019 yildagi "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bopsh vaqtini mazmunli tashkil etish bo'yicha 5-ta muhim tashabbus.

2 Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. 2-jild. T.:O'zbekiston, 1996.

2.O'quv-uslubiy adabiyotlar va elektron ta'lim resurslari ro'yxati. Asosiy darslik va o'quv qo'llanmalar

2.1.Akbarov. I.A.Xorazm maqomlari.G'.G'ulom nashriyoti. .Toshkent.1986.

2.2.Asliddin Nizomov. The history and theory of Shashmakom. "Dushanbe".Adib. 2016.

2.3.Abdullayev R.S., Solomonova T.Ye. O'zbek musiqasi tarixidan xrestomatiya. T., 1983.

2.4. Абдуллаев Р.С. Образованная музыка народов Центральной Азии. - Т.: Фан, 1994. - 133 с.

2.5. Априлова О.А. Хрестоматия по методике музыкального воспитания.- М.: Просвещение, 1987. - 180 б.

2.6. Артекувакйа А.У. Arxeologiya asoslari.- T.: o'qituvchi, 1970.- 278 b.

2.7.Визго Т.С. Музыкальные инструменты Средней Азии . М., 1980.

2.8.Ibragimov O. "O'zbek musiqa ijodi". 1990 y.

2.9.Ibragimov O. Maqom va makon. T., 1997.

2.10.История музыки Средной Азии и Казакстана М, 1995.

2.11.Karomatov F.M. Узбекская инструментальная музыка. Наследие. T., 1972.

2.12.Mirzayev.T.Xalq Baxshilartining epik repertuari. "Fan" nashriyoti./ Toshkent-1979.

2.13. Muzaffar Nizomov "Fol'klor qo'shiqlari." /; Toshkent-1999.

2.14. Malik Murod. O'zbek qadriyatları. "Cho'lpon nashriyoti". Toshkent.-2005.

- 2.15. Murodova.D. Shashmaqom an'analari va zamonaviylik / Tuzuvchi va mas'ul muharrir T., 2005.
- 2.16.Matyoqubov O. Og'zaki an'ana'dagi professional muziqa asoslariga kirish. T., 1983.
- 2.17.Matyoqubov O .Buxoro Shashmaqomiga bir nazar./;"Musiqqa nashriyoti." Toshkent.2018.
- 2.18. Matyoqubov O..Maqomot./;"Musiqqa nashriyoti.", Toshkent.2004
- 2.19. O'zbek musiqasi tarixi. T., 1981.
- 2.20.Olimboyeva Q , Axmedov M. O'zbekiston xalq sozandalari.Toshkent 1959.
- 2.21.Olimbayeva Q, Yo'ldoshboyeva,Y. Axmedov M, Mirzayev T. O'zbek xalq sozandalari./,G'G'ulom nomidagi O'zbekiston san'ati va adabiyoti nashiyoti.Toshkent-1974.
- 2.22. Rajabov I. Maqomlar masalasiga doir. T., 1963.
- 2.23. Rajabov I. Maqom asoslari. T., 1992.
- 2.24.Rasultoev J.K. dutor semantiqasi. "Moziydan sado" //I.G'G'ulom nashr.Toshkent,-2001 y.
- 2.25.Saidiy S.B. Buxoro sozgarlik san'ati- "Mahorat ko'zgusi".G' J.Buxoro-1999.y.
- 2.26.Saidiy S.B. Markaziy Osiyo madaniyatida urma cholg'ular (o'zbek va tojik an'analari misolida).Toshkent-2008 yil (SITI-Arxiv).
- 2.27.S.Saidiy.O'zbek Musiqasi tarixi. Darslik.I-II qismlar./ "Musiqqa nashriyoti.". Toshkent-2020.yil.
- 2.28. Toshmatov O', Turatov S. Ko'hna cholg'ular ijrochiligi./;- Toshkent-2006
- 2.29.Jahongirov F., O'zbek bolalar folklori, T., 1975; O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi, T., 1980; Safarov O., O'zbek bolalar poetik folklori, T., 1985.

3.Qo'shimcha adabiyotlar

- 3.1.Safarov O."Fol'klar bebaho Xazina". Buxoro. "Durdona" Nashriyoti.2001.
- 3.2.To'rayev F. Buxoro Shashmaqomi tarixidan. "Musiqqa nashriyoti". Toshkent.2011.

3.3.. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. T., 1993.

3.4.. Qurbonov S. Fol'klor musiqa o'qitush uslubiyoti. Termiz. 2012.

3.5. Yo'ldosheva Saodatxon.Fol'klor etnografik jamoalari uslubiyoti./;Toshkent 2010.

3.6. Yunusov R. Maqom san'ati ustalari. Faxriddin Sodiqov. T., 2005.

3.7.Мамарасулзода З.А. из истории сбора и записи образцов узбекской народной музыки. Вестник интегративной психологии // Журнал для психологов.Вып.21МАПН,2020.–215-217с.

3.8.Мамарасулзода З. Музыкальная память и ее роль в исполнительской деятельности учащегося. /. Музыкальная память и ее роль в исполнительской деятельности учащегося 273-276..

3.9.Zulxumor Mamarasulzoda, Said Saidiy. "Shashmaqom" tarixida ulug' siymolarning ijtimoiy pedagogik qarashlari.Buxoro-Pedagogik mahorat.MS.- 2020.40-bet.

4.Elektron ta'lim resurslari

4.1. www.idpu.uz

4.2. www.pedagog.uz

4.3. www.ziyouz.uz

4.4. www.edu.uz

4.5. idpu-intranet.Ped

ILOVALAR

I. Atamalar lug'ati

A

- Allon - kuy
Aruz - uzun va qisqa bo'g'inlar munosabatiga asoslanuvchi (kvantitativ) she'riy vazn
Ashula - sozandalar shevasida paydo bo'lgan ibora aytim, qo'shiq

B

- Bayoz - she'riy majmua, anatologiya, mumtoz yo'llarda aytiladigan matnlar to'plami
Barmoq - miqdor nisbatlariga asoslangan (kvalitativ) she'r tizimi
Bozg'y - kuy shaklining takrorlanuvchi bo'lagi, naqorat

V

- Vazn - she'riy va musiqiy O'lchov

G

- G'yanda - (f.t. aytuvchi) ilohiy mavzudagi ashulalar ijrochisi

- Davr - sozandalar tilida ijro jarayonining uzluksiz bir bo'lagi

- Dastak - ashulachilarning she'riy daftari, matnlarni esga olish qo'llanmasi

- Doyra - q. advor, (boshi oxiriga ulangan aylana, islom ramziyatida cheksizlik, mukammallik ifodasi)

Yo

- Yopiq tizim - muayyan musiqiy an'analarning muqimlashgan barqaror shakli

J

- Jins - dastlabki lad birikmalari

Z

- Zamzama - yarim ovozda xirgoyi qilish, she'rsiz "o" lab aytish, so'zsiz qo'shiq

- Zarb - urg'u, cholg'ularda tovush manbaini harakatga keltiruvchi kuch; dutor va tanburda o'ng qo'l harakati

- Zarbu-l-qadim - yakka "bum" va "bak" dan iborat birlamchi doira usuli

- Zul arba' - kvarta

- Zul hams - kvinta

I

- Ilmi advor - o'ta asr musiqashunosligida kuy, vazn, she'riyat va amaliy ijroni birlashtiruvchi mushtarak ilm

- Ilmi iyqo - ritm xaqida ta'limot

- Ist - (f.t. topxtash) pauza

Y

Yo'l - kuyning eski nomlaridan biri

K

Kor - musiqiy shakl; Kavkabiylar va Darvesh Ali asarlarida navbati murattabning boshlang'ich qismi

Kuy - tovushlar vositasida ifodaqilingan fikr

Kulliyotiy - muayyan muallif asarlarining toploq majmuasi; musiqiyda mavjud kuy va usullarning umumlashmasi

L

Lang usul - Talqin usulining shevada kelishi, chO'loq usul

M

Manzum - nazm etilgan, tartibga solingan, yaratilgan

Manzuma - kuy va she'rni muvofiqlash san'ati

Mansur - (a. nasr qilingan) sochma tartibdagi asarlar birikmasi

Ma'no - badiiy asarning ichki mazmun-mohiyati

Miyonparda - o'ta parda

Mug'anniy - (a. aytuvchi) qo'shiqchi

N

Navba - (a. ketma-ket keluvchi) turkumli musiqiy asarlar

O

Ochiq tizim - musiqiy an'analarning erkin o'zgaruvchan shakli

Og'ir ufo - ufo turlaridan

P

Parda - cholg'u dastasidagi bog'lamlar; kuy mosini tashkil qiluvchi tovush tizimi; lad

Pashrav - (f.t. oldinda keluvchi) musiqiy shakl; cholg'u kuylarining rivojlanish tamoyillari

R

Risola - sozandalar uchun ilmiy va amaliy qo'llanma

S

Sabo - kuy va sho''ba nomi

Saroy sozandalari - o'tmishda yuksak martabaga erishgan sozandalar

Sozanda - musiqachi

Sukun - (a. tinish) notada jimlik alomati, pauza

T

Tasnif - (a. tartiblashtirilgan) Shashmaqom cholg'u bo'limining boshlang'ich qismi

U

Untoz	- bilim va mahoratda yetuklik timsoli
Unul	- (a. asos) mantiqan tugal vazn birligi, maqom ijrosida doyrada chalinadigan ritmik formula
Ufor	- (a. ifor, xushbopy) maqom turkumlarining ko'tarinki kayfiyatdagi bo'lagi
Ushshoq	- (a. oshiq) kuy va sho''ba nomi
F	
Fosila	- aruz vaznining dastlabki elementlaridan biri
X	
Xonanda	- aytuvchi
Ch	
Chapandoz	- (f.t. andoza teskari) talqin usulida birinchi zarbga so'z o'qilishi, talqin usulining teskari ko'rinishi
Chertim yo'li	- Xorazm maqomlarida cholg'u kuylarining umumiy nomi
Chorzarb	- zikr usullari va ashula yo'li
Choki giribon	- Xorazm dutor maqomlarining mazkur nomdagi turkumi
Sh	
Sho''ba	- (a. bo'lim) maqom ichidagimaqomlar
E	
El sozandalari	- ma'muliy uslub vakillari
Ya	
Yakka zarb	- bir yo'nalishdagi zarblarning muntazam takrorlanishi
O'	
O'n ikki maqom	- jamlar tizimining mayyan kategoriyasi
Q	
Qashqarcha	- Savt va Mug'ulcha turkumlarining tarkibiy qismi va usullari
Qo'sh zarb	- bir yo'nalishdagi ikki zarbning ketma-ket kelishi
G'	
G'azal	- (a. ishq ifodasi) sharqda keng tarqalgan she'r shakli; navbati murattab turkumining tarkibiy qismi
H	
Hang	- ohang, ashula yo'llarida so'zsiz aytiladigan lavhalar
Hafif	- (a. yengil) saqilga muqobil usul va unga muvofiq kuy nomi

2. GLOSSARIY

Fol'klar - "Fol'klar" atamasi aslida "fol'k" - xalq va "lore" - donolik so'zlaridan yasalgan bo'lib, «xalq donoligi, xalq donishmandligi» mahnatini anglatadi. Uni birinchi marta 1846 yilda Vilg'yan Toms ilmiy istiloh sifatida qo'rilgan. Shundan boshlab bu istiloh xalqaro miqyosda ilmiy taomilda o'zlashgan. Bu atama keng mahnoda xalq ijodining barcha sohalarini - xalq poeziyasi, xalq nashi, musiqasi, raqsi, rassomlik, o'ymakorlik, diniy ehtiqodi va odatlarni ifodalaydi.

O'zbek fol'klorshunosligi tarixida «fol'klar» istilohi nisbatan keyinroq ilmiy iste'molga kirdi. U dastlab «el adabiyoti», «og'zaki adabiyot», «og'zaki ijod» tarzida qo'rilanildi. 1935 yilda X.Zarif va SH.Rajabiyarning «O'zbek sovet fol'klaridan namunalar» kitobi bosilib chiqqandan keyin mazkur istilohni qo'rilash taomilga kira boshladi va asta-sekin o'zbek fol'klori tushunchasi zaminida o'zbek xalq og'zaki poetik ijodi tushuniladigan bo'ldi. Hodi Zarifning oliy o'quv yurtlari uchun tuzgan ikki jildlik «O'zbek fol'klori» (1939 va 1941 y.) xrestomatiyasi nashir etilgach, u yanada barqurorlashdi. Fol'klorning fan sifatida o'rnatilish harakati dastlab Angliya universitetlarida XVIII asrning ikkinchi yarmida boshlangan edi. Rossiyada esa F.N.Buslaev va uning shogirdlari A.N.Veselovskiy, N.I.Storojenkolar tashabbusi bilan 1863 yilda Moskva va Sankt-Peterburg universitetlarida «Umumiy adabiyot tarixi» nomi ostida bir qancha fol'klorni o'qitish yo'liga qo'ryildi. O'zbek fol'klarini o'rqitish tashabbusi esa XX asrning 30- yillari o'talaridagina amalga oshdi.

Musiqai fol'klori - xalq musiqasi tushunchasini ifodalaydi.

Xalq raqsi - xalq xoreografiyasi (grekcha choreuo - xor jo'rtligida raqsga tushmoq va raqsho - raqs harakatlarini maxsus belgilarda yozib olish) deb yuritiladi.

Fol'klar asarlarining sinkretiklik xususiyati - fol'klorning ayrim janrlarida so'z va kuy omuxtaligi yetakchi bo'lsa, ayrimlarida sahna san'ati unsurlari ustun turadi. Fol'klar namunalari ijrosi xilma-xil san'at turlariga xos unsurlarni o'zida

mujassamlashtirgan. Uning talay namunalari soʻz va kuy uygʻunligida ijro etiladi. CHunonchi, doston va termalarni doʻrmbira joʻrlligida kuylash anʻanaviy boʻlsa, qoʻshiq dutor, childirma joʻrligida kuylanadi. Aksariyat folʻklor asarlarida soʻz yetakchi oʻrinni egallaydi. Ertak, afsona, naql, rivoyat, latifa, maqol va topishmoq janrlari shunday harakterga ega. Xalq ertaklarida, xalq dramasida harakat va mimika muhim qimmat kasb etadi. Biroq koʻpgina asarlar ijrosida kuy gʻoyaviy-badiiy mazmuni ifodalashda bir qadar qimmat kasb etsa-da, baribir soʻz mazmunini ochuvchi asosiy vosita boʻlib qolaveradi. Bu folʻklorning soʻz sanʻati sifatidagi mohiyatini toʻla-toʻkis tasdiqlaydi.

Folʻklor ijodkori –folʻklor ijodkori xalq ommasi. Folʻklor qabila, urugʻ, elat, xalq yoki millatning mafkurasi va psixologiyasini aks ettiradi. Ibtidoiy jamiyatda folʻklor hayot bilan mustaqil kurash vositasiga aylanib shakllandi. Xayolga erk berish zamirida ibtidoiy odamda estetik tuygʻu shakllana bordi, goʻzallikni tushunish va anglash teranlashdi va shular zaminida xalq ogʻzaki ijodiyotining dastlabki namunalari yuzaga keldi. Mehnat jarayoni, ijtimoiy taraqqiyot tufayli mehnatning turli tarmoqlarga taqsimlanishi esa, oʻz navbatida, soʻz sanʻatini ham shaklan, ham mazmunan xilma-xil harakter kasb etishini taʻminladi. Mazlum omma hayot haqidagi tushunchalarini, ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy, badiiy-estetik, diniy-axloqiy qarashlarini ifoda etish bilan folʻklor asarlarining gʻoyaviy mazmundorlik jihatidan xalqchilligini taʻminladi.

Folʻklorda ilgʻor gʻoyaviylik—folʻklorda ilgʻor gʻoyaviylik folʻklor xalqchilligi negiziga aylandi. Xalq ogʻzaki ijodi namunalarida aks etgan ijtimoiy-tarixiy voqealar hamisha oddiy mehnat kishilari - umumxalq manfaatlari nuqtai nazaridan baholanadi. Folʻklorda mehnat kishisi hamisha gʻolib, magʻlublikni bilmaydi. Folʻklorda xalq oʻtmishimizni yengilmas qudratga ega nafasat darajasiga koʻtarilgan.

Folʻklorda tasviriy vositalar va badiiyat - folʻklor qadimiy soʻz sanʻati sifatida nafaqat chuqur gʻoyaviyligi, balki yuksak badiiyliigi bilan ham ajralib turadi. Unda voqelikni ifodalashning doston, ertak, maqol qoʻshiq, topishmoq, afsona, rivoyat va askiya singari xilma-xil janrlari shakllangan. Xalq

ijodiyotining voqelikni badiiy umumlashtirish oyin (prinsi)larida, shuningdek, bir qator kompozitsion usul (priyom)larida, chunonchi, syujet va uning uzvlari, obrazlilik, tasviriy vositalarida talay o'ziga xosliklar mavjud.

Fol'klorda tasvirlangan voqelik vaqt (zamon) ehtiboriga ko'ra o'tmishga daxldor, shu sababli u yoki bu janr tabiatida, shuningdek, til xususiyatlarida o'rsha qadimiy izlargina saqlanib qolgan. Buni badik, kinna, olqish va qatg'ishlarda ibtidoiy ajdodlarimizning so'z magik qudratiga sig'inganlari, shuningdek, fol'klor namunalari tilida arxaik ifodalar va dialektizmlarning farovonligi yaqqol tasdiqlaydi.

Fol'klor –jamo (kollektiv) *ijodi* - fol'klor asarini aniq ijodkorga nisbat berib bo'lmaydi. Ularning yaratilishi 'aytini ham aniq ko'rsatishning imkoni yo'q. Chunki fol'klor asari uzoq muddatli ijodiy jarayonda og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga, ustozdan – shogirdga o'tib yuzaga keladi va yashaydi.

Fol'klorda anonimlik - fol'klor asarlari muallifining noaniqligi – anonimligi (grek anonimis-nohmalum) o'rsha asarning qachonlardir individual ijodkor tomonidan yaratilganligini inkor etmaydi. Badiiy adabiyot namunasining muallifi ham, yozilgan vaqti ham ma'lum bo'ladi. V.G.Belinskiy aytganidek, fol'klorda anonimlik nomlar yo'q, uning muallifi hamisha xalqdir. Uning mavqimni xalq yoki qabila ichki va tashqi hayotining jimjimalarsiz va aniq tasvirlangan oddiy va soddagina qo'shiqlarini kim topqiganini hech kim bilmaydi, va bu qo'shiq urug'dan – urug'ga, avloddan-avlodga o'tadi; va vaqtlar o'tishi bilan o'zgarib boradi; goh uni qisqartirishsa, goh uzaytirishadi, goh yangidan topqishadi, goh unga boshqa qo'shiqni ulashsa, goh unga qo'shimcha qilib boshqa bir qo'shiqni topqishadi – shunda qo'shiqdan doston chiqadi. Faqat xalq unga o'zini muallif sanay oladi. Xullas, fol'klor asarlari qachonlardir noma'lum shaxs (individ) tomonidan topqilsa-da, og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tish jarayonida jamoa (kollektiv) ijodkorligi namunasiga aylanadi; jamoa ijodiy salohiyatidan topqilib, mukammallashib, g'oyaviy-badiiy kamolot kasb eta boradi. Fol'klor qadim zamonlarda jamoaning

ommaviy ijodi sifatida yuzaga kelgan edi. Ilk namunalariyoq hamrabop va ommabop topriqlan bo'lib, uning ijrosiga mo'ljallangan.

Fol'klorda og'zakilik - og'zakilik – xalq ijodining yashash va yaratilish tarzi. Chunki u hali yozuv kashf qilinmagan uzoq o'tmishdagi ajdodlarimiz turish-turmushining, dunyoqarashi va ehtiyoqining, kurashlardagi zafari va mag'lubiyatlarining ifodachisi sifatida yuzaga kelgan. A.A.Potebnya fikricha, fol'klar «xotira manbaidan», aniqrog'i, xotiraning og'izdan-og'izga o'tib yurish inertsiasidan tug'iladi. Uningcha, «xotira manbai» - bir yoki bir qancha kishilarning shunchaki tushunchasi bo'lmay, balki butun bir xalqning duv-duv gapi, mish-mishi, og'zaki fikridir.

Aytaylik, biror tarixiy dalilning unutilishi tufayli asardan tushirilib qoldirilishi mumkin. Yoki dostonidagi qo'shiq qismining unutilishi oqibatida u ertak shaklida yashashi mumkin. Yohud aksincha. Ertak dostoniga o'ib chiqishi ham mumkin. Bular og'zakilikning jonli harakatidagi jarayoni sifatida fol'klorning yashash tarziga xos belgilari sanaladi. Zotan, fol'klar og'izdan-og'izga o'tib yashasa, badiiy adabiyot yozuv vositasida yashaydi. Fol'klar asari og'zaki aytiladi (ertak, maqol, topishmoq, rivoyat, afsona, latifa, naql va boshqalar), ijro etiladi (doston, og'zaki drama, lof, askiya va boshqalar), kuylanadi (qo'shiq). Badiiy adabiyot esa faqat o'riqladi, ijrosiga xos xususiyatlar esa fol'klordan ijodiy o'zlashtirilgan.

Fol'klar asari og'izdan-og'izga o'tishi tufayli shaklan va mazmunan qanaqa o'zgarishga uchramasin, bu hol uning g'oyaviy – badiiy, ijtimoiy-estetik qimmatini tushirmaydi. Chunki unda ijodkor xalqning voqelikka munosabati aks etgan. Fol'klar asarlarining og'izdan-og'izga o'tib, uzoq asrlar davomida yashab kelayotganining asosiy sababi shunda.

Fol'klorda an'anaviylik - o'ziga xos xususiyatlardan bo'lib, uning g'oyaviy – estetik mohiyatini belgilaydi. An'anaviylik xalq ijodida u yoki bu asar matnining og'izdan-og'izga o'tishi jarayonida nisbatan barqarorliknigina anglatib qolmay, balki o'rsha asarning avloddan-avlodga o'tish jarayonida

dastlabki ijrosiga xos xususiyatlarni, kuyi va shaklini, ifodaviy vositalari va qahramonlarini nisbatan o'zgarmagan holda saqlab qolganligini ham anglatadi.

Fol'klorda variantlilik - xalq ijodiyoti namunalari jonli ijro jarayonida xilma - xil variantlardagina yashaydi. Variantlik - fol'klorning jonli yashash tarzi. Variant - ma'lum bir asarning jonli og'zaki epik an'ana zaminida vujudga kelgan, bir-birini inkor etmasdan yonma-yon yashay oladigan va o'zaro faqlanuvchi turli-tuman matnlaridir. CHunonchi, «Alpomish» dostonining yigirma sakkiz dostonchidan yozib olingan o'ttiz uchta topriqliq, 'archa va mazmunidan iborat variantlari mavjud.

Variantlikning muhim xususiyati versiya ichida harakat qilishidir.

Versiya - versiya mohiyatan ancha keng hodisa bo'lib, "kompozitsion va g'oyaviy-badiiy tasvir vositalari jihatidan bir-biridan 'rintsi'ial ravishda keskin farq qiluvchi xalq og'zaki poetik ijodining bir syujet va janrdagi namunalaridan tashkil topadi. CHunonchi, «Alpomish» dostonining o'zbek, qoraqalpoq, qozoq va boshqa xalqlarga mansub versiyalri kabi. Gohida birgina doston birgina xalqning o'zida ham ikki va undan ortiq versiyaga ega bo'lishi mumkin. Masalan, «Alpomish», «SHirin bilan SHakar» va «Solubqiron» dostonlari o'zbek xalqi orasida ikki versiyada tarqalgan.

Fol'klorshunoslik (fol'kloristika) - fol'klar haqidagi fan bo'lib, xalq og'zaki badiiy ijodiyotining so'z san'ati tarzidagi xususiyatlarini: fol'klorning paydo bo'lishi, shakllanishi va tarqiqiyot bosqichlarini, undagi ijodiy jarayon va yashash tarzi qonuniyatlarini, hayotiy mazmuni, ijtimoiy tabiati, g'oyaviy mohiyati, badiiy o'ziga xosligi, janrlarining spetsifikasi, shuningdek, yozma adabiyot bilan munosabati - o'zaro ta'siri va aloqalari masalalaridan bahs yuritadi.

Marosim - bu ko'pincha an'ana va urf-odatning tarkibiy qismi bo'lib, asosan, rasmiy va ruhiy ko'tarinkilik vaziyatida o'tadi, o'zining umum qabul qilgan ramziy harakatlariga ega bo'ladi. Masalan, aqiqa - ism qo'ryish marosimi, nikohdan o'tish marosimi, dafn qilish marosimi, xotirlash marosimi,

ekishga kirishish (urug' qadash) marosimi, o'rimga kirishish marosimi va hokazolar.

Lapar - o'zbek to'p'ry marosimi fol'klori namunalari orasida lapar alohida o'rin egallaydi. Laparlar boshqa qo'shiqlardan voqebandligi, raqsbo'p kuyga ega bo'lishi hamda dialog shaklida ikki qo'shiqchi tomonidan ijro etilishi bilan ajralib turadi.

Yor-yorlar - kelinni kuyovnikiga kuzatib borish qo'shiqlari.

O'lan - «Yor-yor»lar rivojidadagi dastlabki bosqichni tashkil etadi. O'lanlar faqat to'p'rylarda emas, turli yig'in marosimlarida ham aytilgan. O'lan aytishi ko'proq ko'chmanchi chorvadorlar orasida kengroq tarqalgan bo'lib, ular tarafma -taraf aytishuv sifatida kuylangan. «O'lan» aslida «ulang» so'zining «O'lan va O'lan» shakllaridagi fonetik o'zgarishi tufayli yuzaga kelgan bo'lib, kelin (qiz) va kuyov (yigit)ni bir-birlariga ma'naviy jihatdan bog'lash, ulash maqsadini ifodalovchi ma'noga ega.

«**Kelin O'tirsin**» marosimida o'ziga xos badiiy tizimga ega bo'lgan, odatda, barmoq vaznining yengil va o'ynoqi uslubida yaratilgan, olqishga xos motiv yetakchilik qilgan «Kelin o'tirsin» badihalari kuylanadi. «Kelin o'tirsin» aytimlarining nasriy ko'rinishi ham keng tarqalgan. Buxoro va Samarqandda «Xush omaded» («Xush kelibsiz»), «Ta'rifi duxtar» («Qiz ta'rifi») singari aytimlarda kelinni ta'rifu tavsiflash, uning fazilatlarini mad'h etish motivi yetakchilik qiladi.

«**Kuyov o'tirsin**» marosimi kuyovning kelinnikiga ilk bor kelishi munosabati bilan o'tkazilgan. U orqali kuyovning kelin xonadoniga qo'ygan ilk qutlug' qadami sharaflangan. Kuyov ustidan turli sochqilar sochilib, «Kuyov o'tirsin» aytimi ijro etilgan. «Kuyov o'tirsin» aytimlarida kuyov tahrifini kelitirishga alohida diqqat qilingan. Uning o'tirishi uchun qaynona bor bisotini, hatto jonidan ortiq dilbandini nisor etajagini izhor etgan.

Yig'ilar o'lim yuz bergandagi hayotiy sabab, ruhiy ehtiyoj tufayli ijro etiladi. Boshqa vaqtda uni kuylash irim qilinadi.

Yo'riqlovlar - yetti, yigirma, qirq, yil marosimlarida, shuningdek,

Navro'z va Ramazon hayitlarida, odatda marhumning xotirasini eslab, yod etib, bahzan yig'lab, bahzan faqat nola qilib yoki sekin sog'inch va armon ohanglarida kuylanadigan motam aytimlaridir.

Motam allalari ikki xil bo'ladi: ulardan biri chaqaloq va go'daklar o'limida kuylanib, bolaning dunyodan To'ymay borayotganini, buning esa ota-onasi qalbida armon bo'lib botayotganligini ta'kidlash maqsadida kuylanadi.

Motam yor-yorlari balog'atga yetib, turmush ko'rmay, dillarga chuqur armon solib bu dunyoni tark etgan bokira, bopry yetgan qiz-yigitlar O'lganda kuylangan. Ularni ham professional yig'ichilar kuylaydi.

Sog'im qo'shiqlari - sigir, qo'y, echki, biya, tuya singari hayvonlarni iydinshga xizmat qiluvchi *sog'im qo'shiqlari* deyiladi.

«*Ho'sh-ho'sh*»lar – sigir sog'ishda kuylanadigan qo'shiqlar.

«*Turey-turey*»lar – qo'y sog'ishda kuylanadigan xalq qo'shiqlari.

«*CHuriyalar*» yoki «*churey-churey*»lar - echkilarni sog'ish yoki uloqlarni emizish paytida ijro etilgan.

Qo'sh qo'shiqlari - qo'sh haydash paytida ijro etiladigan qo'shiqlar **qo'sh qo'shiqlari** deyiladi. Ularda qo'rishchi yoki qo'rishga qo'shilgan ho'kiz tilidan og'ir mehnatdan qilingan shikoyat yoxud ish hayvoniga murojaat motivlari yetakchilik qiladi. Qo'sh qo'shiqlarida ko'pincha uchta an'anaviy obraz ko'zga tashlanadi. Ular: zalim boy, mehnatkash, qashshoq dehqon hamda ezilgan, jabrlangan ho'kiz obrazlaridir.

O'rim qo'shiqlari—dehqon mehnatining samarasi yuzaga chiqayotgan o'rim lahjalarida kuylanadi

Yanchiq qo'shiqlari yoki ho'p –maydalar. Bu turkumga kiruvchi mehnat qo'shiqlari xalq o'tasida «*Ho'p qo'shiqlari*», «*Maydalar*», «*Ho'p maydalar*» yoki «*Maydagul*» deb yuritiladi. Ularni o'rilgan donni xirmon qilib yanchayotganda, mungli baland ovoz bilan cho'zib ijro qiladilar.

Yorg'ichoq qo'shiqlari - yorg'ichoq qo'l tegirmoni bo'lib, u suv va shamol tegirmonlari kashf etilmasdan oldin paydo bo'lgan. Uni qo'l yordamida

aylantirganlar. Yorg'ichoq aylantirish-og'ir va unumsiz ish. Bu ishni, asosan, ayollar bajarishgan. SHu sababli yorg'ichoq qo'shiqlarining ijodkorlari ham ayollar hisoblanadilar.

Charx qo'shiqlari topquvchilik qo'shiqlari silsilasida keng tarqalgan bo'lib, ularda i' yig'irish quroli bo'lgan charxning tavsifi, charx yigirishning mashaqqati, charx yigirma, tirikchilikning o'tmay qolishi, charx yigiruvchi ayolning o'z mehnati samarasidan bahramand bo'p'lish orzusi, zolini er va qaynonadan, ko'pincha kundoshlikdan nolish motivlari kuylanadi.

Bo'zchi qo'shiqlari - bo'z to'qish nihoyatda qiyin yumush bo'lgan. Bo'z to'qish uchun kecha-kunduz dastgohlar oldidan jilmay ishlashga to'g'ri kelgan. SHunday qiyinchilikni yengish, charchoqni unutish maqsadida bo'zchilar ko'plab qo'shiqlar yaratganlar. Bunday qo'shiqlarni bo'zchi qo'shiqlari deb yuritishgan.

Urchuq qo'shiqlari - bunday qo'shiqlarda urchuqda i' yigirish mehnatining badiiy tavsifi berilgan.

O'rmak qo'shiqlari - xalqimiz orasida keng tarqalgan hunarlardan biri gilam, sholcha topish, ya'ni o'rmak o'rishdir. SHu jarayonda ijro etilgan qo'shiqlar o'rmak qo'shiqlari deb yuritiladi.

Kashtachilik qo'shiqlari kashta tikish jarayonida kuylanadigan xalq qo'shiqlaridir. Kashtachilikning bir necha turlari mavjud. *Bular bosma, jimalay, sanama, ilma* deb yuritiladi.

Sarboz qo'shiqlarida o'tmishdagi amirlik navkarlarining nojo'ya hatti-harakatlaridan norozilik kayfiyati kuylanadi.

Lirik qo'shiqlar - asosiy mazmunini ishq-muhabbat motivlari, insonning ruhiy olami va ichki kechinmalarini tasvirlash tashkil etadi.

An'anaviy qo'shiqlar - uzoq o'tmishdan to hozirgacha og'izdan - og'izga, av- loddan-avlodga o'tib kelayotgan qo'shiqlar.

Yangi qo'shiqlar - sevgi va vafu mavzusi mamlakat, xalq hayotida yuz berayotgan o'zgarishlarga bog'lab talqin etilgan zamonaviy qo'shiqlardir.

Tarixiy qo'shiqlar - O'zbek xalq poeziyasining alohida turkumini tashkil etadi. Bu turkumga kiruvchi qo'shiqlar juda qadimiy bo'lib, ularda tarixiy-siyosiy voqea-hodisalar, real shaxslar faoliyati lirik-epik yo'rnalishda taqdim etiladi. SHu tufayli ular tarixiy qo'shiq atamasi bilan yuritiladi.

Terma - «Terma» so'zi lug'aviy jihatdan «termoq» ma'nosini anglatgan, istilohiy ma'noda *terib ayimok, tanlab termoq* ma'nolarida bo'lib, xalq qo'shiqlari silsilasidagi mavzu mohiyatiga ko'ra bir – birini to'ldiradigan uchlik, to'rtlik, beshlik va oltilikdan iborat bandlarni kompozitsion jihatdan bir tizimga yaxlitlashtirish asosidagi lirik yoxud xalq dostonlari ijrosi oldidan baxshining o'z repertuariga poetik ekskurs qilishi asnosida badihatan tug'ilgan biografik yoki avtobiografik, ayrim hollarda didaktik harakterdagi epik qo'shiq namunasi.

An'anaviy termalar - o'tmish voqealariga munosabat, doston qahramonlari geografiyasi, xalqning ahloqiy qarashlari ko'pincha tarannum etiladi.

Zamonaviy termalarda - yangicha turmush voqeliklari, unga baxshining munosabati kuylanadi.

«Nima aytay» termalari - doston tanlash va tinglovchilarni uni tinglashga tayyorlash maqsadida kuylanadigan termalardan biri. Bular eng ko'p tarqalgan termalar bo'lib, uzun- qisqaligi baxshi dostonchilik re'ertuarining hajmiga bog'liqdir. Chunki uni kuylash jarayonida baxshi o'z repertuarini bayon etadi, muayyan doston va uning qahramoni faoliyatiga xos qiziqarli o'rinlarni tinglovchilar yodiga tushiradi.

Avtobiografik termalar -tinglovchilarni doston tinglashga tayyorlash maqsadida kuylanadigan termalardan biri. «Do'mbiram», «Dutorim», «Kunlarim» kabilar bularning yorqin namunalaridir.

Biografik termalar – xalq dostonlari qahramonlarining tilidan aytilgan yoki ularning maqtoviga bag'ishlangan termalardir. Keksa Go'r o'g'li tilidan aytilgan «Kunlarim» termasi bunga misol bo'la oladi.

Didaktik termalar - yaxshilik, adolat, mardlik, to'g'rilik, insoniylik kabi oliy ahloqiy fazilatlarni tarannum etishga, ba'zi kimsalarda uchraydigan qo'rqqoqlik,

buxillik, hasadgo'ylik, pastkashlik, dangasalik kabi kirdikorlarni qoralashga qaratilgan termalar bunga misol bo'ladi.

Rivoyatlar – voqelikni hayotiy uydirmalar asosida aks ettiruvchi, syujet tizimida mifologik obrazlar uchramaydigan, voqelik talqini hududiy –etnografik lokallik kasb etishi bilan harakterlanadigan, qadimiy asoslarga ega bo'lgan, xalq orasida keng ommalashgan fol'klor janridir. Ularda hayot voqeligi real aks ettiriladi. SHuning uchun “O'zbek xalq og'zaki ijodi”ning qadimiy, an'anaviy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo'lgan va hayotiy voqelikni hayotiy uydirmalar orqali bayon etadigan, biror ma'lumot haqida tinglovchiga xabar berish maqsadida hikoya qilinadigan og'zaki nasriy asarlar **rivoyat deyiladi**.

Toponimik rivoyatlar – joy nomlarining kelib chiqishi haqida yaratilgan og'zaki hikoyalardir. Ularda muayyan jug'rofiy atamaning paydo bo'lishi aniq faktlar va etnofol'kloriy detallar bilan tushuntiriladi, joy nomining vujudga kelish sababi izohlanadi.

Tarixiy rivoyatlar - ularda haqiqatda hayotda bo'lib o'tgan voqealar, yashab o'tgan shaxslar topog'risida so'z yuritiladi. Atoqli va mashhur shaxslarning hayoti va faoliyatini hikoya qilish orqali axloq va odobning ideal normalari tashviq etiladi. Jumladan, To'maris, SHiroq kabi vatan'arvarlar, Ibn Sino kabi buyuk tabib, Ulug'bek, Alisher Navoiy kabi olim va shoirlar, Mashrab singari ilohiy ishq yo'rliga kirgan oshiq, Amir Temur kabi jasoratli va dono hukmdor, Imom Ismoil Buxoriy, xoja Ahmad Yassaviy, Abduxoliq G'ijduvoni, Bahouddin Naqshband, Najmiddin Kubro, Xoja Ahrori Valiy singari din va tasavvuf arboblari haqida yaratilgan rivoyatlar bunga misol bo'ladi. Tarixiy rivoyatlar ko'pincha u yoki bu shaxsni ko'rgan-bilganlarning yoki biror tarixiy voqeaning guvohi bo'lganlarning xotira-esdaliklari asosida yaratiladi.

Naql - “naql” atamasi Yaqin va O'ta SHarq xalqlari orasida “Zarbulmasal” deb yuritilgan. K.Imomov esa uni matal deb ataydi. “Naql” asli arabcha so'z bo'lib, joydan joyga eltmoq, biror ertak, voqea, maqol, xabarlarni so'zlab bermoq, naql qilmoq mahnolarini anglatadi. Naql – O'zbek xalq og'zaki ijodida

alohida, mustaqil, keng tarqalgan janrlardan biri. Uning namunalari og'zaki nasrning kattagina qismini tashkil etadi. Turmushdagi turli narsa va hodisalarni izohlashga qaratilgan axloqiy-didaktik mazmundagi, ramz va majozga asoslanuvchi kichik og'zaki hikoyalar **naql** deb yuritiladi.

Sinkretik naqlar - ertak, afsona, rivoyat, maqol, matal kabi fol'klor janrlarining bir-biriga ta'siri natijasida kelib chiqqan bo'lib, ularga xos an'anaviy xususiyatlarni o'ziga singdirib olgandir. Ularning hajmi yirik, syujet tuzilishi murakkab bo'ladi. Ularda an'anaviy obrazlar ko'r'chilikni tashkil etadi. Syujet voqealari hayotiy uydirmaga asoslanadi.

Sof naqlar - hayotiy voqealar, axloqiy tushunchalar asosida yaratiladi. "Ikki qarg'a", "Kiyik bilan tulki", "Odam bilan odam tirik" kabi naqlar sof naqlar sirasiga kiradi. Ularda naql ikkita bir-biriga qarshi tushunchalar- majoziy obrazlar xatti-harakati misolida aks ettiriladi. Sof naqlar syujeti qisqa, sodda bo'ladi. Ular mazmunan lo'rndaligi, majozga asoslanishi, ishonchliligi bilan ajralib turadi.

Doston- o'zbek fol'klorining keng tarqalgan va yirik janrlaridan biridir. «Doston» so'zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi. Adabiy utama sifatida u xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyotidagi yirik hajmli epik asarlarni anglatadi. Biroq yozma va og'zaki adabiyotdagi dostonlar hayotni tasvirlash vositalari va usullari jihatidan bir-birlaridan jiddiy farq qiladi.

Baxshilar- xalq og'zaki ijodining yuksak professional san'at turi — doston va dostonchilikning paydo bo'lishi, taraqqiyoti baxshilar nomi bilan bog'liqdir. H. T. Zarifovning yozishicha, baxshi mo'g'ulcha va buryatcha *baxsha*, *bag'sha* so'zlaridan olingan bo'lib, *ustod*, *ma'rifatchi* degan ma'nolarni beradi. O'zbeklarda baxshi- keng mahnoda xalq dostonlarini kuylovchi, yodda saqlovchi va nasldan naslga o'tkazuvchi san'atkor. Xalq orasida baxshi so'zi turli harakterdagi ikki vazifani bajaruvchi shaxsga nisbatan qo'llangan. Ko'pchilik yerlarda professional dostonchi, ayrim joylarda afsungarlik, folbinlik, shamanlik qiluvchi shaxsga nisbatan ishlatilgan. Uzoq o'tmishda bu

ikki vazifani bir shaxs bajargan. Keyinchalik esa, kasbda muayyan ajralish yuzaga kelgan. Ko'pchilik yerlarda esa, ikkinchi vazifani bajaruvchi shaxs qushnoch, duохон, kinnachi kabi turli-tuman so'zlar bilan ifodalanadi.

Xalfalar - Xorazmda epik asarlarni, ulardan olingan parchalar va ayrim termalarni kuylovchi ijodkorlardir Xalfachilik, asosan, ayollar orasida keng tarqalgai. Xalfachilik san'ati ikki xil: a) ansamblli xalfalar; b) yakka xalfalar. Ular mahalliy xalqning barcha to'y-hashamlarida, turli marosimlarda, ayollar yig'inlari va bayramlarda qatnashadilar, topry va marosimlarni boshqaradilar. Xalfachilik ayollar san'ati sifatida Xorazm vohasida shu kunlarda ham keng davom etmoqda.

Ansamblli xalfalar- uch kishidan iborat. Ya'ni ustoz xalfa (ayni vaqtda garmon chaladi va ashula aytadi), doirachi (ashulaga jo'rr bo'ladi, ba'zan raqsga tushadi) va o'yinchilar (raqsga tushadi, qayroq bilan o'rynaydi, yalla va Lapar aytadi, ba'zan doira chaladi) birlashib, ansamblni tashkil etadilar. Bu tip xalfalar xalq dostonlarini, ulardan olingan parchalarni, topry qo'shiqlarini, Lapar va yallalarni, o'zlari yaratgan yoki boshqa ijodkorlar asarlarini garmon va doira jo'rlligida kuylaydilar. Bibi shoira, Xonimjon xalfa, Ojiza, Onajon Safarova, Nazira Sobirova qabilar shunday xalfalardandir.

Yakka xalfalar- doston va qo'shiqlarni sozsiz ijro etadilar. Ular dostonlarni yoddan yoki qo'rlyozma va kitobdan yoqimli ohangda o'rqish, «Yor-yor», «Kelin salom», «Muborak» kabi topry qo'shiqlarini ijro etish bilan shuhrat qozonganlar. Roziya Matniyozov qizi, Saodat Xudoyberganova, poshs'ho Saidmamat qizi, Ambarjon Ro'zimetova, Anorjon Razzoqova qabilar yakka holda xalfachilik qilganlar.

Qissaxonlar- xalq dostonlarining qayta ishlangan nusxalarini, qiziqarli tarjima hikoyalarni, mumtoz adabiyot namunalaridan «fol'klorlashtirilgan» variantlarni, turli xil jangnomalarni choyxonalarda, turli yig'inlarda, xalq topr'langan joylarda yodaki aytganlar yoki qo'lyozma va bosma matn asosida o'zlariga xos ohangda o'rqiganlar. Qissaxonlar «Rustami Doston», «Tohir va Zuhra», «Hikoyati G'o'r o'g'li sulton», «Bahrom va Gulandom» kabi dunyoviy

qissalarni ijro etish bilan birga, ko'proq diniy mazmundagi asarlarni ham o'qib yurganlar.

Dostonchi- O'tgan asrda ikki yuzdan ortiqroq dostonchi aniqlangan va ro'yxatga olingan. Ulardan Jumanbulbul, Jossoq, Boprron shoir, Jolmon baxshi, Sulton kampir, Tilla kam'ir, Xonimjon xalfa, Bibi shoira, Suyav baxshi, Amin baxshi, Yo'rdoshbulbul, Sultonmurod, Qurbonbek, Xidir shoir, Yo'ldosh shoir, Suyar shoir. SHerna yuzboshi, Haybat soqilar xalq orasida shuhrat qozongan. Ergash Jumanbulbul o'g'li, Fozil Yo'ldosh o'g'li, Po'lkari shoir, Islom Nazar o'g'li, Umir shoir, Abdulla shoir, Xolyor Abdukarim o'g'li kabi yetuk shoirlar baxshichilikdagi juda boy an'analar asosida muhim voqealarni tasvirlovchi yigirmaadan ortiq yangi dostonlar yaratdilar.

Baxshi repertuari- baxshi o'zlashtirgan va ijodiy tarzda kuylab kelgan barcha asarlar uning re'ertuarini tashkil etadi.

Do'rmira topin tarmoq - doston kuylash juda ham qiziqarli o'ringa, avj pardalarga yetganda, yarim tunda dam olish uchun tanaffus ehlou qilinishi lahzasini baxshilar «do'rmira topintarmoq» deb aytadilar.

Dostonchilik maktablari- har bir dostonchi yoki dostonchilar guruhi o'ziga xos poetik yo'li, uslubi bilan bir-birlaridan farq qiladi. Boshqacha qilib aytganda, umumlashgan puxta epik an'ana doirasida ma'lum baxshi yoki baxshilar guruhiga xos alohida ijodiy xususiyatlar, yo'rlar, uslublar o'zgachaligi mavjud. Fol'klorshunoslikda buni shartli ravishda dostonchilik (baxshilik) maktablari deb yuritiladi. Hozirgi kunda o'zbek fol'klorshunosligida Bulung'ur, Qo'g'on, SHahrisabz, Qumay, SHerobod, Janubiy Tojikiston, Xorazm kabi poetik dostonchilik maktablari- baxshilik sanhatining ajoyib markazlari aniqlangan.

Qahramonlik dostonlari- «qahramonlik» atamasi O'zbek fol'klorshunosligida ikki mahnoda-keng mahnoda, umuman o'zbek eposiga nisbatan, tor mahnoda, uning bir turiga nisbatan ishlatiladi. Qahramonlik dostonlari bizgacha sof holda «Alpomish» misolida yetib kelgan.

Romanik dostonlar- o'zbek xalq baxshilari re'ertuaridagi dostonlarning eng katta qismi romanik dostonlardir. «Xalq romani», «romanik» atamaları turkologiyada shartli ravishda kabul qilingan bo'lib, ular og'zaki yaratilgan, ba'zan kelib chiqishi jihatidan kitobiy manbaga ega bo'lgan va og'zaki ijro etilgan muayyan dostonlar guruhini bildiradi. Bu xil dostonlarda ko'tarinki, romantik sevgi motivlari doston qahramonlarining fantastik, g'ayri tabiiy sarguzashtlari girdobida tasvirlanadi.

Jangnoma-dostonlar- jangnoma-dostonlar qahramonlik dostonlari bilan romanik epos O'tasidagi alohida bosqichni tashkil etadi. Jangu jadallar, tarixiy yoki afsonaviy urushlar va bunday jang epizodlarida qo'rshin va yakka shaxslarning jasoratlarini tasvirlovchi dostonlar jangnoma-dostonlar deb yuritiladi.

Jangnomalar- qahramonlik dostonlari tahsirida feodalizm davrida shakllangan. Agar bosh qahramon faoliyati qahramonlik dostonlarida yakkama-yakka olishuvlarda, bahodirlik shartlarini bajarishda namoyon bo'lsa, jangnomalarda turli-tuman harakterdagi urush epizodlarida ko'rsatiladi. Hukmron tabaqa islom dinini harbiy kuch bilan yoygan shaxslarni xalq orasida targ'ib qilish maqsadida jangnoma ko'rinishidan foydalangan. Natijada «Jangnomai Abo Muslim» «Jangnomai Sayid Battol G'oziy», «Jangnomai Amir Hamza» kabi islom dinini zo'rlik bilan targ'ib etgan shaxslarning nomi bilan bog'langan jangnomalar yuzaga kelgan.

Qahramonlik-romanik dostonlar- bu turga mansub («Yakka Ahmad», «Emazar», «Rustam» turkumi, «G'or o'g'li» turkumi) asarlarda qahramonlik yo'nalishi yetakchilik qiladi, ya'ni ularda sevgi, mojarolariga nisbatan qahramonlik temasini ishlash birinchi 'landa turadi.

Ishqiy-romanik dostonlar- bu tipdagi dostonlarda sof muhabbatni kuylash, intim sevgi sarguzashtlarini tasvirlashga alohida ehtibor beriladi. Ularda bir tomondan, sevgi yo'lidagi achchiq qismat, iztirob, ruhiy dramalar yorqin g'aydalantirilsa, ikkinchidan, shu achchiq qismat tasvirida adolatli turmushga

intilish, sevishtanlarning oxir-oqibatda qovushishlari va yorqin kelajakka ishonch yog'du sochib turadi. Bu jixatdan «Kuntug'mish» dostoni harakterlidir.

Maishiy-romanik dostonlar- ularda realistik holatlar, mavjud tuzumdan ijtimoiy norozilik kayfiyatlari, maishiy turmush bilan bog'liq turli-tuman tafsilotlarni batafsil tasvirlash yetakchilik qiladi. Bunday dostonlar syujeti feodalizm sharoitida o'zining real zaminiga ega edi. Masalan, «Qironxon» («Sohibqiron») dostonida realistik holatlar fantastik voqea va hodisalar bilan uyg'un bir holatda tasvirlanadi.

Kitobiy dostonlar- bu o'rinda «kitobiy» atamasi nihoyatda shartli bo'lib, ular ham aslida og'zaki kuylangan va bizgacha og'zaki ravishda yetib kelgan dostonlardir. Kitobiy dostonlarning bir guruhi mumtoz adabiyot namunalarining baxshilar tomonidan qayta ishlanishi natijasida yuzaga kelgan. Masalan, «Farhod va SHirin», «Layli va Majnun», «Bahrom va Gulandom» Alisher Navoiy dostonlari, «Yusuf va Zulayho» shu syujetdagi forsiy va turkiy asarlar, «Rustami Doston», «Varqa bilan Gulshoh», «Vomiq bilan Uzro» forschadan ozarbayjonchaga qilingan tarjimalar asosida yaratilgan.

Tarixiy dostonlar - tarixda bo'lib o'tgan voqea va hodisalar, ayrim tarixiy shaxslar faoliyati asosida yaratilgan tarixiy dostonlar baxshilar repertuarida boshqa dostonlarga nisbatan juda kam o'rin egallaydi, tarqalish doiralari ham nihoyatda chegaralangan. Ularda tarixiy haqiqat bilan afsona, fakt bilan badiiy to'p'qima chatishib ketgan, ya'ni bunday asarlarda aniq tarixiy voqelikka tal'klarga xos ravishda yangi ma'no beriladi va baholanadi. SHu bilan birga, ularning mavzusi, obrazlari, tashigan g'oyalari aniq tarixiy sharoitdagi kurashlar bilan bog'liqdir.

Tarixiy-fantastik dostonlar- ularda epik voqelik yarim tarixiy, yarim afsonaviy harakterda tasvirlanadi. Bunday dostonlarda qachonlardir bo'lib o'tgan tarixiy voqealar va tarixiy shaxslar epik bayon uchun umumiy fon vazifasini o'taydi.

Tarixiy-konkret yoki yangi dostonlar- bu ti'ga XIX asrning II yarmi va XX asr boshlari, xususan, sho'rro davrida baxshilar tomonidan yaratilgan asarlar

kiradi. Bunday dostonlar o'zlarining mustahkam tarixiy asoslariga, qahramonlarining prototiplariga ega. «Topilg'anoy», «Mamatkarim polvon», «Jizzax qo'zg'oloni», «Mardikor», «Amir qochdi», «Ochildov», «Hasan batrak» qabilar yangi dostonlarning eng yaxshi namunalari hisoblanadi. Aniq faktlar va hujjatlarga asoslanish bunday dostonlarning bosh xususiyatidir.

Avtobiografik dostonlar- liro-epik harakterga ega bo'lib, ularda baxshilar o'zlarining hayot va ijod yo'rli asosida davrning muhim voqea-hodisalarini tasvirlaydilar. Ergash Jumanbulbul o'g'lining «Tarjimai hol», Fozil Yo'ldosh o'g'lining «Kunlarim», Abdulla Nurali o'g'lining «Kunlarim» kabi dostonlari buning yorqin namunalaridir.

«G'o'r o'g'li» turkumi - xalq dostonchiligida har biri mustaqil yashagan va ayrim-ayrim nomga ega bo'lgan asarlar silsilasi, muayyan omillar bilan bir-biriga birlashgan kattakon turkum bo'lib, ko'r'gina xalqlar orasida juda keng tarqalgan.

Dostonlarning kompozitsion tuzilishi- umumiy an'anaviy andaza asosida bo'lib, uni o'rni bilan o'zaro almashinib turadigan nazm va nasriy matnlar tashkil qiladi. Bunday umumiy qolip bir qator turkiy xalqlar eposlari uchun ham xosdir. Dostonlardagi she'rlar, asosan, 7, 8 va 11 hijoli barmoq vaznida bo'lib, turoqlarning o'zgarib turishi, band tuzilishi va qofiyalanish sistemasiga ko'ra o'ziga xos xususiyatga ega. 7,8 hijoli vazn voqealarning jadal rivojlanishi tasvirida qo'llaniladi, ular tezlikni bildiradi.

epik klisshelar- dostondan dostonga aynan yoki ayrim o'zgarishlar bilan «ko'rchib yuradigan» bunday parchalar umumiy tipik o'rinlar yoki epik klisshelar deb yuritiladi. Dostonlarning boshlamasi (zachini) va tugallamas, qahramonga nasihat, ot ta'rifi va otni egarlash, otda safar, jang tasviri, maston, ko'rsa, oqqiz singari an'anaviy obrazlarning portretlari va boshqalar epik klisshelar hisoblanadi. Epik klisshelarni to'g'ri va o'z o'rnida qo'llash dostonchining mahorati va iqtidoriga bog'liq.

Doimiy uslubiy shakllar- dostondan dostonga ko'chib yuruvchi, tayyor, qoli' holiga kelib qolgan misralar, ikkiliklar, ifodalardir: «Xazon boprimay

bog'da gullar so'ldimi, so'rilgan gulga bulbul kelib qo'rndimi», «Qiyg'ir degan qush o'rtirar qiyada», «Ot chopsa gumburlar tog'ning darasi, botirni ingratay nayza yarasi», «Uchqur eding qanotingdan qayrilding, yugrug boprtang tuyog'ingdan toyrilding», «Oshiqning fahmidir qorong'i kecha», «Yomg'ir yog'sa, halqob yerlar loylansin», «Bahorda ochilgan bog'ning gulisan», «Qizil gul ochilar g'unchadan g'uncha».

Xalq dramasi - xalq orasida og'zaki tarzda yaratilgan va xalq san'atkorlari tomonidan sahnada namoyish etiladigan asarlar xalq dramasi yoki og'zaki drama deb ataladi. Og'zaki drama –xalq ijodining mustaqil janri sifatida juda qadim zamonlarda shakllangan.

Lof - o'zbek o'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos, alohida mustaqil janrlaridan biridir. Uning tabiatida epiklik va dramatiklik o'zaro uyg'unlashib ketganligi tufayli lof epizodik og'zaki drama namunasi sifatida ko'zga tashlanadi. Loflar sahnaga mo'ljallangan, satira va yumoraga asoslangan, tomoshabinlar guruhining mavjud bo'lishini taqozo etadigan asarlar bo'lib, ular o'ziga xos ijro usuliga ega. Loflar so'zga chechanlik va hozirjavoblikni talab etadi. Harakatning kontrast asosida qurilganligi-yu, kuchli mubolag'aga asoslanishi bilan alohida ajralib turadi.

Lofchilar - lof aytuvchilardir. Ular ustoz-shogirdlik munosabati orqali mas'ul tayyorgarlikdan keyin yetishib chiqqan.

O'zbek bolalar fol'klori - O'zbek bolalar fol'klori umumfol'klorning tarkibiy qismi amalda-da, faqat o'zigagina xos xususiyatlarga ham ega. Taniqli rus fol'klorshunosi, professor G. S. Vinogradov ilk bor qo'rilgan "bolalar fol'klori" istilohi o'tgan asrning 60-yillariga kelib O'zbek fol'klorshunosligida ham qo'rilana boshladi va o'zlashdi. Bolalar fol'klori kichkintoylar olami bilan kattalar dunyosining uyg'unlashuvi oqibatida yuzaga kelgan o'ryinlar, qo'shiqlar va musiqali poetik janrlarning butun bir tizimi tarzida tarkib topgan. Uni yaratishda kattalar ham, bolalar ham baravar hissa qo'shishgan.

Allalar - bolalarni uxlatish uchun aytiladigan xalq qo'shiqlari "Aila" so'zining chig'atoycha ekanligini ta'kidlar ekan, dastlab u "allala" shaklida bo'lib, boshning orqasi, ya'ni ensani anglatadi.

Voqeaband (syujetli) allalar - yagona syujetga ega, barcha bandlaridagi poetik muddao bir silsilada markazlashgan hayotiy voqealarning biror epizodi natijasida vujudga kelgan kayfiyatlar tasviridan iborat bo'ladi. Ularda kompozitsiya puxta: ekspozitsiya, tugun, kul'minatsiya va yechim singari uzvlar mavjud bo'ladi.

parokanda allalar- yaxlit syujet asosida qurilmagan bo'ladi.

Aytim-olqishlar erkalovchi motivdagi rasm-rusum qo'shiqlari bo'lib, aksariyati asosan, bolalarning beshik davriga oid turli-tuman marosimlarda ijro etiladi: CHaqaloq besh va to'qqiz kunga topilganda, ilk bor cho'miltirilganda, beshikka birinchi marta va har gal bog'lanib, yana ochib olinganda, ilk bor otanasi va qarindoshlariga tanishtirilganda, ilk tishi yorilganida, birinchi marta mustaqil o'tirganida, oyoq bosganida, toy-toylaganida, yangi kiyim kiygizilganda, ilk bor ovqatlantirilganda, qizaloq sochini ilk bor yuvib-taraganda, tirnog'i ilk bor olinganda, o'g'il bola sochi birinchi marta qirqilganda, bola shahniiga isiriq tutatilganda, xullas, shunday rasm-rusumlarning har biri mazmuniga yarasha aytim-olqishlar mavjud.

Erkalamalar - *suyish qo'shiqlarining* bir turi. Erkalamalar uchun kayfiyatning ko'tarinkiligi muhim rol o'rynaydi. Ular kayfiyat taqozosi tufayli mehr xurujidan tug'iluvchi badihalardir. Erkalamalarda ijrochi kayfiyatining xushligi, ko'tarinkiligi muhim; xafalikda, ehtiroslar sovugan paytda bolani erkalash mayli tug'ilmaydi. Bolani erkalash uchun kayfiyat behad chog' boprlmog'i shart. Ekstaz holat erkalamalar janr tabiatini belgilovchi yetakchi xususiyatdir. Erkalamalarning aksariyati "O... shugina" yoki "SHugina" va "SHuginagina" so'zlari bilan boshlanib, ko'r'incha 4 yoki 6, ayrim hollardagina 10 va undan ortiq satrdan iborat bo'ladi.



Ovutmachoqlar- *suyish qo'shiqlarining* bir turi. *Ovutmachoqlar* kichkintoylar g'ashlanganda, baqirib-chaqirib yig'laganda, betoqatligi oshganda




ovutish zaruriyatining ehtiyojga aylanishi oqibatida yuzaga kelsa, esa bolani tinchlantirish ehtiyojini qondiruvchi badihalardir. Ovutmachoqlar vaziyat taqozosi tufayli yaratiladi va ijro qilinadi. Ovutmachoqlarda ijrochi kayfiyatining qay holatdaligi ahamiyatsiz.


Bolalar taqvim qo'shiqlari - bolalarning o'z solnomasi (kalendari) va uni ifoda etuvchi mavsum-marosim qo'shiqlari yuzaga kelgan. Bahor, yoz, kuz, qish mavsumlari bilan bog'liq bunday qo'shiqlarining bir qismi ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot taqozosiga ko'ra kattalar repertuaridagi mavqeini yo'qota borib, yo tamoman so'nib ketadi, yo transformatsiyaga uchrab bolalar re'ertuarida saqlanib qolgan. "Boychechak", "Yo ramazon" va hayitliklar shular jumlasidan hisoblanadi.

3. FOTOILLYSTRATSIYALAR
JIZZAX FOL'KLOR ETNOGRAFIK ANSAMBLI











MUALLIF

Mamarasulzoda Zulxumor Abulqosim qizi, Shuxrat medali va Nihol mukofoti sohibasi

Mamarasulzoda Zulxumor Abulqosim qizi, Jizzax viloyati, Zarbdor tumanida ziyoli oilada 1992 yili 16 martda dunyoga keldi. Xushavoz xonanda 1998-2007 yillarda Zarbdor tumanidagi Sh.Rashidov nomli 1-o'rta maktab o'quvchisi. 2007-2010 yillar davomida Jizzax viloyati san'at kolleji an'anaviy ijrochilik bo'limi talabasi, 2011-2015 yillarda JDPI talabasi, 2019 yildan boshlab JDPI magistranti va 2021 yildan boshlab JDPI - Musiqa ta'limi kafedrasida o'qituvchisi lavozimida faoliyat ko'rsatmoqda.

Zulxumor Mamarasulzoda an'anaaviy va zamonaviy xonandalik tanlovlari g'olibi asnosida 2013 yilda "Nihol" va 2020 yilda esa Respublika va Xalqaro gostrollardagi ko'p yillik halol mehnati va xizmatlari uchun "Shuxrat medali" sohibasiga erishgan.

Zulxumor Abulqosim qizi oilali, ikki nafar farzandining mehribon onasidir. Uning oilasi mahalladagi eng ibratli oilalardan hisoblanadi. U tomonidan talaba yoshlarni o'quv, tarbiyaviy faoliyatini Institut va viloyat miqiyosidagi turli xonandalik to'garaklari faoliyatini yo'lga qo'yish, zamonaviy axborot texnologiyalari va multimedia resurslaridan foydalangan holda pedagogik faoliyatini olib bormoqda. Shuningdek, institut ilmiy, uslubiy, o'quv tarbiyaviy hamda jamoatchilik ishlarida faol ishtirok etadi.

Zulxumor Abulqosim qizi, tavsiflanishida fidoiy, g'amxo'r, va o'z sohasining mohir ijrochisi va ko'plab zabardast shogirdlarning talabchan ustozidir.

Muallif tomonidan tayyorlangan "O'zbek musiqa fol'klori namunalarini to'plash va yozib olish tarixi" deb nomlangan "Monografiya" si dolzarb va qiziqarli muammolar yechimini o'z ichiga olgan bo'lib, yosh avlod tarbiyasida kasbga yo'naltiruvchi fan sifatida va izlanuvchan doktorantlarga manba asnosida hamda hamma uchun o'qish, tanishish va foydalanish uchun mo'ljallangan.